

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA’LIMI VAZIRLIGI

NAVOIY DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

Qo‘lyozma huquqida

AXMEDOVA MAFTUNA FAXRIDDINOVNA

**O‘TKIR HOSHIMOV HIKOYALARINING
LINGVOPOETIK TAHLILI**

5A 111201 - O‘zbek tili va adabiyoti mutaxassisligi

Magistr akademik darajasini olish uchun yozilgan

D I S S E R T A T S I Y A

ILMIY RAHBAR:

f.f.d. N.Q.Murodova

NAVOIY - 2014

1.Bob. O`tkir Hoshimov hikoyalarining fonetik-fonografik va grammatik xususiyatlari.

- 1.1 Segment hodisalarning stilistik xususiyatlari.
- 1.2 Supersgment vositalarning stilistik xususiyatlari.
- 1.3 Hikoyalarda morfologik va sintaktik formalarning qo`llanilishi.

2.Bob. O`tkir Hoshimov hikoyalarining leksik-semantik xususiyatlari.

- 2.1 O`tkir Hoshimov hikoyalarida sinonim hamda antonimlarning uslubiy xususiyatlari.
- 2.2 O`tkir Hoshimov hikoyalarida barqaror birikmalarning qo`llanilishi.
- 2.3 O`tkir Hoshimov hikoyalarida chegaralangan qatlam leksikasi.

3.Bob. O`tkir Hoshimov hikoyalarida poetik tasviriy vositalarning qo`llanilishi.

- 3.1 Hikoyalarda sintaktik figuralarning qo`llanilishi.
- 3.2 Troplarining hikoyalardagi o`ziga xos xususiyatlari.

Dissertatsiyaning umumiy tavsifi

Mustaqillik sharofati bilan ma'naviyatimizning muhim sarchashmasi bo'lgan ona tilimizga hukumatimiz tomonidan jiddiy e'tibor berilmoqda. Milliy tilimizni tadqiq qilishga keng imkoniyatlar yaratilmoqda. Bu nafaqay yozuvchilar uchun, balki kitobxon uchun ham bu sohada ma'lum tushunchaga ega bo'lish, imkon darajada sohaga oid leksikalarni mukammal o'rganishni taqozo etadi. Bu ishlarning barchasi prezidentimiz I.A. Karimov tashabbuslari bilan bo'lmoqda, albatta.

“Yoshlarni vatanga sadoqat, yuksak axloq, ma'naviyat va ma'rifat, mehnatga vijdonan munosabatda bo'lish ruhida tarbiyalash zarur”¹. Zotan, ta'lim jarayonini, o'qitish sifatini tubdan yaxshilash davlatimiz olib borayotgan ko'p qirrali siyosatda asosiy vazifalardan biri bo'lib qoldi. Uni amalgam oshirish uchun esa ma'lum mavzu doirasida keng va atroflicha bilim beradigan hamda bu bilimlarni milliy istiqlol g'oyalari bilan, milliy mafkura va dunyoqarash hamda uzoq yillar davomida shakllangan ma'naviyatimiz bilan uzviy bog'lay oladigan darsliklar, o'quv qo'llanmalari zarur.

Tabiiyki, ana shu zaruriyat bilan bog'liq dunyoqarash tilshunoslik ilmini o'qitish jarayoniga ham taalluqlidir. Bu sohani o'rganishdagi ko'plab qonun-qoidalar, til material doirasidagi o'zgarishlar juda sekinlik bilan amalgam oshgan bo'lsa-da, tilning sotsialingvistik jihatlari, uni amalda qo'llash jarayonining yangicha, zamonaviy talablarga muvofiqlashtirilishi hayot talabidir. Bu, dastavval, til materialidan nutq jarayonida samarali foydalanish, nutq madaniyatini yanada takomillashtirish borasida me'yoriy muammolarni ma'lum darajada hal qilish va bunga oid bilimlardan talabalarni, jamoatchilikni xabardor qilib borish bilan bog'liq.

Tilning turli qirralarini uzviy tarzda birlashtirib, uni yaxlit bir butunlik, bir sistema sifatida o'rganuvchi tilshunoslik asrimizning 20-yillarida shakllandi va

¹ Karimov I.A. Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. O'zR oily majlisi IX sessiyasida so'zlangan nutq, 1997-yil 29-avgust. – Toshkent, 1997, 4-bet.

system-struktur tilshunoslik nomi bilan mashhur bo'ldi. Shuni aytib o'tish kerakki, Ferdinand de Sossyur asos solgan XX asr sistem tilshunosligi bag'rida o'nlab yangi lingvistik oqim va maktablar vujudga keldi, ularda ulkan zamonaviy yutuqlar qo'lga kiritildi.

Prezidentimiz I.A. Karimov ta'biri bilan aytganda, "Agar biz O'zbekistonimizni dunyoga tarannum etmoqchi, uning qadimiy tarixi va yorug' kelajagini ulug'lamoqchi, uni avlodlar xotirasida boqiy saqlamoqchi bo'lsak, avvalambor buyuk yozuvchilarni, buyuk ijodkorlarni tarbiyalashimiz kerak"².

Ma'lumki, so'z badiiy tasvirning asosiy vositasi, obraz yaratishning, uni individuallashtirishning muhim omillaridan biri sanaladi. So'zsiz, ekspressivlikni ifodalovchi fonetik, morfologik, sintaktik vositalar ishtirokisiz ob'ektiv borliqdagi narsa predmetlarni, hodisalarni aniq tasvirlash mumkin emas. Azal-azaldan so'zlar vositasida ana shunday leksik-semantik guruhlar va turli xil ma'no ko'chish yo'llarini hosil qilingan. Buning natijasi o'laroq asar badiiy saviyasi oshgan va o'z badiiy qimmatini saqlagan holda avlodlargacha yetib kelgan.

Hozirgi o'zbek adabiyoti, xususan, hikoyachiligi jamiyatimizning ma'naviy-ma'rifiy yuksalishiga ham sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda, chunki adabiyotning quroli tabiiyki, so'zdir. So'z orqali go'zal tasvir yaratildimi, demak, bunday tilning lug'at boyligi kengdir. Til biror bir millat uchun xos bo'ladi, shu millatning tarixan qadimiyligi bilan ham baholanadi. O'zbek tili ana shunday boy millatning tilidir. Prezidentimiz I. Karimov o'zining "O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida" asarida shunday yozadi: O'z ona tilini bilmagan odam o'zining shajarasini, o'zining ildizini bilmaydigan kelajagi yo'q odam, kishi tilini bilmaydigan odam uning dilini ham bilmaydi³. Shuningdek, prezidentimizning "Biz ma'naviy qadriyatlarni tiklashni milliy o'zlikni anglashning o'sishidan, xalqning ma'naviy

² Karimov I. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma'naviyat, 2008. 139-140-bet.

³ Karimov I. A. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. Toshkent. "Ma'naviyat". 2011-y, 70-bet.

sarchashmalariga, uning ildizlariga qaytishdan iborat uzviy, tabiiy jarayon deb hisoblaymiz⁴ deb aytgan soʻzlari bejizga emas, albatta.

Koʻp asrlar davomida shakllangan maʼnaviy-maʼrifiy qadriyatlarimizga tayangan, bugungi kunda yangi istiqlol mafkurasi bilan oziqlantirilayotgan, shu bilan birga, bizni umumbashariy ulugʻ maʼnaviyat sari yetaklayotgan milliy ongimiz, shuurimiz va dunyoqarashimiz ona tilimizning amaliy jihatlarini zamon talablariga mos ravishda oʻrganish barchamiz uchun muhimdir.

Muammoning oʻrganilganlik darajasi. Oʻzbek hikoyachiligi tarixidan bizga shu narsa maʼlumki, har bir ijodkor ijodi oʻziga xos mahorat maktabidir. Har bir yaratilish odamzotning aql-tafakkuri, salohiyati va maʼnaviy jasorati mahsulidir. Shuning uchun ham bu yorugʻ olamda eng buyuk jasorat deya maʼnaviy jasorat tan olinadi.

Keyingi yillarda oʻzbek tilshunosligida badiiy adabiyot tili muammolari bilan shugʻullanishning jiddiy tus olganligi til birliklarining adabiy asarda namoyon boʻlish xususiyatlarini tobora oydin tasavvur qilishimizga, ularning badiiy adabiyot shakllanishi va badiiy estetik taʼsirini kengroq doirada tushunishimizga sababchi boʻlmoqda. Lingvistik birliklarning adabiy yohud poetik asardagi lisoniy va badiiy-estetik vazifasini tahlil qilish hali koʻplab tadqiqotlarning yaratilishini taqozo qiladi.

Har qanday yozuvchining ijodiy kamolotga erishuvi, eng avvalo, uning milliy gʻoya va qadriyatlarga sadoqati hamda ularni oʻz ijodida lingvopoetik jihatidan nechogʻlik mahorat bilan yuksak darajada ifodalay olish imkoniyatiga bogʻliq.

Oʻzbek tilshunosligida badiiy asar tili, soʻzlarning oʻz va koʻchma maʼnolari, maʼno koʻchish usullari, shuningdek, soʻzlarning shakl va mazmun munosabati, faol va nafaol qatlam, bu hodisalarning nazariy asoslari masalalarini oʻrganishga jiddiy kirishilgan. Ana shuni nazarda tutib, mazkur ilmiy ishda Oʻtkir Hoshimov qalamiga mansub hiokoyalarida qoʻllangan leksik birliklar tekshirilib,

⁴ Karimov I. A. Oʻzbekiston XXI asr boʻsagʻasida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. – T.: 1997.137-bet.

ularning ekspressivlik xususiyatlari yoritilganki, ish bu sohada shu paytgacha maydonga kelgan tadqiqotlarni ma'lum ma'noda to'ldiradi, degan fikrdamiz. Yuqorida qayd qilinganlar ushbu magistrlik dissertatsiyasi mavzusining dolzarbligini belgilaydi.

Dissertatsiya ishining ilmiy – tadqiqot ishlari, rejalari bilan bog'liqligi.

Tadqiqot Navoiy davlat pedagogika instituti "O'zbek tilshunosligi" kafedrasining ilmiy tadqiqotlar rejasi asosida amalga oshirildi.

Tadqiqotning maqsadi. Ma'lumki, badiiy asarlarni lingvopoetik jihatdan o'rganish badiiy nutqning nasriy matnlarda ifodalash mumkin bo'lmagan tomonlarini ham aniqlashga yordam beradi. Mazkur magistrlik ishida badiiy matnda leksik birliklarning ekspressiv ta'sirchanlikni ifodalash imkoniyatlarini o'rganish, badiiy matn mazmunini shakllantirishdagi o'rnini belgilash masalalariga diqqat qaratilgan.

Tadqiqotning vazifalari. Ilmiy tadqiqotning asosiy maqsadi – O'tkir Hoshimov hikoyalarini lingvopoetik jihatdan tahlil qilib, ijodkorning badiiy tasvir vositalaridan, shuningdek, o'zbek tilining boy imkoniyatlaridan foydalanishdagi mahoratini va bu orqali adibning o'zbek adabiy tili rivojidadagi o'rnini belgilashdan iborat.

Tadqiqot maqsadini amalgam oshirish uchun quyidagi vazifalar amalgam oshirildi:

- O'tkir Hoshimov hikoyalarini lingvopoetik jihatdan o'rganishning dolzarbligini belgilash;
- O'tkir Hoshimov hikoyalarining fonetik-fonografik xususiyatlarini lingvopoetika bilan aloqadorlikda tahlil etish;
- Segment va supersegment hodisalarning uslubiy xususiyatlarini ko'rsatish;
- Hikoyalarni morfologik jihatdan tahlil qilish;
- Ulardagi sintaktik xususiyatlarni aniqlash va tahlil qilish;
- O'tkir Hoshimov hikoyalarini leksik-semantik jihatdan o'rganish;
- Hikoyalarda barqaror birikmalarning joylashish tartibiga e'tibor qaratish;
- Maqollar va iboralarning qo'llanish ahamiyatiga e'tibor qaratish;

- O`tkir Hoshimov hikoyalarida poetik tasviriy vositalarning stilistik jihatdan qo`llanish o`rnini belgilash;
- Hikoyalarda sintaktik figuralarning ishtirokini kuzatish;
- Hikoyalardagi troplarning joylashish o`rniga ahamiyat berish;
- O`tkir Hoshimov hikoyalarida badiiy tasvir vositalaridan foydalanishdagi o`ziga xosliklarni aniqlash.

**Mavzu bo`yicha qisqacha adabiyotlar tahlili.** Badiiy til masalasini ayni lingvopoetik maqsadlar bilan yoritish borasida X.Doniyorov, S.Mirzayev, X.Samadov, I.Qo`chqortoyev, X.Abdurahmonov, M.Mirtojiyev, N.Mahmudov va boshqalar alohida diqqatga sazovor bir qancha ishlarni yaratganlar. Shuningdek, keyingi yillarda yozuvchining til birliklaridan, ayniqsa, leksik birliklardan foydalanish mahoratini o`rganishga bag`ishlangan bir qancha ishlar yuzaga keldi. Masalan, tilshunos L.Abdullayeva⁵, E.Qilichev⁶ B.Umarqulov⁷lar o`z monografiya va kitoblarida o`zbek badiiy adabiyoti tilining leksik stilistikasi muammolari, badiiy tasvirda ishtirok etadigan leksik vositalar, ularning ifoda imkoniyatlari, so`zning estetik qimmatini kabi masalalarni tadqiq etganlar<sup>8</sup>. Badiiy matnning leksik xususiyatlarini o`rganishga bag`ishlangan tadqiqotlar salmoqli darajada bo`lsa ham, adabiyotimiz tarixiga kiradigan barcha asarlarni qamrab olgan deya olmaymiz. Biz mana shularni hisobga olgan holda leksik birliklarning fonetik-fonografik, leksik-semantik, grammatik xususiyatlarini, shakl va mazmun nomunosibligini ifodalay olish imkoniyatlarini tadqiq etib o`rganishni lozim deb topdik va bu masalani O`tkir Hoshimovning “O`zbeklar” va “Oq bulut, oppoq bulut” nomli kitoblaridan o`rin olgan hikoyalari misolida ko`rib chiqdik.

O`zbek tili lug`at boyligini sistemaviy tekshirish va shuning barobarida, lingvopoetika sohasida amalga oshirilayotgan ilmiy tadqiqotlar hamda ularning natijasi o`laroq qo`lga kiritilgan yangi tadqiqotlar asosan “O`zbeklar” va

⁵ Abdullayeva L. Leksicheskaya stilistika uzbekskoy xudojestvennoy literatury. -Toshkent:Fan, 1979.

⁶ Qilichev E. Matnning lingvistik tahlili. Buxoro, 2000- yil

⁷ Umarqulov B. Poetik nutq leksikasi. Toshkent, “Fan”, 1990 yil.

⁸ Yo`ldoshev M. Badiiy matn va uning lingvopoetik tahlili asoslari. Toshkent, 2007 yil. 8-bet.

qo`shimcha sifatida “Oq bulut oppoq bulut”, “Daftar hoshiyasidagi bitiklar” kitoblaridagi hikoyalardan foydalanildi.

Tadqiqotning metodologiyasi. Tadqiqotning metodologik asosini muhtaram prezidentimiz I.A.Karimovning asarlari, so`zlagan nutq materiallari, shuningdek, falsafaning shakl-mazmun, sabab-oqibat, umumiylik-xususiylik kategoriyalari tashkil qiladi. Asosan, lingvopoetik, uslubiy tahlil hamda tasniflash usullaridan keng foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi. Badiiy nutq individualligi lingvistik omillar bilan ta'minlanadi. Lingvistik omillar turli tabiatli bo`lib, tilning barcha sathlarini qamrab oladi. O`. Hoshimov ijodi badiiy nutqining o`ziga xosligini ko`rsatishda leksik vositalarning ekspressiv stilistik xususiyatlari o`rganilar ekan, buning natijasida quyidagi ilmiy yangiliklar qo`lga kiritildi:

- o`zbek adabiyotining o`ziga xos nutq egasi bo`lgan O`tkir Hoshimov badiiy ijodidagi badiiy asar tilini shakllantiruvchi leksik vositalar tahlil etildi;

- individual uslub xususiyatlari ochib berildi;

- hikoyalardagi fonetik-fonografik hodisalarning asar mazmunidagi o`ziga xos xususiyatlari ochib berildi;

- morfologik va sintaktik jihatdan hikoyalarning til xususiyatlari o`rganildi;

- leksik-semantik birliklarning hikoyalardagi o`ziga xos jihatlari;

- o`xshatish va metaforalarning nutq individualligini ta'minlashdagi, shuningdek, badiiy matn tilining ekspresivligini oshirishdagi o`rni va mavqeyi O`. Hoshimov ijodi misolida ochib berildi;

- turli xil leksik vositalarning O`. Hoshimov nutqidagi stilistik imkoniyatlari badiiy uslubni, qahramonlar nutqini individuallashtirishdagi o`rni yorqinlashtirildi;

- barqaror birikmalarning O`. Hoshimov ijodida stilistik qo`llanish imkoniga ko`ra o`rni belgilandi;

- qo`llanish doirasiga ko`ra chegaralangan qatlam leksikasining qo`llanish doiralari aniqlandi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy-amaliy ahamiyati. Lingvopoetik tadqiqotlar tilimiz tabiatiga doir bir qator yangiliklar qilish, adib O`tkir Hoshimov hikoyalarining o`ziga xos jihatlari haqida xulosalar chiqarish imkoniyatini beradi. Shuningdek, adbiy tilimizning yanada boyishiga, ravnaq topishiga xizmat qiladi. Adib ijodida keng qo`llanilgan fonetik, grammatik, leksik vositalar, shuningdek, badiiy tasvir vositalaridan foydalanish natijasida ijodkor mahoratini yoritib berish bo`yicha amalga oshirilgan tahlillarning mavjudligi va ularning ilmiy xulosalanganligi ilmiy qimmatini oshiradi. Ishda erishilgan ilmiy va amaliy natijalardan O`tkir Hoshimov ijodini litsey hamda oily o`quv yurtlarida o`rganish, seminar-trening, ma`ruza, muloqot-suhbat darslarini tashkil qilishda qo`shimcha material sifatida foydalanish mumkin.

**Natijalarning e`lon qilinganligi.** Dissertatsiyaning asosiy mazmuni muallif tomonidan e`lon qilingan oltita maqola va tezislarda o`z ifodasini topgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch asosiy bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro`yxatidan iborat. Times New Roman shriftining 1,5 intervali 14 kegel kattaligida sahifani tashkil etadi.

Kirish.

O'zbek tilshunosligida keyingi yillarda badiiy adabiyot tili muammolari, muayyan bir ijodkorning tildan foydalanish mahorati, yozuvchining u yoki bu til sathi birliklarini qo'llashdagi o'ziga xosliklarni aniq va batafsil ochib berishga mo'ljallangan juda ko'plab tadqiqotlar yaratilib kelinmoqda. Bunday tadqiqotlarning debochasi sifatida bir qator ishlarni ko'rsatish mumkin. Ilk debochalar qatoriga Alisher Navoiyning nasriy va nazmiy asarlarining tili badiiy mahorat jihatidan o'rganilgan, ulug' mutafakkirning badiiy uslubiga xos lisoniy vositalar mohiyatini ochib berishga harakat qilingan. Bugungi kunga kelib badiiy asar tili muammolari bilan shug'ullanishning jiddiy tus olganligi til birliklarining adabiy asarda namoyon bo'lish xususiyatlarini tobora oydin tasavvur qilishimizga, ularning badiiy adabiyotda shakllanishi va badiiy estetik ta'sirini kengroq doirada tushunishimizga ko'makchi vazifasini o'tab kelmoqda. Tilimizdagi barcha birliklar badiiy adabiyotda badiiy tasvir vositasi vazifasini bajarsa-da, ularning ekspressiv jihatdan ma'no anglatishi va adabiy asardagi lisoniy va badiiy-estetik vazifasini batafsil tahlil qilish uchun juda ko'plab tadqiqotlar yaratilishi lozim.

Tilning turli qirralarini uzviy tarzda birlashtirib, uni yaxlit bir butunlik, bir sistema sifatida o'rganuvchi tilshunoslik asrimizning 20-yillarida shakllandi va sistem-struktur tilshunoslik nomi bilan mashhur bo'ldi. Shuni aytib o'tish kerakki, Ferdinand de Sossyur asos solgan XX asr sistem tilshunosligi bag'rida o'nlab yangi lingvistik oqim va maktablar vujudga keldi, ularda ulkan zamonaviy yutuqlar qo'lga kiritildi.

Ma'lumki, tilshunoslikning lingvopoetikaga oid bugungi kun taraqqiyotida badiiy tilni o'rganishda ko'proq leksik birliklarning lingvopoetikasiga oid ishlar ko'zga tashlanadi. Adiblar badiiy asarlarining tilini chuqur tahlil etish, leksik-semantik, grammatik birliklarning asardagi badiiy-estetik qimmatini ochib berish va ayni lingvopoetik maqsadlar bilan yoritish borasida X. Doniyorov, S. Mirzayev, X. Samadov, I. Qo'chqortoyev, M. Mirtojiyev, N. Mahmudov hamda Sh. Shoabdurahmonovlar alohida diqqatga sazovor bir qancha ishlarni amalga oshirishgan. Ko'rinib turibdiki, o'zbek tilshunosligida badiiy asar tilining

lingvopoetikasi bo'yicha ancha-muncha ish qilingan. Ammo bu yo'nalishdagi tadqiqotlar doirasi qanchalik katta bo'lishiga qaramasdan, ular badiiy adabiyotimiz tarixida alohida o'rin tutadigan jiddiy asarlarning barchasini qamrab olgan deb bo'lmaydi.

Ma'lumki, so'z badiiy tasvirning asosiy vositasi, obraz yaratishning, uni individuallashtirishning muhim omillaridan biri sanaladi. So'zsiz, ekspressivlikni ifodalovchi fonetik, morfologik, sintaktik vositalar ishtirokisiz obyektiv borliqdagi narsa predmetlarni, hodisalarni aniq tasvirlash mumkin emas. Azal-azaldan so'zlar vositasida ana shunday leksik-semantik guruhlar va turli xil ma'no ko'chish yo'llarini hosil qilishgan. Buning natijasi o'laroq asar badiiy saviyasi oshgan va o'z badiiy qimmatini saqlagan holda avlodlargacha yetib kelgan.

Sistemaviy tilshunoslikning dunyo bo'yicha keng tarqalishi turli sistemaga mansub tillarning ichki tuzilishini sistema sifatida tadqiq etishga e'tiborni kuchaytirdi. Tilning barcha sathlari sistemaviylik tamoyillari asosida o'rganila boshlandi. Xususan, o'zbek tilining fonetikasidan tortib sintaksisiga qadar bir qator tilshunoslar tomonidan sistemaviy asosda tadqiq etildi. Bu o'zbek tilshunosligida katta burilish bo'ldi⁹. Asarda til birliklari juda xilma-xil shakllarda namoyon bo'ladi. Badiiy asar tili muallif oldiga asarning ta'sir kuchini kuchaytirish uchun tilning barcha fonetik, leksik va grammatik vositalaridan ustalik bilan foydalanish, tanlash va yozuvchining o'zigagina xos bo'lgan ifoda shakllarini yaratish imkoniyatini qo'yadi.

Birinchi bob

⁹ Iskandarova Sh. Leksik-semantik sistema talqinlari. O'zbek tili va adabiyoti. 2009-yil 2-son, 43-b.

O'tkir Hoshimov hikoyalarining fonetik-fonografik va grammatik xususiyatlari.

1.1 Segment hodisalarning stilistik xususiyatlari.

Umuman, o'zbek lingvopoetikasining nazariy asoslarini ishlab chiqish, aniqrog'i, bir tizimga solish, uning tadqiqi usullari va vositalarini, tadrijiy takomilini yaxlit holda o'rganish, barcha tushunchalarni guruhlashtirish va shu yo'l bilan badiiylikni ta'minlovchi unsurlarni ham til jihatdan tadqiq etish bilan shug'ullanilgan tadqiqotlarda **ekspressivlikni** ta'minlovchi vositalar quyidagicha tasnif qilingan

Ma'lumki, fonetika bo'limida nutq tovushlari o'rganilar ekan, u vazifasiga qarab, tekshirish obyektiga ko'ra bo'lib o'rganiladi. Nutqning fonetik qismlarini o'rganishga qarab fonetika ikki turli bo'ladi, ya'ni segmental fonetika va suprasegmental fonetika.

Til fikr anglatish quroli bo'lishi bilan birga, insonlarga hissiy ta'sir qilish vositasi hamdir. Bu ta'sir so'zlardagi asosiy (denotativ) ma'noga asoslangan qo'shimcha (konnotativ) ma'nolar vositasida amalga oshadi. Konnotativ ma'no komponentlarini tashkil qiluvchi "bo'yoqlar" fonetik vositalarda ham kuchli ifodalanadi. Bular:

- nutq tovushlari talaffuzi bilan bog'liq ekspressivlikning aks etishi; so'zlarning tovush qiyofasini o'zgartirib aytish, so'zlarda tovush orttirish yoki tushirish, alliteratsiya orqali hayajon ifodalash va hokazo;
- baho komponenti – so'zda tasdiq yoki inkorni intonatsiya bilan ifodalash;
- so'zda belgi (miqdor) darajasining kuchliligini bildiruvchi tovush cho'ziqligi;
- so'zlovchining shaxs va hodisalarga nisbatan turlicha munosabatini ifodalovchi pragmatik ma'no, ya'ni geminatsiya yoki pauzalar orqali qo'shimcha bo'yoq ifodalash;

- nutqning vazifaviy uslublari bilan bog'liq qo'shimcha ma'no komponenti va boshqalar¹⁰.

Biz ham mana shu tadqiqotlarga tayangan holda adib ijodidagi fonetik birliklar yordamida ta'minlovchi vositalarni o'rganib chiqdik va samarali qo'llanilgan birliklarni ishimizda ko'rib chiqdik.

O'zbek tiliga davlat tili maqomining berilishi bu yo'ldagi segment va supersegment vositalardan to'g'ri va unumli foydalanib, nutqni yanada ravon hamda jozibador qilishlikni taqozo qilmoqda.

Nutq tovushlarining hosil bo'lishi va ularning xususiyatlarini o'rganuvchi fonetika segmental (segment – nutq bo'lagi) fonetika deyiladi. Segment birliklarga nutq tovushlari va bo'g'in kirar ekan, bunday birliklar morfema va so'zlar tarkibida ketma-ket keladi.

Nutq tovushlaridan katta bo'lgan fonetik birliklar esa suprasegmental fonetika yoki prosodika deyiladi. Suprasegment elementlarga bo'g'in, urg'u va ohang kiradi. Bunday birliklar so'zga, frazaga, gapga yoki nutqqa yaxlit aloqador bo'lib, ularni so'z, gap yoki nutqdan ajratilgan holda tasavvur qilib bo'lmaydi¹¹. Shuning uchun ham tilshunos olim M.Mirtojyev bu hodisalarni tahlil qilib, ustama hodisa deb nomlagan. Og'zaki nutqqa xos bo'lgan supersegment vositalardan biri intonatsiyadir¹².

Ma'lumki, badiiy matnni tahlil qilish jarayonida fonetik birliklarning estetik xususiyatlariga ham alohida e'tiborni qaratish zarur. She'riy matnda nutq tovushlarining estetik imkoniyatlari tez va qulay idrok etiladi. Chunki badiiy asarda o'ziga xos jozibador ohang bo'ladi. Bu ohangdorlikka tovushlarni uslubiy qo'llash natijasida erishiladi. Asosan, she'riyatda alliteratsiya(undoshlar takrori), assonans (unlilar takrori), geminatsiya (undoshlarni qavatlash) kabi fonetik

¹⁰ Haydarov A. Badiiy tasvirning fonostilistik vositalari: filol. fanlari nomzodi diss... avtoref. – Toshkent, 2008.

¹¹ Jamolxonov H. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Toshkent, Talqin, 2005. 18-19-bet.

¹² Qilichev E. Intonatsiya haqida mulohazalar // O'zbek tili va adabiyoti. 2001 yil, 1-son. 63-bet.

usullardan foydalaniladi. Nasrda unlilarni cho`zish, undoshlarni qavatlash, tovushlarni takrorlash, so`zlarni noto`g`ri talaffuz qilish, tovush orttirish yoki tovush tushirish kabi fonetik usullar yordamida ekspressivlik ta`minlanadi. Tovushlarni uslubiy qo`llash bilan bog`liq qonuniyatlarni yozuvda “aynan” ifodalash imkoniyati cheklangan. Ammo, talaffuzda hamda badiiy asarlarda bayon muvofiqligiga qarab fonografik vositalar yordamida erishish mumkin. Aflotun va Arastu yashagan zamonlardayoq so`zning talaffuz tarzi va uni aynan yozuvga ko`chirish muammosi mutafakkirlar e`tiborini jalb qilgan.

Ma`lumki, tovushlarga, ayniqsa, harflarga bu tarzda ma`no yuklash albatta jiddiy ilmiy asoslarga ega emas. Yozuvchi badiiy asariga ya`ni asari qahramonlari nutqiga ruhiy holatini berishi, yozuvda ifodalashi uchun unda bir qancha murakkabliklar keltirib chiqarishi mumkin. Asar qahramonlari ruhiyatidagi ichki hayajon, xursand bo`lish, zavqlanish, xafa bo`lish, rozilik, taajjub, yalinish, hayratlanish, kinoya, piching, kesatiq, olqish, so`roq, ta`kid, qoniqmaslik, norizolik, tilak-istak, qo`llab-quvvatlash, kabi holatlarni aynan berishda yozuvchilar unli yoki undoshlarni birdan ortiq yozish usuli – **fonografik vositalar**dan foydalaniladilar. Tilshunos olim Ma`rufjon Yo`ldoshev lingvopoetikaga oid tadqiqotlarida fonografik vositalarni farqlashni bir qancha turlarga bo`lib o`rganganlar. Masalan:

1. **Unli harflarni birdan ortiq yozish orqali.** Bunda unli harf cho`zib talaffuz qilinishi tushuniladi. Qahramonning voqelikka bo`lgan munosabati unlini cho`zish orqali oydinlashadi. Tilshunos A. Abdullayev bunday holatning bo`lishi ilmiy adabiyotlarda mazkur usul orqali belgining me`yordan kuchsiz yoki ortiq ekanligini ifodalashda foydalanishini ta`kidlaydi. Unli harflarni orttirish asar badiiy qahramonining ruhiyatini, holatini tez va tushunarli tarzda aniqlab olishga ko`maklashadi. Unli tovushni qaysi vaqtda va qaysi holatda oshirish yozuvchidan katta mahoratni talab qiladi. Ba`zida mana shunday holatlar asarning kulminatsion, tugunning yechimi, asarning asosiy g`oyasiga asos bo`ladi. Bunday holat yozuvchi asar va hikoyalarida juda ko`p uchraydi. Masalan:

1. *Bir lahza ko`zlari olayib turdi-da, ko`ksidan shamol g`uvurini ham, o`z vujudini ham larzaga soluvchi bir nido otilib chiqdi:*

- **Oyi-i-i!**¹³

2. *Qiziq onasining qo`li muzdek edi!*

- *Oyi! **Oyijo-on!** – dedi hayqirib. Keyingi so`zlar bo`g`zidan yig`i aralash otilib chiqdi. – **Oyi-i!***¹⁴

Bu ikki misollarda taqdirning eng ayanchli vaqtlari ya'ni o`z volidasining o`lim to`shagida yotganini ko`rgan o`g`il farzandlarning nolasi. Onasining o`limiga o`zi aybdor bo`lgan farzand yoinki, onasining holidan o`z vaqtida xabar olishni butunlay unutgan farzandlarning faryodi.

3. *Bitta-bitta **yur-e-eb** talabalar shaharchasiga keladi. Trolleybusga o`tirib ( ertalab joy bemalol-da) O`rdagacha boradi. Ishiga. Oshxonaga. Kechqurun shu yo`ldan orqaga qaytadi. Qoraqamishga. Uyiga. (57)*

4. – *Nega? – dedi ingrab. – Nega? Insoflaring bormi? Aytinglar, bolam nima gunoh qiluvdi? – Yerga muk tushdi-da, namiqqan taxta polni qo`shqo`llab ojiz mushtlay boshladi.*

- ***Nega? Nega? Nega-a-a!!!*** (66-b).

Fonetik uslubiy vositalarning tadqiq qilish doirasi nihoyatda keng. Ammo bu sohaga oid yetarlicha ishlar amalga oshirilmagan. Holbuki, fonografik stilistika deb yuritayotganimiz fonostilistikada nutqning vazifaviy uslublari bilan bog`liq materiallarning akustik-artikulyatsion hamda prosodik (ritmik-intonatsion) xususiyatlarini belgilash muhim ahamiyatga ega.

Fonostilistikada orfoepiya bilan bog`liq talaffuz stillarining vazifasini belgilash, nutq stillari, ayniqsa, badiiy nutq uslubida nutq tovushlari talaffuzining konnotativ ma`nolari, shuningdek, intonatsiya, pauza va urg`u kabi supersegment elementlarning ishlatilishi bilan bog`liq fonostilistik imkoniyatlarning uslubiy qo`llanishini tahlil va tadbiq qilish bugungi kun o`zbek tilshunosligining eng dolzarb masalalaridan biridir.

¹³ Hoshimov O`. O`zbeklar. Toshkent. "G`afur G`ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi" 2007. 17-bet.

¹⁴ Keyingi misollar ham shu kitobdan olindi va olingan misollarning betlari ko`rsatiladi. 38-b.

Ammo fonostilistika muammolari yevropa va rus tilshunosligida keng va atroflicha o`rganilgan. O`zbek tilshunosligida esa fonostilistik vositalar va ularning nutqda qo`llanishi haqidagi fikrlar dastlab professor A. G`ulomov tomonidan aytilgan. Fonostilistik vositalar badiiy nutqda ritm, qofiya, radif, ohang uchun qo`llanishi akademik G`. Abdurahmonov tomonidan alohida qayd etilgan. Yana bir tilshunos olim A. Abduazizov “Fonostilistik vositalarning o`rganilishiga doir” nomli maqolasida o`zbek tili fonostilistik vositalarining o`rganilishi tarixi, hozirgi holati, vazifalari va bu sohada chuqur izlanishlar olib boorish haqida professor o`zining qimmatli fikrlarini bayon qilib o`tgan. Grafik stilistika bilan fonografik stilistika Fonostilistikaning tekshirish obyekti bo`lgaligi uchun unda nafaqat segment va supersegment (intonatsiya, pauza, urg`u ) vositalarning ekspressiv xususiyatlari, balki ekspressiv nutqning talaffuz xususiyatlari ham o`rganiladi.

Shuningdek, badiiy asarda turli kasb-hunar egalarining, har xil toifadagi kishilarning his-tuyg`ularini tasvirlash bilan birga, ularning ichki dunyosini, ruhiyatini ham ifodalab beradi. Shuning uchun badiiy asarda til vositalari o`ziga xos tarzda ishlatiladi. Asarlarda yozuvchi u yoki bu hodisaning mazmunini xabar qilish bilan birga o`quvchiga estetik va emotsional ta`sir ko`rsatishni ham maqsad qiladi, chunki his-tuyg`uga ta`sir ko`rsatish xususiyati asarning qimmatini belgilovchi vositadir.

Ana shu xususiyatni nazarda tutib, mazkur ishda iste`dodli adibimiz O`tkir Hoshimov asarlarida ekspressivlikning ifodalanishi va til birliklarining badiiy uslub doirasidagi funksional xoslanishi tahlil qilinganki, mazkur ish bu sohada shu paytgacha maydonga kelgan tadqiqotlarni ma`lum ma`noda to`ldiradi. Estetik hodisa sifatida badiiy asar tilini o`rganish asnosida muallifning individual uslubiy mahorati hamda uning badiiy asar yozishda til tizimi imkoniyatlaridan qay darajada foydalana olganligini aniqlashga ham e`tibor qaratish nazarda tutiladi<sup>15</sup>. Shuni nazarda tutgan holda biz magistrlik ishining dastlabki bobini fonetika va fonografiyadan boshlashga qaror qildik. Sababi, O`tkir Hoshimovning deyarli

¹⁵ Yo`ldoshev M. Badiiy matn va uning lingvopoetik tahlili. O`zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi. “Fan” 2006.

barcha asarlarida fonetik va fonografik usulda emotsional-ekspressiv holatlar juda ko'p bo'lganligini bu ish orqali ko'rsatib bermoqchimiz.

Fonetik uslubiyat nutqning ta'sirchanlik xususiyatini oshirishda nutq tovushlarining uslubiy imkoniyatlaridan foydalanish usullarini kuzatadi. Fonetik uslubiyat nutq tovushlarining biri ikkinchisiga bog'lanishidagi ekspressiv va uslubiy imkoniyatlarni, umuman, nutq tovushlarining asar tilini ta'sirchan qilishda vosita bo'lib xizmat qila olish usullari va imkoniyatlarini o'rganadi. Nutqda tovush va ohangdan foydalanish, ta'sirchanlikni kuchaytirish usullari turlichadir. Nutqni ekspressiv jihatdan ta'sirchan qilishda alliteratsiya, assonans va tovush takrori va uning xilma-xil shakllari va shu kabilar ahamiyatlidir. Unli va undosh tovushlarning fonetik jihatdan uyg'unlashib, takrorlanib kelishi nutqni ohangli va ta'sirli qiladi, til faktini esda saqlab qolinishni osonlashtiradi¹⁶.

Fonetik usul bilan ekspressivlik yaratishda intonatsiyaning ahamiyati kattadir. Avvalo, uning mavjudligi gapning mavjudligidan darak beradi. Intonatsiyada gapning boshlanish va tugash chegaralari ko'rinadi. Intonatsiya gapning shakllanishida zaruriy vosita hisoblanadi. Intonatsiyaning belgilari biror bir aniq tilning ichki qonuniyatlariga muvofiq turli funksiyalarni bajaradi. Uning vazifalaridan biri so'zlovchining voqelikka bo'lgan munosabatini ifodalash, shu bilan bir qatorda ma'noni kuchaytirish, bo'rttirishdir.

Intonatsiyaning gapni tashkil qilishda ishtirok etuvchi eng muhim vositasi urg'u va melodikadir. Mana shu intonatsion elementlar munosabatlarining turlicha bo'lishidan fonetik usulda ekspressivlikning turli ko'rinishlari ham yuzaga keladi.

Fonetik usul bilan ekspressivlik ifodalash o'zbek tilida boshqa usullarga nisbatan eng faol, eng universal usul hisoblanadi.

Tilshunos olimi Gulnora Yaxshiyeva o'z tadqiqotida fonografik vositalarni ikki guruhga ajratib tahlil qilishni ma'qul ko'radi. Unga ko'ra:

- unli tovushlarga xos fonografik uslubiy xususiyatlar;
- undosh tovushlarga xos fonografik uslubiy xususiyatlar.

¹⁶ Shomaqsudov A., Rasulov I., Qo'ng'urov R., Rustamov H. O'zbek tili stilistikasi. – Toshkent: O'qituvchi, 1983. 7-b.

Ma'lumki, har bir soʻzda ikki tomon – ichki va tashqi tomon mavjud. Soʻzning ichki tomoni maʼnosi, tashqi tomoni – bu fonetik tomoni boʻlib, uni shakllantiruvchilari tovushlar hisoblanadi. Soʻzning tashqi tomonini shakllantiruvchi tovushlar kompleksi tasodifiy tovushlar yigʻindisiemas, balki inson nutq tovushlari kompleksidan iborat. Nutq tovushlari soʻzning tashqi tomonini shakllantiribgina qolmay, ularning maʼnolarini farqlashda, soʻzlarning oʻzaro bogʻlanishini taʼminlovchi grammatik koʻrsatkichlar va gaplarning vujudga kelishida moddiy material vazifasini oʻtaydi.

Nutq tovushlari ham nutq organlariga bogʻliq ravishda turlicha talaffuz etiladi va eshitiladi. Fonostilistik jihatdan nutq tovushlarining talaffuzidagi emotsional-ekspressivlik va akustik yaʼni eshitib taʼsirlanish tomonlarini oʻrganish muhim.

Tovushlarning fonostilistik vazifasi haqida soʻz yuritilganda, ularning artikulyatsion – akustik xususiyatlaridan qaysilari zarurligini payqab olish oson emas. Koʻpincha unli tovushlarning ekspressiv jihati kuchli deb qaraladi va ularning fizik xarakteristikasidagi ton, oberton, tovush balandligi va choʻziqlik bunda asosiy xizmatni bajaradi¹⁷. Koʻpchilik tillarda unlilarning choʻziqligi emotsional – ekspressivlik vazifasini bajaradi. Ayniqsa, “I” unlisi ovoz tonining past va yuqori boʻlishi uchun xizmat qiladi.

Maʼlumki, unlilar sof ovozdan iborat boʻladi. Shuning uchun ularda ohangdorlik kuchli boʻladi. Unlilar ogʻiz boʻshligʻida toʻsiqqa uchramagani sababli ularni istagancha choʻzib talaffuz qilish mumkin. Lekin nutq sharoiti talab qilgan vaqtga nisbatan ortiqcha choʻziqlik fonemaning ijtimoiy qimmatini pasaytiradi, yaʼni ayrim holatlarda soʻzning maʼnosi anglashilmay qoladi. Badiiy tasvirda personaj nutqida unli tovushlarning turlicha talaffuzi qator konnotativ maʼnolarni hosil qiladi.

¹⁷Oʻrinboyev B., Qoʻngʻurov R., Lapasov J. Badiiy tekstning lingvistik tahlili.-T., 1990. – B. 34.

1. Iztirob, o'kinish kabi konnotativ ma'nolarni bildiradi: *Bir lahza ko'zlari olayib turdi-da, ko'ksidan shamol g'uvurini ham, o'z vujudini ham larzaga soluvchi bir nido otilib chiqdi:*

- **Oyi-i-i!** (17-b)

2. Qiziq onasining qo'li muzdek edi!

- **Oyi! Oyijo-on!** – dedi hayqirib. Keyingi so'zlar bo'g'zidan yig'i aralash otilib chiqdi. – **Oyi-i!** (38-b)

3. Yuragining tub-tubidan otilib chiqqan bu savol a'zoyi badanini o'rtab yubordi. - **Oyi-i-i!** – dedi ingrab. (38-b)

Badiiy asarda qahramonning turlicha bo'lgan kayfiyatini ifodalash, uning xarakteridagi o'zgarishlarni to'la ko'rsatish uchun so'z san'atkorlari bir matnda aynan bir so'zni turli xil shakllarda keltiradilar. Bunga yuqoridagi “**oyi**” so'zining uch xil ko'rinishda kelganligini misol keltirsak bo'ladi. Gapdagi “oyi” so'ziga e'tibor qaratilsa, asardagi aqramonning turli holati, ya'ni to'lqinlanishi, hayajoni yanada ortib, bo'rttirib borilayotganligi, qahramondagi afsus va nadomatning tobora kuchayib ketayotganligini o'quvchi tezda anglab oladi.

4.Hafsalasizlik, umidsizlik ma'nosini ifodalaydi: *Bitta-bitta **yur-e-eb** talabalar shaharchasiga keladi.*

5.Ta'kidlash, kesatish ma'nosida: *Kontrolyor ko'rinmaydimi? Daf bo'lsin. Bolalarga achinadi-da, odam. Talabada pul nima qilsin! Shunaqa-ku, yelkasiga magnitafon osib, chiroyli-chiroyli qizlarni qo'ltiqrab yuradigan qancha. Magnitofonga yetgan pul pattaga yetmaydimi? **Yo'-o'q**, olmaydi. Yuradi otasining soyai davlatida magnitafon varanglatib.*

6. –Kechirasiz, singlim, o'tib ketsam...*Rahmat.*

“**Voy- bo'-o'!** Atirga cho'milganmi bu xotin, nima balo, dimog'ni yoradi-ya! (57-62-betlar).

Xursandchilik, kayfiyatning yaxshiligi, shodlanish:

7. - *Iloyo yoshlar baxtli bo'lsin! – dedi qiroat bilan. – Dasturxon **xo'-o'-o'p** to'kin bo'ptida, ukam. Rahmat! (248-b).*

8. Hayratlanish, taajjub, esankirash: – *Nega? – dedi ingrab. – Nega? Insoflaring bormi? Aytinglar, bolam nima gunoh qiluvdi? – Yerga muk tushdi-da, namiqqan taxta polni qo`shqo`llab ojiz mushtlay boshladi.*

- ***Nega? Nega? Nega-a-a!!!*** (66-b).

9. *Koryaginining yuragi orziqib ketdi. “Natashenka bilan teng bo`lishi kerak”. Qizning allaqayeri chindan ham Natashenkaga o`xshab ketardi. Bo`y-bastimi, oppoq yuzimi...**Yo`-o`q!** Natasha bunaqa qiltiriy emas, rangi ham zahil emas, sog`lom, o`ktam...(101-b).*

So`z bo`g`inlarida ishtirok etmagan alohida, yakka holda olingan birgina unli ham cho`zib talaffuz qilinishi mumkin. Bunday holatda ishonchsizlik, hayrat, kuchaytirish ma`nolari ifodalanadi. Bu esa fonostilistik jihatdan bir so`zdagi unli tovushlarni uning turli bo`g`inlarida cho`zib talaffuz qilinishi ham ahamiyatlidir:

10. - ***O-o-o!** tiling burro-ku! – Ukasining gapi Koryaginining esiga tushdi. Ukasi kim – oddiy master. Dodini kimga aytardi? Endi aybni biz tomonga ag`darmoqchimisan?!*

11. – ***O`-o`-o`!** – dedi chuqur xo`rsinib. – Jonning rohatiya, Jumanov... - stakanni stolga qo`ymay, unga teshib yuborgudek tikildi. (112-117-betlar).*

Bu gapda so`zlovchining tinglovchiga nisbatan shafqatsizligi, bepisandliligi, mensimalik kabi bir qancha salbiy bo`yoq ma`nosidagi so`zlar birgina nutq tovushiga yuklatilgan.

12. – ***Yo`-yo`-yo`!** – Hoji aka keskin bosh chayqadi. – Biz ham no`sh aylaganmiz... Aylaganmiz. (217-b).* Bu gapda “yo`q” so`zi tovush tushishi hodisasiga uchrab, bir bo`g`in uch marta takrorlanib kelgan. Natijada aytilayotgan fikrning inkorini yanada kuchliroq tasdiqlash maqsadi yuklatilgan.

Agar biror so`zdagi unli va undosh tovushlar matnga konnotativ ma`no yuklash maqsadida birgalikda takrorlanib talaffuz qilinsa, so`zdagi bo`yoq yanada kuchayadi, bunda tovushlarning nutqiy cho`ziqligi uzoq davom etadi. Bu holat asar qahramonining ichki kechinmasi, uning ruhiy tushkunligi, iztirobi, achinishi kabilarni real voqealarda aks ettiradi.

Yuqorida keltirib o`tilgan so`zlarning bunday talaffuz qilinishi orqali anglashilgan qo`shimcha ma`no nozikliklari kitobxonga kuchli ta`sir ko`rsatadi. Fonografik usulda konnotativ ma`no kuchli ifodalanishini ko`rsatadi. Chunki bu usulda asar qahramonlarining ruhiy holati, tovush talaffuzidagi o`ziga xosliklar, ovozning miqdoriy belgisi aniq ifodalangan bo`ladi.

Unli fonemalarda ifodalangan tovush variantligida uslubiy imkoniyat mavjud bo`ladi. Boshqacha aytganda, qayerda nutqiy tanlanish bore ka, u yerda uslubiy bo`yoqdorlik kuchli ifodalangan bo`ladi. Bu hodisaning mohiyatini to`la anglagan so`z san`atkorlari o`z asarlari tilini boy va rang-barang qilishga intiladilar¹⁸.

Quyida keltirilgan parchalarga e`tibor qaratilsa, “i”, “o”, “e”, “a” unlilari cho`zib talaffuz qilingan. Bu cho`ziqlik yozma nutqda ularni takrorlash va orasiga chiziqcha-chiziqcha qo`yish orqali berilgan. Ochiq bo`g`inlardagi unlilarning cho`ziq talaffuzi so`zda ifodalangan ma`no belgi darajasining intensivligini ham ko`rsatadi. Matnda unli tovushlarni cho`zib talaffuz qilingan so`zlarda qahramonning ichki kechinmasi, uning ruhiy tushkunligi, iztirobi, achinishi bevosita o`z ifodasini topgan. Agar diqqat qilinsa, O`tkir Hoshimov o`z asarlarida unli tovushning cho`zilish holatini grafik jihatdan ular orasiga chiziqcha-chiziqcha belgisini qo`yish orqali aks ettirgan. Bunday uslubiy ahamiyatga ega bo`lgan turli belgilar boshqa mualliflar asarlarida yoki nazmiy matnlarda boshqa xil grafik belgilar bilan ham berilishi mumkin. Ya`ni, xuddi shu holat nuqta-nuqtalar, so`z orasidagi harflarni interval bilan yozish, harflar shaklini o`zgartirib yozish va hokazolar orqali ko`rish mumkin. Yuqorida keltirib o`tilgan parchalardan ayon bo`ladiki, unli tovushlarni cho`zib talaffuz qilish bilan bog`liq bunday ma`no nozikliklari har bir kitobxonda hissiy ta`sirchanlikni uyg`otadi va asarning yanada ko`proq yodda qolarli darajada bo`lishiga sababchi bo`ladi.

Fonografik stilistikada qahramon nutqidagi ma`lum bir unli tovushni so`zning qaysi o`rnida, ochiq yoki yopiq o`rinlardagi cho`zilishi va unda

¹⁸ Haydarov A. Badiiy tasvirning fonostilistik vositalari: filol. fanlari nomzodi diss... avtoref. – Toshkent, 2008. 9-b.

ifodalangan emotsionallik, uslubiy bo'yoq ham farqlanadi. Aynan shu o'rinda unli harf yozuvda qanday belgi vositalar yordamida berilganligi ham amaliy ahamiyat kasb etadi. Bunda so'zlovchining hayratlanishi, taajjubi, o'yg'a tushishi kabi qo'shimcha ma'nolar o'z aksini topadi. Hikoyalardagi fonografik vositalarni o'rganish jarayonida shunga amin bo'lamizki, yozuvchi o'z qahramonidagi afsusni, achinishni, iztirobni, eng og'riqli vaziyatlarni va qahramonning fojeaviy holatini berish maqsadida ko'pincha ochiq bo'g'indagi unli harflarning so'nggi bo'g'inini cho'zishga harakat qilgan. Buni biz yuqoridagi miosollarda ko'rsatib o'tdik.

Yozma nutqda biror so'zdagi unlining cho'zilish darajasi grafik jihatdan shu unlini necha marta takror yozilganligi bilan ham belgilanadi. Unli tovushlarni cho'zish, shu unli ishtirok etgan so'zlarning denotativ ma'nosini bevosita bog'liq holda qo'shimcha konnotativ ma'no ifodalaydi va bu qo'shimcha ma'no bevosita shu so'zning paradigmatic munosabatida ro'yobga chiqadi.

Ko'rinadiki, unli tovushlarning cho'zib aytilishi bilan bog'liq qo'shimcha bo'yoq ma'nolari so'zlar paradigmatic va sintagmatic munosabatlarga kirishganda yanada aniq ifodalanadi. Shuningdek, sintagmatic munosabatda unli tovushlarni so'zning qaysi bo'g'inida cho'zib talaffuz qilinishi ham nutq uslublari bilan bog'liq ravishda qo'shimcha emotsional-ekspressivlik hosil qilishi mumkin¹⁹.

G. Yaxshiyeva tasnifiga ko'ra undosh tovushlar o'zining hosil bo'lish o'rni va usuli hamda tovush miqdorining oz yoki ko'pligiga ko'ra unli tovushlardan keskin farq qiladi. Olimaning fikriga tayanib shuni ko'rish mumkinki, unli tovushlarga nisbatan undosh tovushlarda fonostilistik imkoniyat ancha yuqori. Undosh tovushlarni talaffuz jarayonida ikkilantirish, takrorlash, so'zda ularning o'rnini almashtirish, tushirib qoldirishva boshqalar muhim ahamiyat ya'ni uslubiy ahamiyat kasb etadi. Ayrim asar qahramonlarining undosh tovushlarni cho'zib talaffuiz qilishida ham o'ziga xos xarakterli xususiyat mavjud. Chunki undosh

¹⁹ Yaxshiyeva G. O'zbek tilida fonografik uslubiy vositalar. filol. fanlari nomzodi diss... avtoref. – Toshkent. 1996. "Fan" 20-22-b.

tovushlarni cho`zib talaffuz qilish orqali qahramonning turli xil holati, o`ziga xos xarakterli xususiyatlari namoyon bo`ladi.

Talaffuzda undosh tovushlarni ikkilantirib aytish, takror qo`llash, tushirib qoldirish, orttirish kabilar fonostilistik ahamiyatga ega bo`lib, turli xil qo`shimcha ma`nolar hosil qiladi. Nutqda ularni me`yoridan ortiq talaffuz qilish ma`noning buzilishiga olib keladi, nutqiy g`alizlikka sababchi bo`ladi. Ammo boshqa bir holatda esa, ya`ni bir undoshni atayin ikkilantirib talaffuz qilish va yozish uslubiy ahamiyat kasb etadi. Undosh tovushlarning cho`ziqligi bir tipdagi undoshlarning takrorlanishi va grafik jihatdan ifodalanishi orqali ham ro`yobga chiqadi²⁰.

Demak, o`z-o`zidan ma`lumki, undosh tovushlarning cho`zilishi og`zaki nutqda ularni qo`sh undosh holatiga keltirib talaffuz qilish, yozma nutqda esa ikkilantirib yozish orqali ro`yobga chiqariladi. Bu usulni quyidagi konnotativ ma`nolar orqali ifodalash mumkin:

1. - *Iye? Voy? V-o-o-oy!* – Bahodir aka turgan joyida taxta bo`lib qoldi. Yupqa gardishli ko`zoynagi ortidan hammamizga javdirab qaraydi. (“O`zbekning soddasi” 123-b.)

2. *“Iya, hofiz yana kepqopdilar mi, qani, **bi-i-ir** katta ashuladan bo`lsin”, deyishardi. Valijon sovuqqina xonada mayka-tursida o`tirib “Bog` aro”ni olardi! Mana, xudo insof berarkan-ku! Ikki yildan beri ichishni sapsem tashladi. (“Yubiley” 81-b.)*

3. *Zulyaxon balo ekan! “Lazgi”ga chalinglar, “Lazgi”ga, dedi-da, qo`ng`iroqdek ovozda “ vadasida turorim, bari gal, na qilsang ixtiyoring, bari **ga-a-al**” deb shunaqangi raqsga tushdiki, erkaklarning qiyqirig`I tomni ko`chirib yuboray dedi! (“Yubiley” 79-b.)*

4. *Yangi ko`chib kelgan kezlari **xo`-o`-o`p** jo`yali maslahat bergan edi. “Ko`rinishingizdan tuppa-tuzuk, paryadichniy odamga o`xshaysiz, qo`shnijon, - degandi. – Bunaqa qog`oz qoralab yurgandan ko`ra, foydali ish qilsangiz bo`lmaydimi, xohlasangiz, biron bankka qorovul qilib joylab qo`yaman, bankning*

²⁰ Haydarov A. Badiiy tasvirning fonostilistik vositalari: filol. fanlari nomzodi diss... avtoref. – Toshkent, 2008. 10-b.

qorovuli ham kvartalniy mukofot oladi”, degandi. (“Quloqqa aytiladigan gap” 235-b.)

5. *Lo`lito`p mahallalik aka Tirkash bor-ku! Anavi-chi, eshak aravada eshikma-eshik yurib, “buti-i-ilka prinimayu-yu-yu”! deb baqiradigan!* (“Quloqqa aytiladigan gap” 232-b.)

6. – *Konvoy! – Koryagin vahimaga tushib xotinlardek chinqirdi. – Konvo-o-oy!* (“O`zbek ishi” 120-b).

Kuzatgan bu gaplarimizda unli tovushlarni o`rttirish natijasida piching va kesatish kabi denotativ ma`nolar ifodalangan.

Undosh tovushlarni ikkilantirish. Undosh tovushlarni so`zning turli o`rinlarida ikkilantirish ham stilistik qimmatga ega. So`z boshidagi undosh tovushning ikkilantirilishi personajga xos nutqiy kamchilik yoki uning o`ta hayajonlanganligini ifodalasa, so`z oxiridagi undoshning birdan ortiq takrori shu so`zning cho`ziq talaffuzini bildiradi²¹.

Undosh tovushlarni so`z o`rtasida ikkilantirib talaffuz qilish va yozish hodisasi ma`no kuchaytirish bilan birga ayrim holatlarda satiric vaziyat yaratish uchun ham xizmat qiladi. Undoshlarning o`rnini almashtirib talaffuz qilish natijasida personajning madaniyat darajasi yoki biror sheva vakili ekanligini yaqqol ko`rsatadi. So`zlashuv uslubida ba`zi ruscha so`zlarning talaffuzi biroz boshqacharoq, ya`ni fonetik o`zgarishga uchragan holda aytiladi. Chunki har bir millat o`zga til birliklarini o`zining artikulyatsion bazasiga moslaydi. Badiiy tasvirda yozuvchilar bunga diqqat, e`tibor beradi. Badiiy nutq ta`sirchanligini oshiruvchi fonografik – stilistik vositalardan tovush yozuvdir. Tovush yozuvi vositasida asarda tasvirlanayotgan voqea-hodisalar kitobxon ko`zi oldida jonli qilib beriladi. Bularning har ikkalasida ham tovush va ma`no birligi asosida obraz yaratiladi. Alohida tovushlar o`zicha ma`no anglatmaydi va anglatishi mumkin emas. Alliteratsiyada nutq tovushlari ma`lum bir o`rinda, ma`lum bir holatda takrorlanib kelishi bilan ma`noga ta`sir etadi. Tovush va ma`no doimo dialektik

²¹ Yaxshiyeva G. O`zbek tilida fonografik uslubiy vositalar. filol. fanlari nomzodi diss... avtoref. – Toshkent. 1996. “Fan” 23-b.

birlik hosil qiladi. Bu dialektik birlik nutq jarayonida ayrim soʻzlar soʻzlovchining emotsional holatini berish uchun xizmat qilishida va ayni zamonda tinglovchi ham shu hodisani toʻliq anglashida koʻrinadi. Masalan:

Xafa boʻlmaysizku, sizning pocherkingiz “annaqaroq” ekan, yozguncha qon boʻpketdim, shundayam ikki yuz ellikka koʻngan edim, uch yuz betni ikki yuz ellikka koʻpaytirsam, qancha boʻladi?” dedi. Shoʻrlikning dardi yigʻilib qolib, kimga aytishini bilmay turgan ekanmi, menga toʻkib soldi.

*... U stol tortmasini shahd bilan ochib, bir toʻp gazetani oldi. Boshi ustida baland koʻtarib silkitdi. – Hammasida senlarni qilmishing yozilgan! Respublikada necha ming jinoyatchi qamoqqa olinganini yozgan. “Paxta ishi” boʻyicha. Hammang bir goʻrsan. Hammang **eshshaksan**. (“Oʻzbeklar” 120-b).*

Bu ikkala gapdagi “annaqaroq”, “eshshak” soʻzlari belgining ortiqlik darajasini ifodalab, oʻzidagi emotsional boʻyoqni ikki karra oshirib koʻrsatishga xizmat qilgan.

Talaffuzda undosh tovushlarni ikkilantirib aytish, takror qoʻllash, tushirib qoldirish, orttirish kabilar fonostilistik ahamiyatga ega boʻlib, turli xil qoʻshimcha maʼnolar hosil qiladi. Jumladan, nutqda ularni meʼyorida talaffuz qilmaslik maʼno buzilishiga olib keladi. Ammo boshqa bir holatda esa, yaʼni bir undoshni atayin ikkilantirib talaffuz qilish va yozish uslubiy ahamiyat kasb etadi. Undosh tovushlarning takrorlanishi va grafik jihatdan ifodalanishi orqali ham roʻyobga chiqadi. Fonostilistik jihatdan soʻzdagi bir undoshning miqdoriy takrori u ifodalayotgan ekspressiv boʻyoq miqdori darajasini belgilaydi. Chunki soʻzdagi konnotativ maʼno fonetik vositalar bilan ham darajalanib borish xususiyatiga ega. Undosh tovushlarni soʻzning turli oʻrinlarida ikkilantirib talaffuz qilish ham uslubiy ahamiyatga ega. Soʻz boshidagi undosh tovushning ikkilantirilishi oʻta hayajonlanish yoki personaj nutqiga xos kamchilikni ifodalasa, soʻz oxiridagi birdan ortiq takrori shu soʻzning choʻziq talaffuzini koʻrsatadi.

Har qanday nutqning jozibadorligi, obrazliligi uslub vositalarining toʻgʻri tanlanganligiga bogʻliq. Fonografik vositalarning qoʻllanilish darajasi meʼyordan

oshsa, nutq quloqqa g'aliz eshitiladi, tinglovchining g'ashiga tegadi. Shuning uchun ham turli fonetik vositalardan foydalanishda, birinchi navbatda adabiy me'yor talablarini hisobga olish kerak. Shu bois kerakli fonetik vositalarni tanlayotganda matnning mazmuni, uni qanday uslub va janrga tegishli ekanligi, unda qaysi davr tasvirlanayotganligini e'tiborga olish zarur²².

Ma'lumki, nutq tovushlarining uslubiy xususiyatlari haqida so'z yuritilganda, ko'pincha, anafora, epifora va alliteratsiya usullari haqida ham to'xtalib o'tiladi. "Unli va undosh tovushlar takrori, bo'g'in takrori poetik nutqda, ayniqsa, xalq og'zaki ijodi namunalarida ko'p uchraydi. Fonetik vositalarni ataylab takrorlash orqali so'z san'atkorlari o'z tasvir bayonining kuchini oshiradilar, his-tuyg'ularini bo'rttirib ko'rsatadilar."²³

Aytib o'tilganidek, anafora, epifora va alliteratsiya usullari poetik nutqda ko'proq ishlatiladi. O'tkir Hoshimov asarlarida esa bu holat kuzatilmaydi. Yozuvchi ijodida tovushlar bilan bog'liq hodisalar janr talablariga ko'ra, yuqoridagi gaplarda ko'rib o'tganimizdek she'riy nutqdan farqli qo'llangan.

Hozirgi o'zbek tilida yaratilgan nasriy asarlarda fonetik usul yordamida ma'no kuchaytirishning quyidagi usullari mavjud:

- 1) unlini kuchli talaffuz qilish (dinamik urg'u)
- 2) unlini cho'zish (kvantitativ urg'u)
- 3) undoshni qavatlash (geminatsiya) orqali ma'no kuchaytirish.

"... stilistika til birliklaridan qaysi biri u yoki bu stilda, yozma yo og'zaki nutqda ko'proq ishlatiladi, degan masala bilan ham shug'ullanadi. Bundan tashqari, stilistikaga fikr va maqsadni ifodalashda til vositalarining to'g'ri

²² Haydarov A. Badiiy tasvirning fonostilistik vositalari: filol. fanlari nomzodi diss... avtoref. – Toshkent, 2008. 10-b.

²³ Haydarov A. Badiiy tasvirning fonostilistik vositalari: filol. fanlari nomzodi diss... avtoref. – Toshkent, 2008. 11-b.

tanlangani yoki tanlanmaganligini aniqlash hamda shu til vositalarini maqsadga muvofiq tanlash va ishlatish yo'llarini belgilash vazifalari yuklatiladi²⁴”.

Ekspressivlik hosil qiluvchi bu usullarning har biridan istagancha foydalanish mumkin bo'lavermaydi. Bu usullardan qaysi birining qachon qo'llanishi mumkin yoki mumkin emasligi ma'no kuchaytirishning qanday hodisaga nisbatan bo'lishi va boshqa obyektiv sabablar bilan bog'liq holda bo'ladi. Mana shu sabablarga ko'ra bu yo'llar bilan ekspressivlik ifodalashning o'ziga xos xususiyatlari va qo'llanish doirasini alohida-alohida o'rganish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Og'zaki nutq oqimida ayrim so'zlarning talaffuzi, ohangi, tez-sekinligi, qattiq yoki yumshoq aytilganligini yozma nutqda aynan berish maqsadida ular orfografiya qoidalariga zid ravishda turli grafik belgi va shakllarda, hatto bo'yoqlarda yoziladi. Uslubiy ahamiyatga ega bo'lgan bunday hodisalarni o'rganish ham diqqatga sazovordir.

Ko'rinadiki, fanimizda fonostilistik, fonetik uslubiy vositalarni nutq shakllari va har bir nutq shakli vositalari xususiyatlariga ajratish mumkin:

a) og'zaki nutq talaffuzining uslubiy xususiyatlari va imkoniyatlari, ya'ni tom ma'nodagi fonetik stilistika (yoki fonostilistika);

b) og'zaki nutq talaffuzida uslubiy xususiyatlarini yozma nutqda grafik (imloviy) vositalar bilan aks ettirish, ya'ni tom ma'nodagi grafik (imloviy) stilistika²⁵.

Yuqorida aytib o'tganimizdek, so'zda denotativ va konotativ ma'no mavjud. Ya'ni aloqa jarayonida aqatgina xabar anglashilmasdan, so'zlovchining his-hayajoni, tinglovchiga nisbatan subyektiv munosabati aks etadi. O'zbek tilshunoslarining yuqoridagi fikrini rad etmagan holda shuni aytish mumkinki, kommunikatsiya har bir gap, so'z va hatto tovushning tanlanishi ham bevosita

²⁴ Shomaqsudov A., Rasulov I., Qo'ng'urov R., Rustamov H. O'zbek tili stilistikasi. – Toshkent: O'qituvchi, 1983. 6-b.

²⁵ Yaxshiyeva G. O'zbek tilida fonografik uslubiy vositalar. filol. fanlari nomzodi diss... avtoref. – Toshkent. 1996. “Fan” . 7-b.

inson ruhiyati bilan bpg`liq ekanligini yuqoridagi misollar orqali ko`rib o`tdik. Lekin ba`zan buni hatto o`zimiz ham sezmaymiz. Bu hodisa go`yoki, g`ayriixtiyoriy hodisaga o`xshaydi. Ammo chuqurroq tahlil qilinsa, bu jarayon uzluksiz ong osti qatlamlarida miyaning bevosita buyruqlari asosida amalgam oshayotganini ko`ramiz. Bu holatlarni yuqoridagi kabi badiiy matnlarda kuzatish ancha samara beradi. Har bir so`zda tovush va ma`no uyg`un bo`lsa, bunday so`z yorqin, yashovchan, o`zining mustahkam o`rniga ega bo`ladi va bunday so`zlar so`zlashuv, badiiy uslubda keng qo`llaniladi. Chunki tovushlar so`z ma`nosini yanada bo`rttiradi, emotsional bo`yoqdorligini oshiradi. Har bir ijodkorning tuyg`ulari faqat o`zigagina ayon bo`lgan olamda ong orqali namoyon bo`ladi. Unga mos tovushlar topish esa, bevosita yozuvchining so`zdan va tovushlardan foydalanish mahoratiga bog`liq. Qaysi tovushga qanday ma`no yuklash esa ijodkorning voqelikni ong va qalb prizmasidan qay tarzda o`tkazishiga bog`liq<sup>26</sup>. Kuzatilgan misollar orqali shunday xulosaga kelish mumkinki, demak, fonografik stilistik vositalar badiiy tasvirda muhim ahamiyat kasb etar ekan. Ular narsa, hodisa va voqealar haqida tushuncha ifodalash bilan birga so`zlovchining turli emotsional-ekspressiv holatini, uning voqea-hodisalarga turli xil munosabatini yanada aniqroq, ravshanroq va o`zgacha bir ottenka orqali ifodalshga xizmat qilishini ko`rib o`tdik. Demak, fonografik-stilistik vositalardan o`rinli foydalanish badiiy ta`sirchanlikni oshirishga xizmat qilishini ko`rdik.

**So`zlarni noto`g`ri talaffuz qilish.** Og`zaki nutqda turli sabablarga ko`ra ayrim so`zlar, asosan, o`zlashma so`zlarni buzib talaffuz qilish holati mavjud. Bunday xato so`zlovchining o`zlashgan so`z imlosini to`g`ri tasavvur qilmasligi, boshqa millatga mansubligi, paronimlarni farqlamaslik natijasida yuzaga keladi, deb izohlash mumkin. Badiiy asarda bu usuldan qahramon nutqini individuallashtirish hamda ifodani og`zaki – jonli nutqqa yaqinlashtirish maqsadida foydalaniladi.

²⁶ Alponova Sh. Inson ruhiyatini aks ettirishda fonetik vositalarning o`rni // O`zbek tili va adabiyoti, 2009. № 4,81-b

Siz kechalari **ismenda** bo'lsangiz. Men uchta jo'ja bilan jonimni hovuchlab o'tirganim yyetmaydimi?!(14-b)

– Iskandarim ataylab **Maskovdan** obkelgan. – Otinoyi kerilib qaddini rostlaydi. (33-b)

– **Polcha** degan joydan mozar bosib kelgan. Iskandarim obkeldi.(34-b)

Ispolkomdagi jipiriqqa gapirsam, bezrayadi. (60-b)

Kechqurun mahallaga chiqsam, isparapka beradigan o'zimning sobiq sinfdosh do'stim ekan. (221b)

Quyidagi “ispolkom, ismen” so'zlariga e'tibor qaratadigan bo'lsak, shunday bir xulosaga kelish mumkin. Demak, so'zlarning talaffuzi buzilishi so'z boshida, so'z o'rtasida hamda so'z oxirida bo'lishi mumkin ekan. Haqiqiy real qahramon darajasiga ko'tarish, aynan o'sha qahramonni individual tanishtirish maqsadida ham bunday so'zlardan foydalanish mumkin.

– Soatim yo'q, xola! Manda soat nima qilsin. **Po'ristoy** odam bo'lsam. (61)

– Kechirasiz, o'rtoq **nachaynik**... Men sizni...(63)

Bitta bomba **milyon** turadi. Shuncha pulni tinchlik yo'lida ishlatsa o'ladimi desa, Hotam-xasis xo'rsinib qo'yibdi. (70) – Nima, mo'ysafidlar “**palonchi prapisir**” bo'kib uxlasinlar, deb kutib o'tirishi kerakmi? Namozdan chiqib to'g'ri oshga kelaveradi-da!

O'n besh **prasanmi**, yigirma **prasanmi**, mayli-da! Bo'lmasa sotuvchilar maoshni qayerdan olsin? (232-b)

Bu misollarni tahlilga tortadigan bo'lsak, o'z-o'zidan ayonki, “**prostoy, nachalnik, million, professor**” kabi so'zlarning buzib talaffuz qilinishi natijasida, asosan, emotsional-ekspressiv maqsad ko'zlangan. Bunday so'zlar xuddi sheva so'zlar kabi o'sha jarayonni, koloritni aniqroq tasvirlashga hamda qahramonlar nutqini iloji boricha xalqqa yaqin bo'lgan, xalq tushunadigan ibora va so'zlardan olinishiga sababchi bo'lgan.

– Interesno! – U sariq mo'ylovini qiyshaytiribroq iljaydi. – Teplitsa stroit **etarg'a** oqcha bor. Postroyka **qilarg'a** yo'q, **shulaymi**? (225-b)

- Ay, hammasi bepolezno! – dedi farrosh kampir shartakilik bilan. – Pyanstvo yuq bo`ldi deymiz, araq sog`liqqa vredniy, deymiz... Azizning kabinetidan kajdiy den butilka shig`adi! Qayoqdan pul topadi, araq parazitga.

Yuqoridagi misollarda chet tili so`zlarining o`zbek qahramonlari tomonidan buzilib aytilish holatlari kuzatilgan bo`lsa, bu gaplarda esa, o`zga millat vakillarining o`zbek tilida so`zlashish holati berilgan. Ko`rinadiki, adib yozayotgan asarida xoh u o`zbek millatiga mansub bo`lsin, xoh boshqa millat vakili bo`lsin ularning so`zlashuv tarzini bilsagina, sheva so`zlaridan xabardor bo`lsagina, ko`zlagan maqsadiga erisha oladi. Har bir qahramonning individual xarakterini ochib berishda ham, uning til xususiyati birinchi navbatda turadi. O`tkir Hoshimov xuddi mana shunday xarakter ochib berishga juda usta adiblardadir. Bu esa o`zbek tilida yanada sheva so`zlarining variantlilikiga, lug`at sostavining yanada boyishiga ham ba`zida sababchi bo`lmoqda. Bundan tashqari hikoya qahramonlarining nutqida berilgan so`zlar orqali hikoyaning ta`sir obyekti kuchaytirilgan.

1.2 Supersegment vositalarning stilistik xususiyatlari

Ma`lumki, nutqimizning mukammal bo`lishida fonetik jihatdan segment va supersegment elementlar deyarli bir xil ishtirok etadi. Ammo ular nutqda qo`llanishi jihatidan turlicha ko`rinishlarda namoyon bo`ladi. Intonatsiya, pauza va urg`u kabilar supersegment elementlar bo`lib, ular o`ziga xos semantik-grammatik va uslubiy xususiyatlarga ega. O`zbek tilshunosligida ularning bunday uslubiy xususiyatlarini ilk bora Gulnora Yaxshiyeva o`rgangan. U o`zining ilmiy tadqiqotida intonatsiyaning o`z ma`nosidan tashqari konnotativ ma`no ifodalashi haqida fikr yuritgan: Nutqda supersegment elementlar, asosan, uchga bo`linadi: intonatsiya, pauza, urg`u. Bularning har biri o`ziga xos semantik-grammatik va uslubiy xususiyatlarga ega. Jumladan, fonostilistik jihatdan intonatsiyaning logik yoki logik-ekspressiv hamda emotsional ekspressiv ko`rinishlari ahamiyatli bo`lib, ular orqali so`zlovchining ruhiy holati, kayfiyati, hissiy tuyg`usi, sevishi, hayrat, ajablanish, erkalash, qo`rqinch, g`azab, qayg`urish kabi qator konnotativ ma`nolar

ifodalanadi. Bunday qo'shimcha ma'no bo'yoqlari nutqni jonlantirish va ifodali qilishga yordam berishini aytib o'tgan.

Nutq uslublarining deyarli barchasida intonatsiya asosiy vazifani bajaradi. Ammo badiiy uslubda intonatsiyaning konnotativ ma'no ifodalash darajasi nihoyatda kuchlidir. Og'zaki nutqqa xos bo'lgan intonatsiya, alohida bir sistemani hosil qiladi. Bu sistemani nutq melodikasi va ritmi, nutq tezligi va tembri, logik urg'u kabilar tashkil qilib, doimo nutq tarkibida yaxlitligicha yashaydi. Nutqiy aloqa jarayonida intonatsiya asosan ikki vazifani bajaradi:

- nutq oqimining ma'no bo'laklarga ajratish va shu asosda yangi mazmun ifodalash. Bunda nutqiy pauza ham muhim rol o'ynaydi.
- nutqda emotsional ottenkani ifodalaydi. Bu ottenkalar o'ziga xos uslubiy ma'no kasb etadi²⁷.

*Bitta-bitta **yur-e-eb** talabalar shaharchasiga keladi. Trolleybusga o'tirib (ertalab joy bemalol-da) O'rdagacha boradi. Ishiga. Oshxonaga. Kechqurun shu yo'ldan orqaga qaytadi. Qoraqamishga. Uyiga. ("Nega?Nega?" 57-b).*

Bu gapda agar sinchiklab qaralsa, logik urg'uli so'zning o'zi bir gap bo'lib kelgan. "Ishiga", "Oshxonaga", "Qoraqamishga", "Uyiga" tarzida. Mantiqiy urg'uning joylashish tartibi ham ketma-ket, bu ta'sir kuchini yanada oshirishga, uning ya'ni, hikoya qahramonining kundalik turmushi har kuni shu zaylda, bir xilda ketishiga yanada kuchli ta'kid berish orqali logik urg'udan foydalanilgan.

Ohang ya'ni intonatsiya ham tilda har xil sintaktik, ekspressiv va emotsional ma'nolarni ifodalovchi murakkab hodisadir. Faza urg'usi, melodiya, ritm, intensivlik, temp kabi prosodik elementlarning birligi ohangni tashkil etadi. Bu prosodik elementlarning har biri ohangning komponenti yoki parametrik deb yuritiladi. Melodiya va fraza urg'usi ohangning birlamchi, qolgan elementlar ikkilamchi komponentlari hisoblanadi²⁸. Yanada soddaroq qilib aytadigan bo'lsak, intonatsiya so'z va gapning libosi bo'lib, u til va nutq birliklarining cheksiz

²⁷ Yaxshiyeva G. O'zbek tilida fonografik uslubiy vositalar. filol. fanlari nomzodi diss... avtoref. – Toshkent. 1996. "Fan" 12-b.

²⁸ O'rinboyev B, O'rinboyeva D. Tilshunoslik nazariyasi. Samarqand. 2010-yil. 105-106-betlar.

imkoniyatlarini ro'yobga chiqaradi. Intonatsiya nutqiy jarayonda, eng avvalo, ta'sir etish vositasi sifatidagi xususiyatini namoyon qilar ekan, bunda eshitilish jihatidan tovushning balandligi yoki pastligi farqlanadi. Yana bir tomoni borki, uslubiyligi jihatidan intonatsiya ta'sir etish vasifasidan tashqari ma'lumot berish vazifasini ham bajaradi. Jumladan, intonatsiyaning o'zgarib borishi so'zlovchining ruhiy holati haqida ma'lumot beradi. So'zlovchi nutqining mazmuni uning maqsadi ifodasi sifatida shakllanadi, intonatsiya esa mazmunning obyektiv va subyektivligi haqida ma'lumot berishi to'g'risida G. Yaxshiyeva o'rinli asoslagan.

Intonatsiyaning emotsional jihat, asosan, konnotativ ma'no ifodalaydi. Konnotativ ma'no denotativ ma'no ustiga yuklangan bo'ladi. Inonatsiya so'zlovchining nutqiga ma'lum uslubiy bo'yoq berishga muhim vosita ham sanaladi. Jumladan, nutqda sekin so'zining imtonatsiyasi tajriba qilinganda, quyidagi ma'nolarni berganligi kuzatiladi: yumshoq iltimos, tasdiq, ogohlantirish, taklif, o'ksinish, sanash, xabar, chog'ishtirish, farqlash, hayrat do'q, ishonch, kuchli qo'rqinch, so'roq, buyruq va hokazolar angalashilib kelishi amalda isbotlangan.

Ma'lumki, so'z bo'g'inlaridan birining boshqalariga nisbatan kuchliroq ohang bilan aytilishiga urg'u deyiladi. Urg'u qabul qilgan bo'g'in urg'uli bo'g'in deb ataladi. Urg'u obyektiga ko'ra ikki xil bo'ladi: so'z urg'usi, fraza urg'usi.

Urg'uning semantik-grammatik va uslubiy xususiyatlarini dastlab o'zbek tilshunosligida A. G'ulomov, A. Mahmudov, H. Yo'ldosheva kabi qator olimlar ilmiy izlanishlar olib borganlar. Ularning bu ilmiy izlanishlari nihoyatda katta ilmiy ahamiyatga egadir.

O'zbek tilida urg'u yuqorida qayd qilinganidek, supersegment (ustama) vositalardan biri, u tilning turli sathlariga tushib nutq jarayoni zanjirini tashkil qilishda muhim fonostilistik vazifa bajaradi²⁹. Ammo urg'uning uslubiy ahamiyati haqida hatto o'zbek tili stilistikasiga oid adabiyotlarda ham ma'lumot berilmagan.

²⁹ Haydarov A. Badiiy tasvirning fonostilistik vositalari: filol. fanlari nomzodi diss... avtoref. – Toshkent, 2008. 14-b.

Holbuki, urg`u ma'lum bir so`zni to`g`ri talaffuzini belgilash bilan birga, uning stilistik bo`yoqdorligini ham ko`rsatadi.

Urg`u orqali qo`shimcha ma`no bo`yog`ini hosil qilishda ohang asosiy rol o`ynaydi. Bunda so`zning denotative ma`nosi o`zgarmay, turli konnotativ ma`nolar hosil bo`ladiki, bu o`z navbatida uslubiy rang-baranglikni vujudga keltiradi. Urg`u semantik-grammatik hamda uslubiy ahamiyatga ega bo`lgan fonetik vositalardan biridir. So`z urg`usi semantik-uslubiy tomondan so`z ma`nosi va talaffuzini to`g`ri belgilashga xizmat qiladi. Ayrim hollarda so`z bo`g`inlariga tushgan urg`u uning denotativ ma`nosiga ta`sir qilmay, konnotativ ma`nosini o`zgartiradi.

Tilda leksik urg`udan tashqari fraza urg`usi yoki mantiqiy urg`u (gap urg`usi) ham bo`ladi. Gap tarkibidagi so`zlardan birining yoki bir nechtasining boshqalariga nisbatan kuchliroq ohang bilan aytilishiga mantiqiy urg`u deyiladi. Gapning turli ottenkalarini mantiqiy urg`u orqali ifoda etish mumkin. O`zbek tilida logik urg`u boshqa ko`pgina tillardagi kabi fikriy jihatdan ahamiyatli bo`lgan elementni ajratish, kuchaytirish uchun xizmat qiladi. Bu ajratish o`sha elementning kuchli aytilishi bilan bog`liqdir.

Agar leksik urg`u fonetik hodisa bo`lsa, mantiqiy urg`u sintaktik hodisadir. Shunga muvofiq leksik urg`u fonetikada, mantiqiy urg`u grammatikada o`rganiladi.

O`zbek tilida logik urg`u boshqa ko`pgina tillardagi kabi fikriy jihatdan ahamiyatli bo`lgan elementni ajratish, kuchaytirish uchun xizmat qiladi. Bu ajratish o`sha elementning kuchli aytilishi bilan bog`liqdir. Bunday kuchaytirish shu elementning so`nggi bo`g`inida o`zining eng yuksak nuqtasiga yetadi. Bu hodisa havo oqiminigina kuchayishi emas, balki umumiy tonning-ohangning ko`tarilishidir. Logik urg`u biror narsani ta`kidlashda, birini ikkinchisiga zid qo`yishda ham uchraydi. Mantiqiy urg`u o`z tabiatiga ko`ra grammatik shakllar bilan ham aloqadordir. Kelishiklardan qaratqich va tushum kelishigidagi so`zlar mazmunan birinchi o`rinda bo`lganida, mantiqiy urg`u olishi bilan birga, ko`pincha o`z belgilarini ham saqlaydi. Belgisiz qo`llangan taqdirda esa logic urg`uni ololmaydi. Bunday e`tiborsizlik natijasida esa nutqda mantiqiy-uslubiy

nuqsonlar vujudga keladi. Shuningdek, urg`u gapning mazmuniga aniqlik kiritadi va gapdagi bo`laklarning qimmatini belgilaydi. Bu urg`u ma`lum darajada gapda so`zlar tartibi bilan ham bog`lanadi. Mantiq urg`usiga qarab gapning tartibi ham o`zgarishi mumkin. Agar gap tartibidagi biron so`zning o`rni ikkinchi gapda almashtirib qo`llansa, shu gapda ta`kidlash, bo`rttirish ma`nosi kuchli ifodalangan bo`ladi. Odatdagi tartib logik-grammatik va uslubiy talab bilan o`zgaradi. Kuchli emotsiyalarni ifodalash, ekspressivlikni ifodalab kelish uchun logik urg`u olgan bo`lakdagi undosh tovush ba`zida takrorlanib kelishi mumkin: *Dalada mazza qildik.*

...Faqat bir narsani tushunmayman. Nahotki siz – oliy ma`lumotli ekonomist, o`ylamagansiz? Markaziy tumanlarga tola o`rniga hashak borgan. Keyin o`sha la`nati xashak ham bormay qo`ygan, vagonlarda havo brogan. Ha-vo! – dedi ta`kidlab. – Samolyotlarda esa diplomat to`la pul borgan. Tola yo`q, plan bor. Paxta yo`q, pora bor! Orden bor, medal bor...(“O`zbek ishi” 117-b).

Emfatik (hayajon) urg`u gapning biror bo`lagi yoki bo`laklariga so`zlovchining kechinmasi, hayajoni, subyektiv munosabati kabilarning yuklatilganligini ko`rsatuvchi intonatsion qismdir. Uning logik urg`udan farqi shundaki, logik urg`u tinglovchi diqqati qaratilgan bo`lakni ajratib ko`rsatadi. Hayajonli (emfatik) urg`u esa so`zlovchining o`z subyektiv munosabati qaratilgan bo`lakni ayirib ko`rsatish vazifasini o`taydi. Logik urg`u gapning biror bir bo`lagiga tushadi, emfatik urg`u bir necha bo`lakka, hatto gapning ma`lum bir qismiga ham tushishi mumkin. Mantiqiy urg`uda tovush kuchi asosiy o`rinda turgani holda, emfatik urg`uda tovush cho`ziqligi asosiy o`rinda turadi.

Badiiy tasvirda emfatik urg`usidan keng foydalaniladi. Unda muallifning ruhiy kechinmasi, his-hayajoni, subyektiv munosabati kuchli ifodalangan bo`ladi³⁰.

Xulosa qiladigan bo`lsak, urg`u semantik-grammatik hamda uslubiy ahamiyatga ega bo`lgan muhim fonetik vositalardan biridir. Urg`u vositasida

³⁰ Haydarov A. Badiiy tasvirning fonostilistik vositalari: filol. fanlari nomzodi diss... avtoref. – Toshkent, 2008.16-17-b.

paydo bo'ladigan turli xil emotsional-ekspressiv ma'nolar badiiy tasvirni jonli, obrazli va ta'sirchan bo'lishini ta'minlaydi.

3.1 Hikoyalarda morfologik va sintaktik shakllarning qo'llanilishi.

Ma'lumki, morfologik usul bilan ekspressivlikni hosil qilishda maxsus so'z shakllari va grammatik ma'no vazifasi mavjud bo'lgan so'z shakllaridan foydalanamiz. O'zbek tilida ot va fe'l so'z turkumlari shakllarga boyligi hamda boshqa so'z turkumlarida shakllar hosil qilish birmuncha chegaralanganligi bois, ekspressiv-emotsionallikni hosil qilishning morfologik usuli asosan ot va fe'l so'z turkumiga xosdir.

Yozuvchi O'tkir Hoshimov asarlarida ham ba'zan subyektiv baho shakllari, ba'zan kichraytirish-erkalash shakllari deb yuritiladigan ot so'z turkumi yordamida emotsional-ekspressivlikni hosil qiluvchi –cha, - choq (chak), -jon, -xon, -oy singari qo'shimchalar yordamida hosil qilingan shakllarni uchratish mumkin. Bu qo'shimchalar bilan faqatgina kichraytirish-erkalash ma'nolari emas, balki shu bilan birgalikda ijobiy va salbiy munosabat, suyish, mensimaslik, tahqirlash, hurmatlash, e'zozlash kabi ma'nolar yuzaga keladi.

Salbiy munosabat:

- Nega xotin kishini haqorat qilasiz, **yigitcha**? – dedi sof rus tilida. Biroq bu safar sizlab gapirdi. – Nima, akasimiz, qudasimisiz?

“Eh-he! Ruscha matalniyam biladi bu!”

- Men sizga **yigitcha** emasman! – Koryagin uning ko'ziga tikandek qadaldi. – Men o'ta muhim ishlar bo'yicha... (107-b)

Ijobiy munosabat:

*Meni Rais buvaning o'g'li deb o'yladi, chog'i, ogohlantirdi. – Mana, **yigitcha**, dadangizga aytib qo'ying. Bunaqa gaplarni baqirib aytmaydi odam. Gostinitsa – nozik joy. Bunaqa ishlar imi-jimida qilinadi... (283-284-b.)*

Bu misollardagi salbiy munosabatda mensimaslik, tahqirlash ifodalari aniq sezilib turibdi. Misollarda bu qo'shimchaning vazifasi kichraytirish ma'nosini ifodalash emas. Ijobiy munosabatda kichraytirish ma'nosi anglashilayotgandek

tuyuladi, lekin bu misolda –cha qo'shimchasini qo'llashdan maqsad yigitning kichkinaligini ifodalash emas, balki yigitga nisbatan ijobiy munosabat ham ifodalangan. Xuddi shu shaklning o'zi vaziyat va gap ohangiga ko'ra salbiy munosabat, ya'ni kesatish ma'nosini ham ifodalab kelishi mumkin.

Borliqdagi jamiki narsalar turli hajmga ega bo'ladi. Masalan, ularning kattasi ham, kichigi ham bo'ladi. Lekin ularning kichigini ifodalash uchun shu narsani bildiruvchi so'z –cha affiksli shaklda qo'llanavermaydi. –cha affiksi juda sanoqli so'zlardagina ekspressiv-emotsional munosabat ifodalashi mumkin va kerak bo'lgan hollardagina qo'llaniladi³¹.

...Ayvon tomondan **poshsha** xolaning tovushi keldi.

– **To'lqinjonning** to'yi yurishib qoldi, ovsin**jon**! Shunaqa-yu, ko'nglim g'ashroq. Kelinning akasi icharkan. Otasiniyam og'zi shaloqroq deyishadi.

– Sinang, o'rgilay, obdan sinang. Qush uyasida ko'rganini qiladi. Keyin kuyib alangasiga isinib o'tirmang. (85-b)

Otning egalik shakllarini matnda maxsus qo'llash bilan ham ekspressiv-emotsionallik ifodalanadi. Birinchi shaxs birlik shakli qarindoshlikni ifodalovchi so'zlarda, ya'ni undalmalarda qo'llanganda, suyish, ardoqlash, erkalash kabi ma'nolarni ifodalashga xizmat qiladi.

- Dunyo shunaqa ekan, jon bolam, – dedi o'ychan ovozda. – Hamma bir-bir ketaverarkan... (131-b.)

Yigit negadir yerga qaradi. – **Otinoyim**... - Shunday dedi-yu, u yog'ini gapirmadi. (46-b)

Shuningdek, yozuvchi asarlarida egalik qo'shimchalarining qo'llanilishi bilan bog'liq ba'zi holatlarda ham ustalik bilan o'z mahoratini aks ettirgan.

Akmal qo'ng'iroq tugmasini bosishi bosishi bilan ichkaridan ovoz eshitildi:

- Ana, Akmalxon keldilar.

“Kelinoyim”, deb o'yladi u yangasini ovozidan tanib.

³¹ Abdullayev A. O'zbek tilida ekspressivlikning ifodalanishi. - Toshkent: Fan, 1983. – B. 45.

Yangasi negadir uning nomiga “xon” qo`shib gapirardi. (“Yanga”54-b)

Bu holatda egalik qo`shimchasining qo`llanilishiga bo`lgan ijobiy munosabat bu obrazning ichki dunyosini ta`riflashga asos bo`lib xizmat qilgan.

Shuningdek, egalik qo`shimchasi salbiy ma`no ifodalaydigan so`zlarga qo`shilib, bu so`zlarga erkalash, yaxshi ko`rish ifodalarini qo`shadi

Badiiy nasriy matnni kuzatar ekanmiz, personajlar nutqining jonli va ta`sirli chiqishida ijodkor imo-ishoralardan, ma`no ifodalovchi turli gavda harakatlaridan, ovozning sifatli har xilliklaridan, hissiyotni ifodalovchi turli mimik o`zgarishlar ifodasidan foydalanganini ko`ramiz. Bu kabi nutqiy-ishoraviy muloqot badiiy-nasriy matnda remarkalar yordamida beriladi³².

O`zi birinchi bo`lib portfelini ochib ichidagi narsalarni to`kib tashladi. Sochiq, tish cho`tki, balo-battarlar har yoqqa sochilib ketdi. Keyin Umarali aka, Abdug`afur aka, Begali, men jahl bilan portfelimizni to`kib ko`rsatdik. Bahodir aka kattakon portfelini shaxt bilan ochib bir siltagan edi, ichidan eski gazetaga naridan-beri o`raglan to`rtta kattakon pishgan go`sht bo`lagi lop etib yerga tushdi. (Kechasi o`zimiz solib qo`ygan go`shtlar.)

– Iye? Voy? V-o-o-oy! – Bahodir aka turgan joyida taxta bo`lib qoldi. Yupqa gardishli ko`zoynagi ortidan hammamizga javdirab qaraydi. (“O`zbekning soddasi”123-b)

Shaxs-son ma`nosiga ega bo`lgan til birliklarini o`z ma`nosidan boshqa ma`noda qo`llash orqali ekspressivlikni ifodalash morfologik usulning ko`rinishlaridan biridir. Mag`rurlanish, kesatish, kamsitish, hurmatlash, hurmatsizlik kabi ijobiy yoki salbiy ma`nolarni hosil qilishda ko`plikdagi sonni ifodalovchi so`z shakllarini birlik sonda qo`llash mumkin. Masalan, ko`plik shaklida kelgan birinchi shaxsdagi fe`lni birlik son o`rnida qo`llash nokamtarlik, o`zini baland olish, kesatish kabi ma`nolarni hosil qiladi:

³² Saidxonov M. Badiiy matn kommunikativ vosita sifatida // O`zbek tili va adabiyoti, 2009. № 5, 78-bet.

- Yo`-yo`-yo`! **Undoq qilmasinlar-da, ukam!** – Hoji aka shunday dediyu, konyakni sipqardi...

- **Ko`rdilarmi, ukam, makruhi yana tagida qoldi. O`zlariyam o`rgansinlar!**
(218-b)

Ba`zida birlikda qo`llanuvchi ot so`z turkumi ham ko`plik qo`shimchasini qabul qiladi va shu so`zning ma`nosi kuchaytirishga erishiladi.

Ma`lumki, ikkinchi va uchinchi shaxs ko`plik shaklining hurmat ma`nosi uchun qo`llanishi hozirgi o`zbek adabiy tili uchun me`yoriy holatdir, ammo bu shakllar hurmatsizlik, haqorat, mazax singari ma`nolarni ifodalashi maxsus ohang va holatga bog`liqdir. Ikkinchi va uchinchi shaxs shakllarini o`zidan yoshi kattalarga va ko`pchilikka nisbatan “siz”lamasdan qo`llash ham hurmatsizlik, manmansirash, haqorat kabi ma`nolarni hosil qiladi

*Bir kuni eriga piching qildi: “Oyingiz sizga yangi xotin izlab **yurganmish. Eshikma-eshik tentirab o`rganib qolganda! Topsa-topadiyam!**”(45-b)*

- **Voy, onam!**

- **Ro`shnolik ko`rmagan, onam!**(49-b)

Gapda shaxs va sonning mos bo`lmasligi nutqiy g`alizlikni keltirib chiqaradi. *Oyingiz sizga yangi xotin izlab **yurganmish*** gapining boshida ikkinchi shaxs ko`plik ifodalangan bo`lsa, oxirgi bo`lagida ko`plik qo`shimchasi ataylab tushirib qoldirilgan Natijada kesatish, mensimaslik kabi ma`nolar yuzaga bo`rtib chiqqan.

O`tkir Hoshimov ijodida son so`z turkumining o`rni, ayniqsa, adibning hikoyalarida o`ziga xosdir. Sonlar gap ichida umumiy miqdorga aniqlik, konkretlik kiritish uchun xizmat qiladi³³.

³³ Shomaqsudov A., Rasulov I., Qo`ng`urov R., Rustamov H. O`zbek tili stilistikasi. – Toshkent: O`qituvchi, 1983. – B. 113.

Bir kuni uyiga mahallaning obro`li odami – kimsan domkom mehmon bo`lib borganida xasis uning oldiga likopchada tutmayiz qo`yibdi. Mehmon to`rttagina mayizni og`ziga solgan ekan, xasis uf tortibdi.

– Bir yuz qirq yettita qoldi, taqsir, - debdi.

Mehmon hayron bo`pti.

– Nima deyapsiz, Hotam aka? – desa xasis ma`yus qiyofada boshini egibdi.

– Mayiz bir yuz ellik bitta edi. (69-70-betlar)

Olmosh.

Yozuvchi O`tkir Hoshimov olmoshlarni matnda ustalik bilan ishlatib tinglovchi e`tiborida ekspressivlikni oshirishga erishgan. Masalan hozirgi o`zbek tilida kishilik olmoshlarining birinchi, ikkinchi shaxslarini ifodalovchi men, sen, biz, siz olmoshlari asar personajlarining xarakterini, ichki dunyosini ochib berishga xizmat qilgan

Ba`zan qani so`roq olmoshi kirish so`z vazifasida kelib, ta`kid uchun xizmat qiladi:

Bahodir aka uzum ko`tarib kirdi.

Qani, mehmonlar, - dedi iljayib. – *Jinday-jinday olaylik bundoq. Bugun bayram... (“O`zbekning soddasi” 112-b)*

– **Qani**, - deydi u hammaga bir-bir qarab. – *Kim eng yaxshi ishlasa, o`shani kelin qilaman. Xohlasa, mexanizatorlar kursiga jo`nataman. (90-b)*

Shuningdek, bu olmosh o`z ma`nosida (so`roq ma`nosida) qo`llangan o`rinlar ham uchraydi:

Fizika o`qituvchimiz Ismoil aka yo`qlama qilib o`tirmadi. Sinfga kirishi bilan atrofga bir qaradi-yu, so`radi:

*- Adham **qani**?*

Bir so`roq olmoshlarining har bir gap tarkibida takrorlanishi gapdan ifodalangan so`roq mazmunini kuchaytirishga xizmat qilgan:

O`sha zahoti shilq etib yerga o`tirib qoldi.

– Nega? – dedi ingrab. – Nega? Insoflaring bormi? Aytinglar, bolam nima gunoh qiluvdi? – Yerga muk tushdi-da, namiqqan taxta polni qo`shqo`llab ojiz mushtlay boshladi.

– Nega? Nega? Nega-a-a!!! (66-b)

Yozuvchi faqat olmoshlardan tuzilgan gaplarni ham qo`llaydi:

Qiziq, nega soqol-mo`ylovi muncha dag`al? Nega oqargan? Yo xudo! O`g`li o`zidan qarib ketibdimi?

– Bolam! Nima qildi? Nima bo`ldi senga? (65-b)

Sifat:

Ma`lumki, sifatlar biror predmetning belgisini bildirish uchun qo`llanadi. Ammo ba`zi predmetlarning o`zida bevosita rang-tus anglashilib turadi:

Sut, qor kabi.

Shunga qaramay, bunday so`zlar oldidan ham rang-tus bildiruvchi sifatlar qo`llanishi mumkin. Bu holatda sifatlar rangning yanada kuchliligini ifodalash uchun qo`llanadi. Badiiy asarlarda sifatarning bu kabi qo`llanishi uslubiy talab bilan bo`lib, ma`no kuchaytirish, mazmunni bo`rttirish uchun foydalaniladi:

*Shunda qor gupillab yog`ib turgan mudhish kecha, onamning **qip-qizil go`shtga** aylanib ketgan oyoqlari ko`z o`ngimga keladi-yu, indamay chiqib ketaman. (17-b.)*

*Uning katta-katta oyoqlari **qip-qizil go`sht** bo`lib ketgan, negadir lozimining pochasini qayirib olgan, to`pig`igacha qoplagan tuklariga kir qor yopishib qolgan edi. (64-b.)*

Goho sutdek oydin kechalari hovli o`rtasidagi supadami, chorpoyadami yotganingizda, birdan uyg`onib ketasiz. (“Uzun kechalar”43-b)

Ko`cha chetida uch yoshlardagi bola yerga dumalab tajanglik bilan chinqirar, oppoq ko`ylagi, ishtonchasi qora tuproqqa belangan edi. (21-b.)

Ba`zi holatlarda sifat qo`llanmasa ham belgisi anglashilib turadigan ot so`z turkumiga oid so`z oldidan ma`noni kuchaytirish uchun sifat qo`llanadi:

Tamom bo`ptiku! **Rangi dokadek oppoq**... Soqol-mo`ylovi o`sgan... (65-b)

Yozuvchi tomonidan kichik hajmni ifodalovchi so'zlarga ham kichraytirish qo'shimchasi qo'shilib ekspressivlik kuchaytirilgan holatlar uchraydi:

Hotam-xasis negadir iljayadi. Qoshiqdekkina yuzidagi ajinlar qat-qat bo'lib ketadi. (67-b)

Umuman, yozuvchi –gina qo'shimchasidan samarali foydalanib bu qo'shimcha orqali ta'sirchanlikni oshirishga erishgan o'rinlar talaygina.

Yozuvchi sifat anglatayotgan belgini kuchaytirish uchun o'xshatishdan foydalanib, sifatlar oldidan o'xshatilayotgan predmetni qo'llagan va bu bilan badiiylilikni ta'minlashga erishgan:

Har qanday fikr nutqda ifodalanar ekan, so'zlovchi faqat muayyan axborotni tinglovchiga yetkazishnigina emas, balki bu fikrning tinglovchiga qay darajada ta'sir etishini ham deyarli hamisha e'tiborda tutadi. Shuning uchun nutqning ifodaliligi, ta'sirchanligini, ya'ni ekspressivligini ta'minlovchi vositalarga malakali so'zlovchi yozuvchi doimo diqqat bilan qaraydi. Ma'lumki, til ekspressivlikni ifodalashning xilma-xil imkoniyatlariga ega. Bunday imkoniyatlarning kenglik darajasi tilning boyligini ham ko'rsatadigan o'ziga xos o'lchovlardandir. Tilshunoslikda ekspressivlikni til taraqqiyotining harakatlantiruvchi kuchidir degan fikr ham mavjud. Til haqidagi fanda tilning kommunikativ va yana boshqa vazifalari qatorida uning ekspressiv vazifasi ham alohida ajratiladi. Albatta, bu vazifa, ayniqsa, badiiy matnda yanada katta ahamiyat kasb etadi³⁴.

O'tkir Hoshimov asarlarida ekspressivlikni ifodalashda sintaktik birliklarning ham maxsus o'rni bor. Masalan, asarlarida adib ritorik so'roq gaplardan unumli foydalangan. Ma'lumki, ritorik so'roq gaplar sof so'roq ifodalamaydi, ya'ni bu turdagi gaplarda so'zlovchi uchun biror noma'lum bo'lgan voqea-hodisa haqida bilish istagi bo'lmaydi. "... ritorik so'roq gap javob talab qilmaydi va mohiyatan darak, shaklan so'roq gap hisoblanadi."³⁵ Gap grammatik

³⁴ Jamoliddinova D. Parantez birliklarning ekspressiv sintaksisdagi o'rni // Til tizimi va nutqiy faoliyat. Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari. – Samarqand, 2010. 98-b.

³⁵ Sayfullayeva R., Mengliyev B., Boqiyeva G., Qurbonova M., Yunusova Z., Abuzalova M. Hozirgi o'zbek adabiy tili. –Toshkent: Fan va texnologiya, 2009. 382-b.

jihatdan so'roq shaklida bo'lsa ham, tinglovchidan tegishli javob talab qilinmaydi. Ritorik so'roq gaplarda xuddi darak gaplardagi kabi voqea-hodisalar haqidagi tasdiq yoki inkor tarzida hukm ifodalanadi. Ritorik so'roq gap xuddi darak gap kabi axborot tashish vazifasini bajaradi. Farqi shundaki, ritorik so'roq gaplarda emotsional-ekspressivlik xususiyati yuqoriroq bo'ladi.

Men aytaman... Aytamanu o'ylayman: onaning yosh-qarisi bo'ladimi? Mehrning yosh-qarisi bo'ladimi? Shafqatning-chi? Sadoqatning-chi? (8-b.)

Bechora onam! O'sha iztirobli afsonani aytayotganingda inidan mo'ralagan qaldirg'och bolasidek ko'rpadan bosh chiqarib yotgan besh bolang bir-biri bilan inoq bo'lishini shunchalik xohlaganmiding! (10-b.)

Ba'zi hollarda oddiy so'roq gaplarning o'zi ham ekspressiv vazifa bajarish uchun xizmat qiladi:

- **Nima?** - *Keyin chap qo'lini paxsa qilib baqirdi. – Uchrashuvingizni boshimga uramanmi? Qornim tatalab ketyapti, bildingizmi? Nima, Toshkentga o'ligimni olib ketmoqchimisiz? (“O'zbekning soddasi” 117-b)*

Bu o'rinda so'zlovchi o'zi uchun noma'lum bo'lgan narsani bilishga hayajon bilan intiladi, ya'ni so'zlovchi uchun noma'lum bo'lgan narsa uni judayam hayajonlantiradi va u savolini ketma-ket takrorlayveradi. Bu vaqtda birin-ketin so'roq berilaveradi. Yozuvchi asarlarida bu usuldan foydalanib, fikrning ta'sirchanligini oshirishga erishgan.

Shuningdek, ba'zi o'rinlarda so'roq gaplarning bir xil so'roq olmoshi bilan boshlanishi va ketma-ket so'roq gaplarning tizilishi ham so'roq gaplarga emotsiya qo'shilib, ta'sirchanlikni oshirishga xizmat qilgan.

Bu o'rinda bir xil so'roq olmoshlarining takrorlanishi bilan birga yuqorida ta'kidlanganidek, so'roq gaplarning ketma-ket kelishi ham muhim ahamiyatga egadir. Chunki aytib o'tganimizdek, so'roq gaplarning ketma-ket kelishi his-

hayajonni ifodalasa, bu so`roq gaplarining bir xil so`roq olmoshlari bilan boshlanishi bu his-hayajonni yana-da kuchaytirish uchun xizmat qilgan.

Shuningdek, ekspressivlikning ifodalanishida gapning takrorlanishi ham o`ziga xos o`rinni egallaydi.

Bu tipdagi gaplarning ko`pincha, takroriy qismi to`liqsiz gapga teng keladi. Bu holat, ya`ni takrorlanuvchi qismning ba`zi bo`laklari tushirilishi ixchamlikka harakat qilish bilan belgilanibgina qolmay, gap tarkibidagi ba`zi bo`lak va u orqali ifodalangan mazmunni alohida ajratib, ma`nosini bo`rttirib ko`rsatish, shu bilan birga o`quvchi e`tiboriga havola qilinayotgan axborotga diqqatni kuchaytirib tortish kabi uslubiy vazifalarni ham bajaradi. Shunday qilib, Yozuvchi O`tkir Hoshimov asarlarida gap takrorining ikki xil ko`rinishi mavjud:

1) to`liq takror;

2) qisqa takror;

Takroriy gaplarning bu ikki xil ko`rinishi bir-biridan grammatik tuzilishi bilangina farq qiladi. Ular bajarayotgan uslubiy vazifa esa deyarli farq qilmaydi. Bu xil takroriy gaplarning har ikki xil ko`rinishida ham oddiy gaplardan farqli tarzda, axborot bir xil, ya`ni ekspressivlik bo`yog`i bilan ifodalanadi.

Ismoil aka asta yurib tepamga keldi.

– Nimani ko`rding? – dedi sekin qat`iy ovoz bilan.

Men indamay eshikka chiqib ketishni ham, Ismoil akaning savoliga javob berishni ham bilmay, turib qoldim.

– Nimani ko`rding? – dedi u yana. (127-b)

Gapning takrorlanishida keyingi qism har doim ham to`laligicha saqlanavermaydi. Bu qismlar, ko`pincha, qisqargan, ya`ni elliptik gap tarzida takrorlanib qo`llanadi. Chunki, bu holatda birinchi gapda zarur bo`laklarning hammasi qatnashgan, ular orqali ma`lum axborotni ifodalagan bo`ladi. Gapning takrorlanuvchi qismida esa avval aytilgan hamma bo`laklarning ham takrorlanishiga talab bo`lmaydi. Bu holatda so`zlovchi ma`no jihatdan ahamiyatli ekanligini nazarda tutgan bo`lak keyingi gapda ham takrorlanishi shart:

Baland bo`yli, qotma, tetik rais ochiq chehra bilan hayqiradi:

- Hormanglar, qizlar!

Qizlar quvnoq salomlashishadi.

- Barakalla qizlar!!! Yashanglar! Plan to'lgan kuni hammangizni Toshkentga – tomoshaga olib boraman.

- Naq Toshkentning o'zigami? – deydi orqaroqda o'tirgan qizlardan biri ishonqiramay.

- Naq Toshkentning o'ziga! (89-b)

Bu xildagi gap takrorini gap bo'laklarining takrorlanishidan farqlash kerak. Takroriy gaplar shakliy jihatdan gap bo'laklariga teng kelsa-da, mazmun jihatdan birinchi gapga teng keluvchi sintaktik birlikdir. Takroriy gap birinchi gap bilan yoki uning qismlari bilan grammatik aloqaga kirishmaydi.

Ayrim sintaktik vositalar o'z tabiatiga ko'ra ekspressiv-tasviriy vosita hisoblansa, ayrimlari faqat kontekstda ekspressivlik ifodalaydi. Ekspressiv-tasviriy vositalar, asosan, badiiy-poetik, publitsistik va notiqlik uslublari uchun xarakterlidir. Bu shu uslublarning tabiati bilan, ularda obrazlilik, emotsional-ekspressivlikning kuchliligi bilan bog'liqdir³⁶.

³⁶ Shomaqsudov A., Rasulov I., Qo'ng'urov R., Rustamov H. O'zbek tili stilistikasi. – Toshkent: O'qituvchi, 1983. 143-b.

Ikkinchi bob.

O`tkir Hoshimov hikoyalarining leksik-semantik xususiyatlari.

2.1 O`tkir Hoshimov hikoyalarida sinonim hamda antonimlarning uslubiy xususiyatlari.

Sinonimlar

Sinonimlar – talaffuzi, yozilishi har xil, birlashtiruvchi ma’nosi birxil ya’ni umumiy bo’lgan, qo’shimcha ma’no nozikligi, emotsional bo’yog’i, qo’llanishi kabi bir qator xususiyatlari bilan o’zaro farqlanadigan so’zlardir. Ana shunday umumiy (birlashtiruvchi) ma’no bilan o’zaro bog’lanuvchi so’zlar guruhi sinonimik qatorni tashkil etadi. Sinonimik qator esa ikki yoki undan ortiq so’zdan iborat bo’lishi mumkin. Ma’nodosh so’zlar tilning lug’aviy jihatdan boylik darajasini ko’rsatib beruvchi o’ziga xos vositadir. Tilda ma’nodosh so’zlarning ko’p bo’lishi tilning estetik vazifasini yanada to’liq bajara olishini osonlashtiradi. Bu juda qadim zamonlardan beri anglangan, idrok etilgan va o’rganilgan. Yozuvchilar tilimizdagi ma’nodosh so’zlar ichidan tasvir maqsadi va ruhiga muvofiq keladigan aniq so’zni topib o’z asarlarida qo’llashga harakat qiladilar, shu

tariqa, qahramonlar ruhiyati hamda tasvir obyektining eng kichik qirralarigacha real ko'rsatib berishga intiladilar. Badiiy matndagi ma'nodosh so'zlar tahlilida, asosan, ikki jihatga e'tiborni qaratish zarur. Ulardan biri muallifning ikki yoki undan ortiq ma'nodosh so'zdan ifodalanayotgan mazmun uchun eng maqbul birini tanlash bo'lsa, ikkinchisi ayni bir matn tarkibida ikki yoki undan ortiq ma'nodosh birliklarni badiiy tasvir maqsadiga uyg'un holda qo'llashi masalasidir.

Tilshunoslikda ma'nodoshlikning, asosan, uch turi farqlanadi, ya'ni:

- leksik ma'nodoshlik;
- frazeologik ma'nodoshlik;
- leksik-frazeologik ma'nodoshlik.

O'zaro ma'nodoshlik qatorini hosil qiluvchi so'zlar tushunchaning belgisiniturli daraja bilan ifodalashi, ba'zi so'zlar belgini normal daraja bilan (neytral) ifodalasa ba'zilari kuchli darajasini ifodalashi mumkin. Sinonim so'zlar emotsional bo'yoqli va emotsional bo'yoqsiz so'zlarni tashkil etib, ular yana salbiy emotsional va ijobiy emotsional so'zlarga bo'linib ketishi mumkin.

Quyosh ufqqa lab bosdi. Kichkina shalaq arava tuproq yo'ldan imillab borar edi. Qora eshak chillakday ingichka oyoqlari bilan tuproq changitib, aravani sudrab borar, g'ildiraklar nola chekkan kabi hazin g'iyqillardir...

Quyosh yer ortiga yumalab ketdi. Oqshom shamoli ufqda yonib turgan shafaq alangasini puflab o'chirdi. Hamon g'ildiraklar nola chekar, shalaq arava tepalikka chiqib borardi. ("Muhabbat"23-bet) Bu ikki jumlada ***"Quyosh yer ostiga yumalab ketdi, Quyosh ufqqa lab bosdi"*** bu ikki gap kontekstda o'zaro sinonimlik qatorini hosil qilgan.

Ma'lumki, har bir lingvistik vosita badiiy nutqda nominativ vazifa bajarish bilan birgalikda uslubiy vosita ham bo'la olishi mumkin. Sintaktik figuralar jonli til tabiatidan kelib chiqadigan nutqiy hodisalar bo'lib, badiiy nutqda muayyan uslubiy maqsadni yuzaga chiqarishga xizmat qiladi. Chunki badiiy asarda til birliklari muallif tomonidan kommunikativ ta'sir maqsadida tanlab olinadi va shu jarayonda adibning individual faoliyati namoyon bo'ladi.

Soʻz leksik maʼnolarida paradigmatic munosabat semantik jihatdan qaralganda dastlab soʻzlar maʼno bir xilligi (sinonimiya) va maʼno qarama-qarshiligi (antonimiya) nuqtai nazaridan guruhlariga boʻlib tadqiq etilgan. Keyingi yillarda soʻz leksik maʼnolaridagi paradigmatic munosabatni semantik jihatdan eslatuvchi yana bir hodisa – lugʻaviy darajalanish (graduonimiya) hodisasi mavjudligi, unda soʻzlar maʼno farqlanishiga asoslanishi koʻpgina tadqiqotchilar tomonidan tadqiq etildi³⁷. Leksik sinonimiya maʼnolari bir xilligi, oʻzaro yaqinligi yoki oʻxshashligi hodisalariga asoslansa, graduonimiya esa farqlilik omillariga tayanadi. Demak, xulosa qilganda shunday fikr kelib chiqadi. Sinonimiya va graduonimiya hodisalari oʻzaro keskinfarqlanadi. Biroq shunga qaramay, ular oʻrtasida maʼnoviy munosabat mavjud. Aslida sinonimlardan biri oʻrnida ikkinchisini kontekstual qoʻllash imkoniyati mavjud boʻlsa, denotativ maʼnolarga asoslangan graduonimlar orasida darajalanish farqlari kuchli yoki kuchsiz boʻlishi mumkin. Xuddi mana shu fikrimizni hikoyadagi bir parcha orqali keltirishimiz mumkin.

...Hovli etagida, eski bostirma oldida bir tup oʻrik bor. Dovuchcha tukkanidan boshlab turshak boʻlguncha mahallaning qora-qura bolalari shoxdan-shoxga tarmashadi. Otinoyi oʻrikni qizgʻanganidan emas, bolalarga achinganidan chirqillaydi: “Hoy, uyingga bugʻdoy toʻlgur takalar, tush, yiqilib ketasan!” “Takalar” parvo qilmaydi. Biladiki, Otinoyining tuti ham, oʻrigi ham ularniki! Umuman, bu hovli hammaniki. Erta koʻklamda sumalak shu yerda boʻladi. Ismaloq somsa, yalpiz somsa Otinoyining bostirmsidagi tandirda yopiladi. Keyin tut pishadi. Ketidan oʻrik. Mahalladagi xotinoshi bormi, challarmi, beshik toʻyi bormi, quad chaqiriqmi – hammasining maslahati shu yerda pishadi. Qancha non yopiladi, Qancha guruch damlanadi. Qudalarga “toʻqqiz-toʻqqiz” da nimalar tortish kerak... Katta mahoratli yozuvchilarning badiiy til borasidagi ustunliklaridan biri shundaki, ular faqat tilda mavjud boʻlgan tayyor maʼnodosh soʻzlardagina foydalanib kelmasdan badiiy tasvir ehtiyojiga koʻra maʼnodosh

³⁷ Rahmonov Gʻ. Sinonimlar qatorida graduonimiyaning ifodalanishi. Oʻzbek tili va adabiyoti. 2012-yil 3-son, 71-72-b.

boʻlgan soʻzlarni ham shunday qoʻllaydilarki, bu soʻzlar ham matnda xuddi maʼnodosh soʻzlar kabi idrok etiladi. Masalan yuqoridagi matnning bir jumlasiga eʼtibor qaratadigan boʻlsak unda shunday soʻzlar keltirilgan: *Hovli etagida, eski bostirma oldida bir tup oʻrik bor. Dovuchcha tukkanidan boshlab, turshak boʻlguncha mahallaning qora-qura bolalari shohdan-shohga tarmashadi.* Bu jumladagi *dovuchcha*, *oʻrik*, *turshak* soʻzlari bir mevaning bosqichma-bosqich pishib yetilish jarayonidagi nomlari, ular bir-biriga yuqorida aytilganidek graduonimik munosabat hosil qilib asarning taʼsir kuchini yanada orttirishga xizmat qilmoqda. Sababi, bu mevaning pishish jarayoni yilning uch fasliga toʻgʻri kelganligi uchun Otinoyining uyidan hecham odam arimasligini mana shu birgina predmet orqali ham koʻrsatib bera olgan.

Voqelikni obrazli tasvirlashda, uni kitobxon koʻzi oʻngida aniq va toʻla gavdalandirishda frazeologik iboralarning maʼnodoshligidan keng foydalaniladi. Sinonimik qatordagi soʻzlar nutqning biror turiga, uslubiga xosligi jihatidan ham oʻzaro farqlanishi mumkin. Sinonimik qatordagi soʻz hozirgi adabiy til nuqtai nazaridan eskirgan boʻlishi mumkin. Koʻp yoki oz qoʻllanishiga koʻra oʻzaro farqlanishi mumkin. Ifodalaydigan tushuncha doirasi keng boʻlgan, belgini normal darajada ifodalaydigan, emotsional boʻyoqqa ega boʻlmagan, hozirgi adabiy tilga mansub boʻlgan soʻz sinonim qatordagi boshqa soʻzlarga nisbatan koʻp qoʻllaniladi. Yuqoridagi yana bir soʻz, yaʼni **“takalar”**. Bunda yozuvchi Otinoyining tilidan bolalarni takalar deb tasvirlashiga sabab, aynan qishloq hayotini, qishloqdagi bolalarning pishiqchilik davrlarida shoxdan-shoxga yopishib meva terishlarini maynan koʻrsatish, oʻquvchiga yanada aiqroq tasavvur uygʻotish maqsadida hamda mazmun boʻyoqligini oshirish maqsadida shu soʻzdan foydalangan. Bu soʻz esa “bolalar” soʻzi bilan kontekstual sinonimlikni hosil qilgan. Maʼnodosh soʻzlar badiiy adabiyotda muhim tasvirlash vositalaridan biri hisoblanib, yozuvchi ular yordamida qahramonlarning xarakter-xususiyatlarini, voqea-hodisalarni, manzaralarni, badiiy tasvirlarni aniq, ravshan va jonli qilib ifodalay oladi.

Ma'nodosh so'zlar leksemalarni o'rinsiz takror ishlatishga yo'l qo'ymaydi, badiiy nutq uslubining ravonligini ta'minlaydi, jummalarning ixcham tuzilishiga keng yo'l ochadi, semalarni o'rganish jarayonida chuqur fikr yuritishga imkon beradi.

Nutqda, umuman olganda og'zaki va yozma nutqda sinonimlarning katta amaliy ahamiyati bor. Sinonimlar nutqiy ta'sirchanlikka asoslanib, kitobxonning so'z boyligini oshiradi. Sinonimlar til lug'at sostavining qanchalik boy va rang-barangligini ko'rsatuvchi belgilardan biridir.

*...**Kampir** shosha-pisha uyga kirib ketdi.*

Koryagin chor-nochor ayvon peshiga keldi.

- *Berdiyev, - dedi imkoni boricha osoyishta gapirishga urinib. – Jumanovning onasiga ayting. Biz zaril ish bilan kelganmiz...*
- *Onasi emas, xotini... - Berdiyev xijolatli iljaydi.*

“ Xotini?! Nahot shu ayol...” O'sha ondayoq “kampir” ichkaridan yangi ko'rpachalar olib chiqdi. Xontaxta atrofiga poyondo to'shab, oppoq, ozoda dasturxon yozdi. (O'sha kitob, 100-b)

Aslini olganda “kampir” va “xotin” so'zlari yosh jihatidan bir-biriga zid qo'yilgan ikki hodisalardir. Ammo yozuvchining mahorati shu darajadas kuchliki, chetdan kelgan odam endigina o'ttiz besh yoshdan o'tgan o'zbek ayolini kampir darajasiga chiqargani, o'sha vaqtlarda o'zbek ayollarining ahvoli anchayin og'ir bo'lganligini emotsional jihatdan ta'sirli qilib yarata olgan.

*“Yana qo'lim yorilibdi”. G'ozapoya tirnab tashlagan qo'llariga qaraydi. Tag'in jilmayib qo'yadi. Mana shu **nozik, chayir** barmoqlari tiqmachoqday qo'llari bilan allaqachon o'ziga haykal bitgulik ishlar qilib qo'ygani, bugun ham o'sha haykalga yana jilo bergani uning hayoliga ham kelmaydi. (O'sha kitob, 91-b)*

“Nafis” va “chayir” yuqoridagi kabi aslida antonim so'z. Lekin ana shu ikki zid hodisani bir yerga to'plab, undan kontekstual sinonimiyani hosil qilish yozuvchining so'z qo'llash mahorati va uning naqadar teran fikrli ijodkor ekanligidan dalolatdir. Sinonimlar ma'no va qo'llanish doiralariga ko'ra uch xil:

ideografik, stil va stilistik sinonimlar. Ideografik sinonimlar o'zaro leksik ma'no ottenkalaribilan farqlansa, stil sinonimlari qo'llanish doirasiga (nutqning turli stiliga mansubligiga), stilistik sinonimlar esa ekspressiv bo'yog'iga (sinonimik qatorda asosiy, neytral so'zga nisbatan ekspressiv ottenkaga egaligiga) ko'ra farqlanadi.

Sinonimik qatordagi so'zlar leksik ma'no qirradi, uslubiy tomoni hamda pragmatik semasi bilan o'zaro farqlanishidan kelib chiqib, tilshunos olim M. Mirtojiyev ularni bir necha tipga ajratadi.

Kontekstual sinonimiya – til birligi sifatida o'zaro sinonim bo'lmagan leksemalarning ma'lum kontekst doirasida (demak, nutq ichida) sinonimik munosabatga kiritilishi³⁸. Katta mahoratli yozuvchilarning badiiy til borasidagi ustunliklaridan biri shundaki, ular faqat tilda mavjud bo'lgan, tayyor ma'nodosh so'zlardangina foydalanib qolmasdan, badiiy tasvir ehtiyojiga ko'ra ma'nodosh bo'lmagan sozlarni ham shunday qo'llaydilarki, bu so'zlar ham matnda xuddi ma'nodosh so'zlar kabi idrok etiladi. Kontekst doirasida sinonimlashish hodisasi ayniqsa muallif leksemasining nutqdagi qo'llanishida ko'p uchraydi. Ma'lumki, muallif leksemasining sememasi tarkibida “yozuvchi”, “shoir”, “hikoyanavis”, “olim”, “ixtirochi” kabi qator semalar mujassamlangan. Demak, uning ma'no ko'lemi ancha keng. Kontekst ichida esa muallif sememasining shu semalaridan biri aktuallashadi, qolganlari reallashmaydi. Masalan, roman, hikoya kabi nasriy asarlar haqida gap ketganda muallif leksemasi faqat “yozuvchi” ma'nosida qo'llanadi, demak, yozuvchi leksemasining kontekstual sinonimiga aylanadi, kontekstdan tashqarida esa bu ikki so'z sinonim bo'la olmaydi, chunki ularning ma'no ko'lemi o'zaro teng emas.

³⁸ Jamolxonov H. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Toshkent, 2005 y.168-b.

Zid ma'noli so'zlar (Antonimlar)

Ma'lumki, tilda zid ma'noli so'zlarning mavjudligi badiiy nutqning ifodaliligini, ekspressivligini, ta'sirchanligini ta'minlashda qulay vositalardan biridir. Shak-shubhasiz, sharq adabiyotida juda qadim zamonlardan buyon tildagi bu ifoda imkoniyatidan juda keng foydalanib kelingan. Chunki o'sha paytlardan buyon yomonlik ustidan qozonilib kelinayotgan har qanday g'alabalarda ziddiyatning turli ko'rinishlari mavjud. Shu bilan hayot o'zining tarovatini yo'qotmay kelmoqda. Mana shu ziddiyatlar orqali hayot qiziqarlidir. Yevropa tilshunosligida bu hodisa "antiteza" deb yuritiladi. Badiiy matnning lingvopoetik tahliliga bag'ishlangan ishlarda zidlantirish, qarshilantirish atamalaridan foydalaniladi. Zid ma'noli so'zlarni yonma-yon qo'llash orqali tushunchalar, belgilar, holatlar, obrazlar zidlantiriladi. Ma'lumki, antonimiya hodisasi, asosan, bir so'z turkumi leksemalari doirasida yuz beradi. Antonimlar, asosan, belgi anglatuvchi so'zlarda uchraydi. Miqdor, vaqt, o'rin, harakat-holat ma'nolarini ifodalaydigan so'zlarda zidlash ma'nosi kam bo'ladi. Shunga ko'ra antonimlar sifat, ravish so'z turkumlarida ko'p uchraydi. Fe'llarda antonim hosil etuvchi so'zlar juda kam, son, olmosh, modal va yordamchi so'zlarda umuman yo'q. Odatda, leksik, kontekstual yoki nutqiy zid ma'noli so'zlar bir-biridan farqlanadi. Bir so'z bir ma'nosida antonimga rga bo'lishi, boshqa ma'nolarida umuman antonimga ega bo'lmasligi mumkin. Ba'zi so'z yasovchi affikslar ham antonimik juftlikni hosil qilishi mumkin.

Til birliklarining takrori natijasida yuzaga keladigan ifoda kambag'alligi va rangsizligidan qochish uchun, tasvir obyektiga e'tiborni jalb qilish uchun, ijobiy

belgining darajama-daraja ortib borishini ifodalash kabi bir qancha turlarga bo`linib ketadi.

Ma'lumki zid ma'noli so'zlarning qo'llanishi badiiy nutqning ifodaliligi, bo'yoqdorligi, ta'sirchanligini ta'minlashda qulay vositalardan biri sanaladi.

Sharq adabiyotida juda qadim zamonlardan buyon tildagi bu ifoda imkoniyatidan keng foydalanib kelingan. Zid ma'noli so'zlarni yonma-yon qo'llash orqali tushunchalar, belgilar, holatlar, obrazlar zidlantiriladi. Odatda, lisoniy va kontekstual yoki nutqiy zid ma'noli so'zlar farqlanadi.

Tilshunoslikda antonimlar bo'yicha ko'plab tadqiqotlar olib borilgan. Ularning til sathlaridagi o'rni, mohiyati, me'yor va vositalari o'rganilgan. Kontekst tarkibida fakultativ tarzda yuzaga chiquvchi antonimlarni okkazional antonimlar sifatida baholash va ularning turli nutq uslublaridagi o'ziga xos lingvostilistik, semantik - ekspressiv xususiyatlarini o'rganish, ularning paydo bo'lish asoslarini tahlil etish rus tilshunoslari L.A.Vvedenskaya, G.E.Goncharenkolar tomonidan o'rganilgan bo'lsa-da,³⁹ hozirgacha o'zbek tilshunoslarining tadqiqot obyekti bo'lmagan. Ma'lumki, qiyoslanuvchi fikr, tushuncha kabilarni qarama-qarshi qo'yishdan iborat uslubiy qo'llanish bo'lib, yozuvchi O'tkir Hoshimov hikoyalari tahlili jarayonida ziddiyatga asoslangan badiiy nutqlarni aniqladik: *Moskva atrofi... Sokin kuz... Tiniq osmon...Kristaldek beg`ubor havo...Hozir eng yaxshi fasl. Pushkin aytganidek, "ma'yus va go`zal..."* (O'zbeklar 94-b). Bu so'zlar odatda bir-biriga antonim emas, ammo yozuvchining mahoratini qarangki, Pushkinning bir she'ri orqali kuz faslini ham ma'yus va ham go`zal ekanligini kontekstual antonimiyani hosil qila olgan. Ma'lumki, zidlash munosabati kontekstual-situativ xarakterda ham bo'ladi. Antonimik munosabat nutq situatsiyasida, ya'ni so'zlarni ma'lum kontekstda qo'llash orqali hosil bo'ladi. Bunday antonimlar kontekstual antonimlar deyiladi. Kontekstual antonimlar ko'pincha individual, ya'ni biror bir muallifga tegishli bo'ladi. Ba'zida mahoratli yozuvchilar qahramonlar ruhiyatidagi kontrastlikni bo'rttirib tasvirlash maqsadida

³⁹ Baydadayeva G. Okkazional antonimlarni vujudga keltiruvchi obyektiv va subyektiv omillar// O'ETA, 2010-y, 2-son, 92-b.

muayyan bir kontekstual sinonimik qatordagi bir necha soʻzni boshqa bir kontekstual sinonimik bir necha soʻzga birdaniga zidlantiradilar. Koʻpincha badiiy asarda kontekstual antonimlardan tasvirning taʼsirchanligini oshirish maqsadida qoʻllaydilar. Chunki unda lingvistik jihatdan noodatiylik kuchli boʻlib, taʼsir kuchi ularda odatdagilarga nisbatan kuchliroq boʻladi. Hikoyalarni tahlil qilish jarayonida quyidagi antonimlarni koʻrib, tahlil qildik.

*Oʻqimishli, oily maʼlumotli... “Madaniyat”lisining ahvoli shu boʻlsa, boshqalardan oʻpkalanmasa ham boʻladi... **Millioner-gadolar.**(Oʻsha kitob 99-b)* Bu gapdagi “millioner” va “gado” soʻzlari leksik jihatda bir-biriga qarshilantirilgan.

– *Nima-nima? – Koryagin ijirgʻanib labini burdi. – Qilgʻilikni sen qilgin-da, **kampir-xotining** oldida men javob beraymi?* (Oʻsha kitob 119-b). Bu gap ham leksik antonimlarga xos boʻlib, aslida kampir ayol kishining qarilik holatini anglatuvchi soʻz boʻlib, yozuvchi tasvir boʻyogʻini yanada taʼsirliroq qilish maqsadida, Koryagin tomonidan ayolni “**kampir**”ga oʻxshatib, badiiy matnda leksik antonimiyani hosil qilgan. Oʻquvchi ongida ayloning kampir qiyofasiga kelganligini anglash qiyin boʻlmaydi. Shuning uchun ham ikkala soʻz bir-biriga noodatiy tarzda qarshilantirilgan. Bu nutqiy parchada ikkala soʻz “yosh va qari” maʼnolari orqali zidlantirilgan.

Bunday zid maʼnolarni barqaror birikmalarda, yaʼni iboralar va maqollarda ham koʻplab uchratish mumkin. Yozuvchining tildan foydalanish mahoratini belgilashda badiiy nutq ifodaliligini qay darajada taʼminlay olganligiga eʼtibor qaratiladi. Buni zid maʼnoli soʻzlarni oʻz oʻrnida, muayyan estetik maqsad bilan qoʻllay olishidan ham aniqlasa boʻladi.

– *Oyning oʻn beshi qorongʻu boʻlsa, oʻn beshi yorugʻ boʻladi, uka. Mana koʻpi ketib, ozi qoldi. Qirqiga chidagan qirq birigayam chidaydi.* (Oʻsha kitob, 230-b).

– *Ey, nimasini aytasan, uka. – Domla mingʻilladi, - **kasalning kelishi oson, ketishi qiyin ekan-da.***

– *Shunaqa, domla, **kasallik botmonlab kelib, misqollab ketadi**, - Tursunboy uning gapini ma'qulladi...*

... – ***Kasallik filni pashsha qiladi**, deganlari bejiz emas ekan...* (O'sha kitob, 230-b). Demak, bu maqollarda (kasalning kelishi va ketishi, kasallikning botmonlab kelib misqollab ketishi, kasallik filni pashsha qilishi) ma'nolari biri biriga zidlantirilishi natijasida hikoyaning hajv jihatidan betakror bo'lishiga sababchi bo'lgan. Bunday antonimik munosabatdagi maqollarni hikoyaning ichiga olib kirib, undan yumoristik maqsadda foydalanish, yozuvchidan katta mahoratni talab qiladi.

Antonimlar ma'nosi (sememasi) strukturasida hamma vaqt umumiy sema bilan birga differensial sema ham bo'ladi. Xuddi ana shu sema o'zaro zid bo'ladi. Shunday ekan, ikki so'zning antonim yoki antonim emasligini faqat ularning semema strukturasini ochish (komponentli tahlil) asosidagina to'g'ri belgilash mumkin bo'ladi.

Xullas, antonimlar bir-biriga zid tushunchalar birligini ifoda etish bilan tilda stilistik vosita sifatida qo'llaniladi va badiiy ta'sirchanlikni oshirishga xizmat qiladi, badiiy nutq uslubining ravonligini ta'minlaydi.

2.2 O'tkir Hoshimov hikoyalarida barqaror birikmalarning qo'llanilishi

Iboralar.

Odatda, so'zlarning birikuvi tufayli so'z birikmasi hosil bo'ladi. Bu so'z birikmalarining ba'zilar erkin bo'lsa, ba'zilar turg'un (barqaror) bo'ladi. *Oyoq uchida* birikmasi kontekstdan anglashilgan ish-harakatning imi-jimida, yashirincha, maxfiy bajarilganligini bildiradi. Birikma tarkibidagi har bir so'z o'z mustaqil ma'nosini saqlamagan, shunga ko'ra bu tarkibidagi so'zlari (komponentlari) barqaror, bo'linmas bir semantik birlikni hosil qilgan turg'un birikmadir. Frazologik iboralar nutq ko'rinishlariga qarab turli xil vazifada qo'llaniladi. Ilmiy va rasmiy nutqda, ko'pincha nominativ funksiyani bajaradi⁴⁰. Ba'zi iboralarda qonun hujjatlari tiliga ixtisoslashish, terminlashish ham uchraydi. Bunday paytlarda frazema ma'nosida neytrallashish yuz beradi, uslubiy bo'yoq sustlashib, oxiri tushib qoladi⁴¹. Badiiy adabiyotda iboralardan foydalanish, qo'llash usullari turlichadir. Yozuvchilar tilimizda tayyor material hisoblangan iboralardan unumli foydalanibgina qolmay, o'zlari ham shular zahirida yangi iboralar yaratadilar. Bu jarayonda ular umumiy iborasi zahiridagi ma'noning yangicha talqinini ochish, iboraning leksik tarkibini o'zgartirish, uning semantik-stilistik funksiyalarini kengaytirish, iboraga yangicha majoziy va obrazli ma'nolar kiritish kabi usullardan foydalanadilar.

Tilshunoslikda frazeologizmlar tuzilishi, leksik-semantik, funksional-uslubiy va sintaktik vazifalari, shuningdek, o'ziga xos shakllanish xususiyatiga ega bo'lgan tilning mustaqil birligi sifatida allaqachonlar tan olingan. Ular leksikadan yuqori,

⁴⁰Shomaqsudov A., Rasulov I., Qo'ng'urov R., Rustamov H. O'zbek tili stilistikasi. Toshkent "O'qituvchi" 1983. 69-71-b.

⁴¹Jamolxonov H. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Toshkent. "Talqin" 2005. 217-218-b.

gapdan quyi sathdaturadigan til hodisasisifatida ham e'tirof etilgan⁴². Biz nutqimizning har tomonlama mukammal va o'ta tasirchan bo'lishiga, tinglovchi so'zlayotgan nutqimizning maqsad – muddaosini tezroq anglab olishiga ko'maklashadigan bir qancha tilning tayyor materiallaridan, ya'ni til birliklaridan juda ko'p foydalanishga harakat qilamiz. Maqol, matal, iboralarsiz nutq hech qanday estetik ta'sirchanlikka ega bo'lmay qolishi mumkin. Ayniqsa, iboralarda nutqqa emotsional-ekspressivlik ottenkasini berish vazifasi boshqa til birliklariga nisbatan kuchliroq bo'ladi. Iboralar barqaror birikmalar sifatida tilda doimiy tayyor materialdir. Shuning uchun ham har bir yozuvchi o'zining ijod mahsulini yaratish jarayonida ularga murojaat etmasdan qo'ymaydi..

Ibora ham tarkibli til birligi, lekin uning ma'nosi tarkibidagi leksemalarga xos ma'nolarning oddiy yig'indisiga teng bo'lmaydi. Iboraga xos ma'no tarkibidagi leksemalarning ma'nosiga nisbatan maxraj ma'no, ustama ma'no sifatida gavdalanadi, bu ma'no ibora tarkibidagi leksemalarning ma'nosiga suyanmasligi ham mumkin⁴³. Ma'lumki, voqelikni obrazli tasvirlashda, uni kitobxon ko'zi o'ngida aniq va to'la gavdalantirishda frazeologik iboralarning o'rni, ahamiyati beqiyosdir. Iboralar hayotdagi voqea-hodisalarni kuzatish, jamiyatdagi ijobiy va salbiy harakat-holatlarni baholash, turmushda bo'lib o'tadigan turli hayotiy tajribalarni umulashtirish asosida xalq chiqargan xulosalarning o'ziga xos obrazli ifodalaridir. Frazeologizm til hodisasi sifatida lison va nutqqa daxldor birlikdir. Birdan ortiq leksema ko'rinishining birikuvidan tashkil topib, obrazli ma'noviy tabiatga ega bo'lgan lisoniy birlik frazeologizm deyiladi.

El sevgan adib O'tkir Hoshimov hajviy hikoya yaratish jarayonida iboralarga juda ko'p o'rinlarda murojaat etgan. Masalan:

*1.Nortoy deng, bir ko'zida sal aybi bo'lsayam xo'p **ishning ko'zini biladigan** odamda!..(“Osh”) Karnay tagiga o'tirib qolgan ekan, mikrofonni*

⁴² Jumanazarova G. “Aql” uzvli iboralar. O'zbek tili va adabiyoti, 2012. 2-son 93-b.

⁴³ Rahmatullayev Sh. O'zbek tilining frazeologik lug'ati. Toshkent. 1991-yil, 4-b.

og`ziga tiqib baqirayotgan hofizning chiyildoq ovozi u qulog`idan kirib, bu qulog`idan kirib teshib chiqib ketdi-yov! ("Osh")

Yozuvchilar odatda tasvir maqsadiga muvofiq iboralarni tanlab qo'llash bilangina kifoyalanib qolmaydilar. Balki, qahramonlar tabiati, ruhiy holati, hayot tarziga moslab o'zgartiradi va qayta ishlaydi⁴⁴. Darhaqiqat, yozuvchi o'zi yaratayotgan qahramonning o'ziga xos xarakter-xususiyatlarini ochib berish jarayonida, tabiatan qanday shaxs ekanligini to'liqroq tasvirlashda iboralardan foydalanadi. O'tkir Hoshimov ham hajviy hikoyalarining bir qancha o'rinlarida qahramonlarning oiladagi, kollektivdagi va ba'zan ko'cha-ko'ydagi yurish-turishini, ijobiy va salbiy tomonlarini bo'rttiribroq, ayniqsa, kulgiga moyilroq qilib aks ettirish maqsadida qo'llagan. Ayniqsa, yozuvchi insonning tana a'zolari bilan bog'liq bo'lgan iboralarni qo'llab, yuqori saviyadagi hikoyalarni yaratishga muvaffaq bo'lgan. Masalan:

1. *Soat ikkilarga yaqin ko`zi ilindi.*

2. *U qoshini chimirdi.*

3. *Yuragim taka-puka bo`lib kirsam, direktor tajang bo`lib turgan ekan. ("Osh").*

1. *"Go`rbannisa"ning navbatchi do`xtiri yosh bo`lsa ham ko`zi pishib ketgan ekan.*

2. *O`pkam og`zimga tiqilgudek yo`tal tutdi ("Ko`kyo`tal")*

1. *Og`zingga qarab gapir, uka.*

2. – *Yo`qol-e! – qichqirdi domla ko`zini ola-kula qilib ("Usta ko`rgan shogird")* Yuqoridagi misollardan ko`rinib turibdiki, insonning tana a'zolari bilan bog'liq bo'lgan iboralar hayotda juda ko'p qo'llaniladi. Bunday birikmalarni badiiy asar tarkibiga qay yo`sinda kiritish esa, yozuvchining so`z qo'llash mahoratiga bog'liq. Shu tariqa xalq iboralari sayqallanib, yangi ma'no nozikliklari bilan to'yinib boradi. Xalq iboralarini qayta ishlashning usullari, ularga yangicha rang va tus, yangicha ma'no talqini berishning yo'llari juda xilma-xildir. Bunga

⁴⁴ Yo`ldoshev.M . Badiiy matn va uning lingvopoetik tahlili asoslari. Toshkent, "Fan" 2006.

“umutil iborasi zamiridagi ma’noning yangicha talqinini ochish iboraning leksik tarkibini o’zgartirish va uning semantik-stilistik funksiyalarini kengaytirish iboraga yangicha majoziy va obrazli ma’nolarni kiritish kabi usullarni kiritish mumkin”.Frazeologik iboralarni qayta ishlashning turli usullarini tilshunos olim B. Yo’ldoshev keng tadqiq qilgan. Iboraning semantik tarkibida frazeologik ma’nodan tashqari, uslubiy bo’yoq ham mavjud bo’ladi. Salbiy yoki ijobiy baho semalari, odatda iboralarning mazmun planida bo’rtib turadi, bu omil iboralardan nutqiy ta’sirchanlikni ta’minlovchi uslubiy vosita sifatida foydalanish imkonini beradi, ayniqsa, badiiy asar tilida bunday birliklarning roli katta bo’ladi.

Ma’lumki, frazeologizm lug’aviy birlik bo’lganligidan u nutq jarayonida gap tarkibida kelganda bir mustaqil so’z, so’z birikmasi, gap tarzida harakat qiladi. Shu boisdan, agar yozuvchi yuqoridagi ***ko’zi ilindi, yuragim taka-puka bo’lib kirsam, ko’zi pishib ketgan, og’zingga qarab gapir*** kabi iboralarning o’rnida ***uxlamoq, hayajonlanmoq, o’ylab gapirmoq*** kabi jummalarni qo’llanganida edi, hikoyalarning badiiy estetik qimmati bunchalik oshmagan bo’lar edi. Va yozuvchi o’z oldiga qo’ygan maqsadiga ham yeta olmagan bo’lar edi.

Badiiy asarda sinonim so’z va sinonim iboralardan foydalanishda, ular anglatadigan ma’no farqlari va emotsional-ekspressiv belgi xususiyatlari hisobga olinadi. Chunki qo’llanayotgan har bir sinonim so’z va sinonim ibora o’z ma’no nozikliklari bilan bir-biridan farqlanib, ulardan o’rinli foydalanish ifoda etilayotgan fikrning aniq va ravon bo’lishiga xizmat qiladi. Bir frazeologik sinonimiya qatorini tashkil etgan iboralar bir-biridan o’zlari ifodalagan ma’no qirralari, uslubiy bo’yoqdorligi, konnatativ ma’nosi, ta’sirchanlik va obrazlilik darajasiga ko’ra bir-biridan farq qiladi.

Shuningdek, yozuvchining qanchalik ko’p sinonimlardan foydalanish mahorati uning til boyligining xilma-xil ekanligidan dalolat beradi. Yuqoridagi misollarda qo’llangan iboralar sinonim bo’lsa-da, ular o’z ma’no nozikliklari bilan bir-biridan farq qiladi. Hozirgi o’zbek tilida leksik sinonimlar bilan bir qatorda leksik- frazeologik va frazeologik sinonimlar mavjud bo’lib, ular badiiy uslub namunalarida keng qo’llaniladi, jumladan biz kuzatish olib borayotgan adib ijodida

ham bu holat kuzatiladi. Ma'lumki so'zlar va iboralar o'rtasidagi sinonimik munosabat leksik-frazeologik sinonimlar hisoblanadi. Nutqimizda qo'llaydigan iboralar ham bir-biri bilan o'zaro sinonimik munosabatga kirishib, frazeologik sinonimiya qatorini hosil qiladi.

Bu iboralarning barchasi ishning ko'zini biladigan odamlarga nisbatan qo'llanilgan so'z birikmalari haqidadir. Bunda **“ko'zi pishib ketgan”** iborasi **“suv qilib ichib yuborgan”** iborasiga qaraganda ma'no darajasining kuchliligi, ifodaliligi jihatidan farq qilsa, **“hadisini olgan”** iborasi sinonimik qatordagi har ikkala iboradan ham obrazliligi bilan farq qiladi. Yozuvchi kuchsizroq va kuchliroq ma'no anglatuvchi iboralarni qo'llash orqali so'z qo'llash san'atini namoyish qilgan. Ko'rinib turganidek, sinonim iboralardan foydalanishdagi keng imkoniyat yozuvchi qalamining o'tkirligidan dalolat beradi.

Frazeologik sinonimlarning deyarli barchasi ko'chma ma'noda qo'llanuvchi obrazli iboralar bo'lib, ular asarda muallif nutqining rang-barang bo'lishini ta'minlaydi. Bunday iboralarni ishlatish personaj nutqiga tavsif berishda eng faol qo'llanadigan vositalardan biri sanaladi. Tildagi frazeologik sinonimlardan asarda to'g'ri qo'llay bilish kishi nutqi uchun katta imkoniyatlar yaratadi. Buning natijasida kishilar o'zlarining fikr va g'oyalarini eng nozik ma'no xususiyatlarini tushunarli va aniq, shirali, obrazli va ta'sirchan qilib ifodalashga muyassar bo'ladilar.

Umuman, yozuvchi O'tkir Hoshimovning hikoyalarida, ayniqsa, “Usta ko'rgan shogird”, “Ko'kyotal”, “Osh” kabi hikoyalarida leksik birliklar yozuvchi uslubining o'ziga xosligini ta'minlaydi va bu so'z qo'llash xususiyatlariga, yangi tasvirlar hosil qilish jihatidan o'ziga xoslikni tashkil qiladiki, bu holat boshqa asarlarda kuzatilmaydi.

Maqollar

O'zbek adabiyoti tarixi bevosita folklor bilan bog'liqligi uchun barcha adabiyot namoyondalari undan ilhomlanib, o'lmas asarlar yaratishgan va unda o'zlarining yuksak, umumbashariy fikrlarini bayon etishgan⁴⁵.

Til – ijtimoiy hodisa sifatida doimo rivojlanishda va o'rganishda davom etib keladi. Hayotning hech bir jabhasi yo'qki, tilning barcha sathlaridan, til birliklaridan, tilning tayyor materiallari bo'lgan ibora, maqol, masal, hikmatli so'zlar va topishmoqlardan keng foydalanmasak. Bunday til materiallaridan badiiy adabiyotimizda ham keng va samarali foydalanib kelinmoqda. Ulardan ba'zida maqsad-muddaoni tez va ravon aniqlashda, ba'zida nutqning ta'sirchanligini oshirishda, qahramonlar nutqini boyitishda keng foydalaniladi. Chunki maqollarda fikr tugalligi, ixchamlik, mazmuniylik va ta'sirchanlik boshqa nutq vositalariga nisbatan kuchli bo'ladi.

Maqollar - grammatik jihatdan tugallangan fikrni bildiruvchi, kichik, ixcham, o'tkir mazmunli, ko'chma ma'noda yoki ham ko'chma ma'noda, ham o'z ma'nosida qo'llanadigan hikmatli xalq iboralaridir.

Ma'rufjon Yo'ldoshevning fikricha, maqollarda fikrni lo'nda va tiniq ifodalash imkoniyatining mavjudligi nutqning ta'sirchanligini ta'minlashda juda qo'l keladi. Badiiy asarning xalqchilligini, haqqoniy-ligini, ta'minlashda ham maqollarga murojaat qilinadi. Olim o'z fikrini davom ettirar ekan, shunday deydi: Qahramonlar nutqini boyitish, emotsional-ekspressivlikka erishish maqsadida ham maqollardan foydalaniladi. ***Yaxshining so'zi – qaymoq, yomonning so'zi – to'qmoq, eshikli bo'lding – beshikli bo'lding, chumchuq so'ysa ham, qassob so'ysin, hamal keldi – amal keldi*** kabi obrazli va yaxlit barqaror birikmalar maqol hisoblanadi.

Xalq og'zaki ijodining qadimgi janri bo'lgan maqollardan O'tkir Hoshimov “**Usta ko'rgan shogird**” nomli hajviy hikoyasida mohirona foydalanib, hikoyada o'tkir yumoristik ruh yarata olgan. Hikoya muallif tilidan bayon qilingan bo'lib, asardagi maqollar hikoya personajlari, ya'ni “**usta**” va “**shogird**” o'rtasidagi

⁴⁵Shukurova Z. “Qissasi Rabg'uziy” da maqollar. O'zbek tili va adabiyoti. 2012-y, 2-son 97-b.

o`zaro suhbat jarayonida bo`lib o`tadi. Ular har bir suhbat jarayonida, suhbat mavzusiga muvofiq holda maqollardan juda ko`p foydalanishadi. Muallif buning asosiy sababini hikoyada quyidagicha izohlaydi: “Domla Obodiy bir zamonlar **“Xalq og`zaki ijodida maqol – matallar ishlatish”** degan mavzuda dissertatsiya yoqlagan, ikki gapning birida maqol ishlatmasa turolmasdi...

- Endi uka, **olim bo`lsang, olam seniki**, - dedi birdan sansirashga o`tib.
– Bu yog`ini yaxshi o`ylabsan. Shundoqku, lekin **ilm nina bilan quduq qazishday gap – da”**.

Xalqimizda bir gap bor: “Har narsaning me`yorida bo`lgani yaxshi”. Bu hikmat soz san`ati bo`lmish badiiy adabiyotga ham daxldordir. Bu daxldorlik badiiy adabiyotda katta ahamiyatga ega. Chunki shu me`yorgina yaratilayotgan badiiy asarning yaxshi yoki yomon saviyada ekanligini belgilab beruvchi asosiy omil hisoblanadi. Lekin bu hikoyada maqollarning ishtiroki me`yordan oshgan bo`lsa ham, bu hikoyaning mazmun ko`lamini yanada boyitishga xizmat qilgan. Har bir personajning nutqidagi maqollar o`quvchida ajoyib bir emotsiya ya`ni kulgu uyg`otadi. Ko`chma ma`noda keltirilgan bunday maqollar hikoyaga emotsional-ekspressivlik ottenkasini bera olgan. Masalan quyidagi jumlag e`tibor qarataylik:

- **Dard bir tikilsa qo`ymaydi, deganlari to`g`riga o`xshaydi. Ahvolingiz chatoq, domla. Sog` tanda sog`lom aql deyдилar. Mazangiz qochgandan beri o`ziyam... Bir oyog`ingiz to`rda, bir oyog`ingiz...**

- **Nafasingni issiq qil-e! – Domla o`rnidan turib ketdi. – Dard boshqa, ajal boshqa. Shuniyam bilmaysanmi, galvars!**

Tursunboy pinagini buzmadi.

- **Endi domla, to`g`ri gap tuqqaningga yoqmas ekanda, dedi bidirlab. – o`ylamay yegan, og`rimay o`lar, deganlari to`ppa –to`g`ri. Bu yog`i yaqinlashib qolganga o`xshaydi o`zi... (230-b).**

Maqollarga bunday yondashuv Abdulla Qahhor hikoyalarining ba`zi bir qismlarida uchraydi. Lekin til birligi maqollarga o`zidagi funksiyadan tashqari, yana ko`chma ma`no, tag ma`no, kinoya, kesatish, piching kabi vazifalarni yuklab,

badiiy adabiyotda o`ziga xos bir yangilikni O`tkir Hoshimov mana shu hikoya orqali yarata olgan. Chunki hikoyada deyarli 40 tadan ortiq maqol qo`llanilgan bo`lib, ularning barchasi ham, maqollarning ommaviy xususiyati ya`ni ta`lim-tarbiya vositasi sifatida emas, balki “ kosa tagida nim kosa” qabilidagi maqollar ma`nosi ostida yashiringan. Bu holatni biz yuqoridagi parchada ko`rib o`tdik. Hikoyadagi maqollarning deyarli barchasi ko`chma ma`noda qo`llanilgan.

- ***Shunaqayu domlajon, qolgan ishga qor yog`ar degan gap ham bor. Bu yog`i tuya go`shti yegandek juda cho`zilib ketdi o`zi...***

- ***Oyning o`n beshi qorong`u bo`lsa, o`n beshi yorug` bo`ladi, uka. Mana ko`pi ketib ozi qoldi. Qirqiga chidagan, qirq birigayam chidash kerak-da!*** (230-b)

Yuqorida aytib o`tilganidek, maqol fikr mohiyatini aniq va ixcham ifodalaydi. U qanchalik ko`p ishlatilishiga qarab emas, qanday ishlatilishiga, o`rinli qo`llanilishiga qarab ta`sir ko`rsatadi. Lekin bu hikoya yuqoridagi fikrning butunlay aksi. *Assalomu alaykum, domla! – dedi Tursunboy yangicha shiddat bilan. – Nima yana **burga tepdimi**?!*

- *Ey, nimasini aytasan, uka. – Domla ming`illadi, - **kasalning kelishi oson, ketishi qiyin ekan-da.** – Shunaqa, domla, **kasallik botmonlab kelib, misqollab ketadi.** – Tursunboy uning gapini ma`qulladi. – **Rang ko`r-hol so`r** deganlar. Qirq kun yerga yopishib yotgan odamday rangingiz tamom bo`pti o`zi?!*

- *Shunaqa deysizu domla, **dard kelganda darmon ketarkan-da,** - dedi Tursunboy salmoqlanib. – **Kasallik filni pashsha qiladi,** deganlari bejiz emas ekan.*

Bu nutqiy parchada maqollar orqali sinonimik qator hosil qilingan va yozuvchi bunday so`z o`yinini san`atkorlik bilan hikoyada aks ettira olgan. Chunki ularning barchasida kasal bo`lish bilan bog`liq bo`lgan maqollar ishtirok etgan. Yozuvchining maqsadi, hikoyaning asosiy mazmunini maqollar orqali ochib berishda bo`lgan. Va mana shu maqsadni amalga oshirish uchun maqollar asosiy vazifani bajarib, original tarzidagi hikoya yaratilishiga sabab bo`lgan.

2.3 O`tkir Hoshimov hikoyalarida chegaralangan qatlam leksikasi.

Bu qatlarga oid leksika qo`llash doirasining chegaralanish xarakteriga ko`ra uch turga bo`linadi. Bular:

- 1) dialektal leksika;

2) terminologik leksika;

3) jargon va argolar.

Shundan kelib chiqqan holda biz shevalarni ya'ni dialektizmlarni ko'rib chiqamiz va u adib asarlarida qay tarzda qo'llanilganini o'rganamiz.

Dialektizmlar

Ma'lum bir hududda, territoriyada yashovchi kishilar nutqiga xos bo'lgan adabiy til leksikaga kirmaydigan so'zlar dialektal leksikani tashkil etadi. Ma'lum dialekt va sheva vakillarigagina qo'llaydigan bunday so'zlar **dialektizmlar** deb yuritiladi.⁴⁶

O'zbek tilining dialektal qatlami nihoyatda murakkab va rang-barang bo'lib, u o'z ichiga bir qancha sheva va dialektlarni oladi.

Bu sheva va dialektlarning har biri o'ziga xos fonetik, leksik-grammatik xususiyatlari bilan adabiy tildan, shuningdek, o'zaro farqlanadi.⁴⁷

Dialektizmlarning adabiy tildan farqi avvalo, so'zning talaffuzida ko'rinadi. Masalan:

Gurgut-gugurt, bala-bola, yuzum-uzum, vig`namoq-yig`moq, buginmoq-bekinmoq, chig`di-chiqdi kabi.

Badiiy adabiyotda mahalliylikni berish, personajlar nutqini individallashtirish uchun dialektizmlardan foydalaniladi. Lekin bunday qo'llash bilan dialektal so'zlar adabiy tilga oid bo'lib qolmaydi.

- Hali ***uxlamovmiding?*** – dedi u zinadan enkayib chiqayotganida surilib ketgan ro'molini qayta o`rab.(12-b)

- Hozir qo`y suti ***qatta?*** – dedi Xadicha. – Sigir suti otliqqa yo`g`u... (13-b)

- Shoir ***ma`liming*** Magadanda! – dedi qo`lini paxsa qilib. – U ***ma`lim*** emas. Xalq dushmani! Antisovet shoirlarning ***shig`irini*** o`qigan! Mutaasib! Dindor! Ma`limingni sog`ingan bo`lsang, otangga ayt: ikkalangni ma`limingni oldiga

⁴⁶ Jamolxonov X. "Hozirgi o'zbek adabiy tili". Toshkent. "Talqin". 2005. 127-128-betlar.

⁴⁷ Shomaqsudov A., Rasulov I., Qo'ng'urov R., Rustamov X. O'zbek tili stilistikasi. Toshkent. "O'qituvchi" 1983. 56-58-betlar.

jo`natamiz! (131-b).

Ko`rib o`tganimiz bu gaplarda affiksalar va leksik usullar bilan shevalar hosil qilingan. **“Uxlamovmiding”** so`zi grammatik shaklda, **“qatta”**, **“ma`lim”**, hamda **“shig`ir”** so`zlari **“qayerda, muallim, she`r”** so`zlarining dialektal variantidir. Bundan tashqari adabiy tilga nisbatan dialektlarning lug`at sostavi birmuncha o`zgacharoqdir. Chunonchi, mahalliy dialektlar lug`atida fan, san`at va murakkab texnikaga oid maxsus terminlar kam, deyarli yo`q bo`ladi, dialektlardagi ba`zi so`zlar esa adabiy tilda butunlay bo`lmasligi mumkin. Bunday so`zlar shu sheva vakillari nutqida ishlatiladi.

O`zbek shevalari lug`atida yana shunday so`zlar uchraydiki, bular adabiy tilda boshqa so`z bilan ifodalanadi. Mahalliy kaloritni berish zaruriyati bilan qo`llangan bunday dialektizmlarning qavs ichida adabiy tildagi variantini berish maqsadga muvofiqdir.

*Men choyxonada bo`laman. Men choyxonada bo`laman. Yo peshinga dimlama-pimlama organizavat **qipqo`yaymi?** (204-b).*

*Xafa bo`lmaysizku, sizning pocherkingiz “annaqaroq” ekan, yozguncha qon **bo`pketdim**, shundayam ikki yuz ellikka ko`ngan edim, uch yuz betni ikki yuz ellikka ko`paytirsan qancha bo`ladi?” (232-b).*

Adabiy tilning ayrim dialektlar lug`aviy birliklari hisobiga boyib borishi tillar taraqqiyotida qonuniy bir holatdir. Hozirgi adabiy nutq lug`atning katta bir qismi ham aslida dialektlarga xos deb qaralishining sababi bunday lug`aviy birliklarning umumlashib ketganligidadir.⁴⁸

Dialektizmlarni quyidagi holatlarda adabiy nutqqa olib kirish mumkin: agar u yoki bu mahalliy tushuncha umumnutq qatlamda aniq nomga ega bo`lmasa yoki uning shevadagi atamasi leksik ma`no ottenkasi bilan stilistik bo`yog`i bilan umumtildagi so`zdan farqlanib tursa, uning adabiy nutqqa kirishi to`g`ridir.

*Payshanba kuni Komil **tayib**ning uyiga boruvdim. Har kuni nahorga bir kosadan sigir suti ichsa, dard ko`rmaganday bo`lib ketadi, dedi. (13-b)*

⁴⁸ U.Tursunov, J.Muxtorov. Sh.Rahmatullayev. “Hozirgi o`zbek adabiy tili”, “O`qituvchi” nashriyoti, Toshkent, 1965, 158-bet.

Biror dialektal soʻzning adabiy nutqqa koʻchish hodisasi bilan dialektal soʻzlarning badiiy asarda ishlatilishi hodisasini bir-biridan farqlash zarur. Yozuvchilar oʻz asarlaridahayotning realistik tasvirini chizish, mahalliy kaloritni berish, personajlar nutqini individuallashtirishda yoki biron tushunchaning shevadagi atamasi kitobxonga ahamiyatli boʻlgan holatning maʼlum mahalliy belgisini bildirsagina dialektal soʻzlardan foydalanishlari mumkin.

Har qanday adabiy tilning taraqqiyoti, boyishi adabiy til bilan shevalar oʻrtasidagi munosabatlarning bir-biriga taʼsir qilish darajasiga bogʻliq. Shuning uchun dialektizmlarning badiiy asarda qoʻllanishi hamda ularning adabiy tilga oʻtish oʻtmasligini konkret tarixiy sharoitlarga koʻra izohlash zarur.

– ***Maylslaringam ja choʻzildi-da, Ochilboy!***

Ochil burilib qaradi-yu, oʻzi tomon loʻmbillab kelayotgan bosh duradgor Haydar akani koʻrdi. (“Tasodif” 18-b)

Yozuvchilar oʻz asarlarida sheva soʻzlardan foydalanishga asosiy sabab, oʻsha personaj yoki obrazning qanday xarakterga ega ekanligini, qaysi voqea farzandi ekanligini aniq, tiniq bilib olsa boʻladi. Bu ham asar qimmatini yanada oshiradi. Asar qahramonlari shu xususiyati bilan oʻquvchi yodidan hech qachon koʻtarilmaydi. Badiiy matnni lisoniy tahlil qilish jarayonida yozuvchining tildan foydalanish mahoratini namoyon etadigan, emotsional – ekspressiv ifoda semalari qabariq holda reallashgan leksik birliklarni aniqlash va ular adibning badiiy –estetik maqsadiga qay darajada xizmat qilgani haqida mulohaza yuritish talab qilinadi. Buning uchun badiiy asar tilidagi maʼnodosh, shakldosh, zid maʼnoli, koʻp maʼnoli, tarixiy va arxaik soʻzlar, yangi yasalmalar, shevaga oid soʻzlar, chet va vulgar soʻzlar ajratib olinadi va asarga nima maqsad bilan olib kirilganligi izohlanadi.⁴⁹

Yozuvchilar oʻz qahramonlarini oʻzlari yashaydigan hudud va muhitdan ayirmagan holda, hayotdagidek ishonarli va jonli tasvirlash ehtiyojidan kelib

chiqib shevaga xos soʻzlarni ishlatadi. Sheva soʻzlari mahalliy kolorit, hududiy mansublikni oʻzida aniq aks ettirish bilan birga badiiy nutqda muayyan estetik funksiyani bajaradi. Biroq dialektizmlarning estetik qimmat kasb etishi ularning badiiy nutqdagi meʼyori, qanday ishlatilishi va ayni paytda qanday dialektizmlarning qoʻllanishi bilan bogʻliqdir⁵⁰.

Bahodir aka tipirchilab qoldi.

– **Boshpurtim** yoʻq-ku! – dedi xavotirlanib. – *Haligina yonimda edi.*
(“Oʻzbekning soddasi” 118-b)

Dialektizmlar asar tilining jozibadorligi, qahramonlar nutqining oʻziga xosligi, tasvirlanayotgan voqea-hodisalarning qaysi hududda kechayotganligi haqida maʼlumot beradi. Dialektizmlar ayrim sabablarga koʻra va maʼlum maqsadni koʻzlab badiiy til tarkibida qoʻllaniladigan, unda maʼlum bir vazifani bajaradigan alohida biror dialekt va mahalliy shevalarning fonetik, morfologik, leksik va sintaktik xususiyatlarini oʻzida aks ettiradigan soʻz va soʻz birikmalaridir.⁵¹

Ishga undan oldin borib turadi. “Chaqqon-chaqqon qimirlaydu, Hmidullaxon! Hli zamon lagʻmonxoʻrlar klidoʻ”. (57-b)

– *Keldingizmoʻ, Hmidullaxon. Chaqqon-chaqqon qimirlaydoʻ...*

- *Hmidullaxon uka, buyoqqa qarang, siznu bir odam chaqrvatidoʻ, Vayenniy odam...(63-b)*

Dialektal soʻzning badiiy matnga olib kirilishi yozuvchidan katta mahorat talab qiladi. Oʻtkir Hoshimovning ushbu hikoyasida ham dialektizmlar oʻziga xos tarzda ifoda etilgan. Yozuvchi oʻz asarining badiiy ifodaliligi va taʼsirchanligini oshirishda shevaga xos soʻzlardan ustalik bilan foydalangan.

Kasb-hunarga oid terminlar.

⁵⁰ Yoʻldoshev M. Badiiy matn va uning lingvopoetik tahlili asoslari. Toshkent, 2007 yil. 58-59 - betlar.

⁵¹ Xudoyqulova Sh. E.Vohidov sheʼriyatida dialektizmlar. // Oʻzbek tilshunosligining dolzarb masalalari. Ilmiy maqolalar toʻplami. -№2. -T.:TDPU, 2008. -B.98-99.

Lugʻat tarkibidagi soʻzlar ishlatilishiga koʻra ikki xil boʻladi: aktiv yaʼni (faol) soʻzlar va passiv (nafaol) soʻzlar. Kundalik turmushda qoʻllanilishi odat boʻlib qolgan, yangi xususiyatlari ham boʻlmagan soʻzlar faol soʻzlar deb yuritiladi. Soʻzlarning aktivligi umumiy til doirasida boʻlishi bilan birga biror kasb sohasida ham boʻladi. Tildagi nafaol soʻzlar hayotdagi yangiliklarni yoki eskirib qolga tushunchalarni anglatgani uchun turli oʻzgarishlarni aks ettirib turadi. Leksikalogiya esa tilning lugʻat tarkibini guruhlariga va qatorlarga boʻlib oʻrganadi. Qoʻllanilishi maʼlum bir hudud bilan chegaralangan soʻzlar dialektizmlar deb ataladi va ular ham alohida guruhni tashkil qiladi. Lugʻat tarkibidagi fan va texnika sohalarida ishlatiluvchi soʻzlar terminlar, ularni oʻrganuvchi soha terminologiya deb ataladi. Terminlar nutqda qoʻllanganda esa ekspressiv boʻyoqqa ega boʻlmaydi.

Tilning lugʻat tarkibidagi soʻzlar asosan quyidagilarga boʻlinadi:

- umumxalq ishlatadigan soʻzlar;
- shevalarga xos soʻzlar (dialektizmlar);
- kasb-hunarga oid soʻzlar (terminologik yoki professional leksika);
- eskirgan soʻzlar (istorizm va arxaizm);
- neologizmlar
- jargon va argotika;
- ekspressiv-stilistik leksika.

Albatta, har qanday badiiy asarda tilning kommunikativ vazifasi ham reallashadi, ammo estetik vazifa birinchi oʻrinda turadi, yetakchilik qiladi. Shuning uchun ham lingvistik adabiyotlarda buholatga mana bu tarzda alohida urgʻu beriladi: “Badiiy matn har qanday nobadiiy matndan farqli oʻlaroq alohida vazifani – kommunikativ vazifa bilan murakkab oʻzaro aloqadorlikda namoyon boʻluvchi va matnning oʻziga xos qurilishida hal qiluvchi omil hisoblanuvchi estetik vazifani bajaradi”. Shu oʻrinda alohida taʼkidlab oʻtish kerakki, tilning bu oʻziga xos estetik vazifasini namoyon boʻladigan soha faqat badiiy asar matnidir, undan boshqa biror bir nutq koʻrinishida til oʻzining bu vazifasini reallashtira olmaydi. Lekin bu fikrlarga ham bir qancha eʼtirozli fikrlar ilmiy adabiyotlarda uchraydi.

Kasb-hunar leksikasi ijtimoiy mehnatning u yoki bu turiga, ishlab chiqarish, ilm-fan, adabiyot-san'at va hokazo sohalariga oid narsa-hodisa hamda tushuncha nomlaridir. Kasb-hunar leksikasi (professionalizmlar), asosan, muayyan sohaga oid og'zaki va yozma matnlarda faol qo'llanadi, umumtil doirasida esa ular ancha passiv bo'ladi. Bunday qatlam leksemalarining ishlatilish doirasidagi chegaralanish shu bilan belgilanadi⁵². O'tkir Hoshimov hikoyalarda ham qahramonlarning kasbiy atamalaridan o'z o'rnida foydalanish hollari uchrab turadi. "O'zbek ishi" hikoyasida rus millatiga mansub tergovchi va o'zbek yigiti Berdiyev suhbatida shunday so'zlar bor:

- Nima bu Berdiyev? – dedi oynani shosh-pisha ko'tarib.

- **Defoliant...** - berdiyev yo'ldan ko'z uzmay borarkan, tushuntirdi. – **Butifos** sepmasa, g'o'zaning bargi to'kilmaydi. (94-b)

"**Defoliant**" va "**butifos**" paxta o'simligi uchun kerakli bo'lgan mineral og'itlar. Hikoya aynan paxta ishiga bag'ishlanganligi uchun u bilan bog'liq bo'lgan atamalar hikoyada keltirilgan. Unda ham ma'lum bir maqsad ko'zlangan.

Barakka o'xshash uzun palata... Ikki qator temir karavotlar. To'shaklar... Oq choyshablar... Kulrang adyollar. Bir-biriga o'xshash qiyofalar... Hammasi yosh, hammasi rangpar... Dori isi... "Bannisa" isi... Pastak derazadan tushayotgan xira nur...

...Hayajonli hayqiriq yangradi: - Kordimin! Sestra, kordiamin! (65)

Tashvish qilmang, kennoyi! – dedi xotinimga. – Okam ko'k yo'tal bo'ptila. Ta-a-ak, palatada joy yo'q, ammo okamizni qabul qilamiz! Karidorga kushetka qo'yib beramiz. Yaxshi odamlarga o'xshaysizlar... Taa-ak, yozib oling, kennoyi! Bo'lmasa esizdan chiqib ketadi. – Shunday deb tortmadan qog'oz-qalam olib, xotinimga tutqazdi. – osma ukolga sistema. Oltita, nu dapustem o'nta. Shpris-o'ttizta. Hozircha yetadi. Yetmasa, yana etamiz. Nikotinka, baralgin, ateeif bular ampulada. Ta-a-ak, tabletkalar. Analgin, yo', yaxshisi anaprilin, effekti kuchli.

⁵²Jamolxonov X. "Hozirgi o'zbek adabiy tili". Toshkent. "Talqin". 2005. 201-bet.

Sulfademetoksin. Raunatin. Okamda davleniye bor ekan. Demidrol yoki tazepam ham bo`laveradi...(227-b)

Ko`rinib turibdiki, bu parchada shifoxonadagi muhitni aynan keltirish maqsadida, tibbiyotga oid terminologiyadan foydalanilgan. Bu atamalardan foydalanish natijasida tasvir obyekti yanada kuchliroq namoyon bo`ladi.

Bu ikkinchi nutqiy parchada sheva so`zlar, kasb-hunarga oid leksemalar, fonografik hodisalar, mantiqiy urg`u kabi bir qancha vositalardan foydalanilgan.

Kasb-hunar leksikasidan badiiy asar tilida ma`lum uslubiy maqsadlarda foydalanish holatlari ham uchraydi.

JARGOTIZM

Qo`llanish doirasi chegaralangan leksikaning uchinchi turi bu jargon, argo, varvarizmlar, vulgarizmlar hisoblanadi. Mahalliy territorial dialektlarning so`zlari (sheva so`zlari) dialektizmlar sanalsa, sinfiy dialektning so`zlari jargonlar deyiladi. Jargonlar sinfiy ayirmalikni ko`rsatib beradigan yuqori tabaqa vakillari uchun tushunarli bo`lgan so`z va iboralardir.

Jargonlar o`zbek tilining o`z so`zlaridan ba`zan boshqa tillardan (arab va tojik tillardan) olinib qo`llangan so`zlardir.

Bunday so`zlar umumxalq tilidan farq qilib biror ijtimoiy guruh o`rtasida yaratilgan va ularning talablarini ifodalovchi maxsus so`z va iboralarga jargon so`zlar deyiladi. Jargon fransuz tilidan olingan bo`lib, “buzilgan til” ma`nosini anglatadi.

Jargonlarning eng xarakterli belgisi o`zaro so`zlashuvda fikrni boshqalardan maxfiy, sir tutishdir. Shunga ko`ra jargonlarning yaratilish yo`llari ham ko`pincha tilning so`z yasash sistemasiga to`g`ri kelmaydi. Ular o`ziga xos sun`iy shartli

soʻzlardir. Jargonlar koʻpincha tildagi soʻzlarning tovush tomonini oʻzgartirish, buzib qoʻllash, boshqa tillardan soʻz oʻzlashtirish va tildagi mavjud soʻzlarga maxsus maʼno berish yoʻli bilan hosil qilinadi.

Jargonlarning biror guruh yoki tabaqa doirasida paydo boʻlishiga qarab ikkiga ajratish mumkin: **professional jargonlar va ijtimoiy jargonlar.**

Professional yaʼni kasbiy jargonlarga biror kasb-hunar kishilari orasida ishlatiladigan maxsus soʻz va iboralar kiradi. Bu xil jargonlarning paydo boʻlishi, odatda ishlab chiqarish, ixtisosi, mehnatning umumiy sharoiti va baʼzan turmush-madaniyat tarzlari bilan ham bogʻliq boʻladi. Professional jargonlar ijtimoiy jargonlardan manfiy (nomaqbul) maʼno ifoda qilishi va baʼzan vulgar xarakterga ega boʻlishi bilan farqlanadi.

*Bahodir aka uzum koʻtarib kirdi. – Qani, mehmonlar, - dedi iljayib. – **Jinday-jinday** olaylik bundoq. Bugun bayram... (Ichimlik maʼnosida)(112-b)*

*Majlisda Ochilni rosa “**doʻpposlashdi**”. (Muhokama qilishdi maʼnosida)*

Jargon umumxalq tilidan maxsus leksikasi va frazeologiyasi hamda yasovchi vositalarining oʻziga xos tarzda qoʻllanishi bilan farqlanadi. Ular talabalar tilida **(chizmoq-qochmoq), (yopmoq-sessiyani tugatmoq), yoshlar tilida esa (gʻisht-xunuk), (sindirmoq-lol qilmoq), (uxlatmoq-aldamoq)** kabi.

Jargonlar tarkibi boshqa tildan olingan oʻzlashma birlik bilan boyib boradi. Tez-tez yangilari bilan almashib turadi.

Ayrim soha vakillari va soha guruhlari nutqiy tejamkorlik, qulaylik uchun ham jargon qoʻllaydi.

*– Eshityapsanmi? – dedi ovozi pasaytirib. – Chap choʻntagingda chaqaloq “inga”layapti. Aytmovdimmi, pulimning oy-kuni yaqin deb. Xayriyat, omon-eson qutuldi, shoʻrlik! Mayli, “**bola**”sini senga berdim. 200 soʻmni qaytar! (“bola” foiz maʼnosida)(254-b)*

*Qonunni **suv qilib ichib yuborgan.** (Juda ham yaxshi bilishini nazarda tutmoqda) (234-b)*

Jargonning kelib chiqishi, qoʻllanilishi, turi kabi masalalar-

ARGOTIZMLAR

Argo so`zi fransuzcha “argot” so`zidan olingan bo`lib biron ijtimoiy guruhning o`ziga xos, boshqalar tushunmaydigan yasama tili. Argo bir necha til unsurlaridan iborat qorishiq va ko`p hollarda, boshqalarga tushunarsiz nutq turida namoyon bo`ladi. Argo nutqda kommunikatsiya predmetini sir tutish maqsadida qo`llanadi:

1. O`g`rilar nutqida: (mandarin-tilla), (akula-panjarani kesish uchun moslama), (kalamush-o`z yaqinlarinikiga “tushadigan”), (urkagan-tajribali o`g`ri);
2. Mahbuslar nutqida: (maymun-oyina), (shobla-qalloblar guruhi), (krokodil-qaychi), (ment-militsioner), (pushka-pistolet).⁵⁴

Argolar ham jargon so`zlar kabi biror ijtimoiy guruh yoki toifalarning, masalan, sportchilar, o`g`rilar, olibsotarlar, poraxo`rlar va boshqalarning “yasama tili”dir. Argotizmlar yashirin ma`no ifodalaydi.⁵⁵

Argolar qiziqishlari, mashg`ulotlari, yoshlari bir xil bo`lgan juda tor doira (guruh)ga mansub kishilar qo`llaydigan, ma`nosi shunday kishilarga tushunarli bo`lgan so`zlardir. Ular umumxalq tiliga oid so`zlardan bo`lsa-da, ammo bunday so`zlar ham keng xalq ommasiga tushunarli bo`lmaydi. Shu jihatdan argolar jargonlarga o`xshaydi. Argotizm va jargonizmlar asosan, jonli so`zlashuvda tor doirada ishlariladi. Ulardan badiiy asarda obraz va personajlarni tipiklashtirish maqsadida foydalanish hollari uchraydi. Jargonlar va argolar tilni bulg`aydi. Tilning sofliги va tozaligi, aniqliligi va ravshanligi uchun jargonlarga qarshi kurashni ham taqozo qiladi.

⁵³ R.Sayfullayeva va boshqalar. “Hozirgi o`zbek adabiy tili”. 125-126-betlar.

⁵⁴ R.Sayfullayeva va boshqalar. “Hozirgi o`zbek adabiy tili”. 125-126-betlar.

⁵⁵ Jamolxonov X. “Hozirgi o`zbek adabiy tili”. Toshkent. “Talqin”. 2005. 202-203-betlar.

*U bo`lsa, ichkaridan kattaroq odam chiqarmikin, degan umidda birpas odob saqlab turadi-yu, hech kimdan darak bo`laver-maganidan keyin bir qo`llab velosipedni rulidan ushlaydi, ikkinchi qo`liga “**uch oyog`i**”ni olib, ikkilanibroq ichkariga kiradi. (“Uch oyoq”fotoapparat ma`nosida) (67-b)*

Lekin badiiy adabiyotda stilistik maqsadda jargonlardan qisman foydalaniladi. Jargonlar ma`lum ijtimoiy tabaqa yoki guruhlar o`rtasida tarqalganligidan, ular shu toifa kishilar nutqini berish vositasi sifatida ishlatiladi.

VULGARIZMLAR

Vulgarizmlar - haqorat ma`nosida qo`llaniladigan so`zlar. Masalan: *xunasa, dayus, so`tak, to`nka* kabilar. Bunday leksemalar yoki ularning vulgar ma`nolari adabiy til birligi sanalmaydi, ularni qo`llash nutq madaniyatiga xilof deb qaraladi. Ammo badiiy asar tilida bunday so`zlardan uslubiy vosita sifatida foydalaniladi.⁵⁶

Umrida bunday xo`rlik ko`rmagan Koryagin g`azablanib ketdi.

*– Qo`yvor, **qanjig!** – dedi hayiqib. (106-b)*

*– Nima-nima?! – Koryagin ijirg`anib labini burdi. – Qilg`ilikni sen qilgin-da, kampir-xotining oldida men javob beraymi? Feodal! Bola tug`dirishdan boshqani bilmaydigan **baran!***

*– Koryagin butun nafratini bir so`zga jamlab, jirkanch bilan ta`kidladi. – **Plebey!** (119-b)*

Siz boshimni silab, bag`ringizga olmasangiz, go`rso`xta erimning paypog`ini yuvib yuravergan bo`lardim! (“Yubiley” 79-b)

VARVARIZMLAR

O`zbek tilida shunday so`zlar borki, o`zbek tiliga o`zlashmagan, o`zga

⁵⁶ Jamolxonov X. “Hozirgi o`zbek adabiy tili”. Toshkent. “Talqin”. 2005. 202-203-betlar.

tilning soʻzi yoki iboralari - varvarizmlar deyiladi. Varvarizmlar odatda oʻzga yerga xos rasm-odatlarni tasvirlashda, mahalliy koloritni berishda va yaratishda foydalaniladi. Varvarizmlarga adibning deyarli barcha asarlaridan misollar topish mumkin. Lekin, adibning birgina “Yubiley” hikoyasida bunday soʻzlar anchani tashkil etadi.

– *Men Ra’no opamga o’xshab chiroyli gapirishni bilmayman, - dedi o’ktam ovozd.* – **Karoche**, men Valijon akamni sevaman! **Vapshe** biz – ayollar hammamiz sizni sevamiz. A men bo’lsam – **bezumna** sevaman! Dunyoda bunaqa abayatelniy erkakni ko’rmaganman! Saxiyliklarini aytmay sizmi? Masalan, Yangi yilga Valijon akam menga fransuzkiy duxi padarka qildilar. “Shanel!” Manavi **koltsoni** esa, - u qo’lidagi tilla uzukni negadir Ra’noxon tomonga ko’rsatdi, - **mejdunarodniy jenskiy** bayramga **prepodnosit** qildilar. Yaqinda menga kvartira olib bermoqchilar! Valijon aka! Tug’ilgan kuningizga nima padarka qilishni o’yladim. Ko’p o’yladim. O’ylab-o’ylab, v **konse konsov** o’zimni sovg’a qiladigan bo’ldim!

Uchinchi bob.

O`tkir Hoshimov hikoyalarda poetik tasviriy vositalarning qo`llanilishi.

3.1 Hikoyalarda sintaktik figuralarning qo`llanilishi.

Badiiy nutqning ta'sirchanligini ta'minlashda sintaktik usuldan keng foydalaniladi. Ekspressivlikning namoyon bo'lishi shakllari gradatsiya, sintaktik sinonimiya, bog'lovchilarning maxsus qo'llanishi, antiteza, monolog, sukut, inversiya, takroriy gaplar, ritorik so'roq kabi uslubiy figuralar fikrning o'ta ta'sirchan ifodalanishini ta'minlashga xizmat qiladi. Stilistikaga oid bir qancha adabiyotlarda sintaktik figuralarga tasviriylikning turli usullari kiritiladi. Bular dastlab poeziya doirasida, keyinchalik proza doirasida, keyinchalik proza doirasida qarala boshlandi.

Ma'lumki, nutqning ta'sirchanligini ta'minlashda sintaktik usuldan keng foydalaniladi. Sintaktik qurilmalar ham ekspressivlik va emotsionallikni ifodalashda o'ziga xos o`rin tutadi. Yozuvchi va shoirlarimiz badiiy nutqda, xususan, she'riy nutqda obrazlilik, tasviriylik, emotsionallik va ekspressivlikni yuzaga keltirish uchun xilma-xil sintaktik usullardan keng foydalanadilar.

Bunday stilistik usullar tilshunoslikda sintaktik figuralar termini bilan yuritiladi. Ilmiy adabiyotlarda sintaktik figuralarning quyidagi shakllari qayd etiladi:

- sintaktik parallelizm;

- emotsional gap;
- ritorik so`roq gap;
- inversiya;
- ellipsis;
- gradatsiya;
- antiteza;
- o`xshatish.⁵⁷

Biz ham ushbu manbalarga asoslangan holda O`tkir Hoshimov hikoyalarining sintaktik xususiyatlarini yoritishga harakat qildik.

Badiiy matnda sintaktik jihatdan bir xil shakllangan gaplar ko`p qo`llaniladi. Tilshunoslikda bunday qurilmalar parallelizm atamasi ostida o`rganiladi. Parallelizm (yunoncha, parallelos-yonma-yon boruvchi) yonma-yon gaplar, sintagmalarning bir xil sintaktik qurilishga ega bo`lishi.⁵⁸ Bunda strukturasi bir xil bo`lgan ikki yoki undan ortiq gap ketma-ket keladi. Bunday gaplarning bo`laklari ham, ularning formasi ham bir xil bo`ladi. Bu sintaktik simmetriyani hosil qilib, ifodalilikni kuchaytiradi.<sup>59</sup> O`tkir Hoshimov ijodida sintaktik parallelizm hikoyalarda ohangdorlik hosil qilib ifodalilikni kuchaytirishga xizmat qilgan:

Sintaktik parallelizm. Badiiy matnda sintaktik jihatdan bir xil shakllangan gaplar ko`p qo`llaniladi. Tilshunoslikda bunday qurilmalar parallelizm atamasi ostida o`rganiladi.

Laylak

***Ona yosh edi. Ona navjuvon edi. Bola g`o`r edi, bola go`dak edi...
... Ona yosh edi. Ona navjuvon edi.***

⁵⁷ O`rinboyev B., Qo`ng`urov R., Lapasov J. Badiiy tekstning lingvistik tahlili.-T., 1990. – B. 34.

⁵⁸ Yo`ldoshev M. Badiiy matn va uning lingvopoetik tahlili asoslari. – Toshkent: Fan, 2006. –B. 57.

⁵⁹ Shomaqsudov A., Rasulov I., Qo`ng`urov R., Rustamov H. O`zbek tili stilistikasi. – Toshkent: O`qituvchi, 1983. – B. 233.

... Oradan o`ttiz yil o`tdi. Bola yigit bo`ldi. Ona keksayib qoldi. Oyog`idan mador, ko`zidan nur ketdi.

Umr

Tanishdilar...

Sevishdilar...

Turmush qurdilar...

Farzand ko`rdilar... (“Daftar hoshiyasidagi bitiklar” 21-b)

Munojot

Xudodan, umr ber, deb so`raganlarni ko`rdim.

Xudodan, baxt ber, deb so`raganlarni ko`rdim.

Xudodan, farzand ber, deb so`raganlarni ko`rdim.

Xudodan, davlat ber, deb so`raganlarni ko`rdim.

Xudodan, omad ber, deb so`raganlarni ko`rdim.

Faqat... Xudodan, ey, yaratgan Egam, men – nodonga bir chimdim aql ber, deb so`ragan bandasini ko`rganim yo`q! (“Daftar hoshiyasidagi bitiklar” 5-6-b.)

Antiq kitob

O`qib ko`rdilar.

Yoqmadi.

Qayta yozdilar.

Asl holiga qaytdi.

O`chirib tashladilar.

Tag`in asliga qaytdi.

Olovga otdilar.

Yonmadi...

Bu Kitob – Tarix edi! (“Daftar hoshiyasidagi bitiklar” 30-31-betlar)

Gradatsiya (lot. Gradation zinapoya, bosqichma-bosqich kuchaytirish) . Nutq parchalaridan biri ikkinchisining ma'osini kuchaytirib borishdan iborat uslubiy jarayon. Badiiy adabiyotda holatlarni, tuyg'u va kechinmalarni qiyoslashda, his-hayajonlar junbushini to'liq ifodalashda gradatsiya usulidan foydalaniladi. Adabiyotlarda gradatsiya xususiyatlariga ko'ra turlicha tasnif qilinadi:

mohiyatiga ko'ra: ko'tariluvchi gradatsiya (klimaks) va pasayuvchi gradatsiya (antiklimaks);

ifoda usuliga ko'ra: mantiqiy, emotsional, miqdoriy gradatsiya;

ifoda materialiga ko'ra: leksik gradatsiya va sintaktik gradatsiya⁶⁰.

*Do'stni xo'rlash – **qunoh**. Umr yo'ldoshini xo'rlash – **yuz hissa qunoh**. Ota-onani xo'rlash – **ming hissa qunoh**. Go'dakni xo'rlash – **cheksiz qunoh**...* (*"Daftar hoshiyasidagi bitiklar"* 32-b)

Antiteza – (qarama-qarshi qo'yish, zidlash) deb mantiqiy jihatdan qiyoslanuvchi fikr, tushuncha, sezgi va timsollarni qarama-qarshi qo'yish, zidlash hodisasiga aytiladi. Bunda biri ikkinchisini rad etadi yoki inkor qiladi. Tarkibida antonimlar, grammatik zidlik munosabatini hamda tasdiq va inkor ifoda etuvchi grammatik vositalar, shuningdek, ifodalilikning boshqa zidlash vositalari qo'llaniladi. Badiiy matnni lisoniy jihatdan tahlil qilishda zidlantirishdan yozuvchining ko'zda tutgan maqsadi nima ekanligini aniqlash talab qilinadi. Yozuvchining mahorati zidlantirilayotgan voqeliklar uchun tanlangan ifoda materialida yanada aniq ko'rinadi. Masalan:

Noningni yo'qotsang yo'qot, nomingni yo'qotma!

Bu misolda bir-biriga aloqasi bo'lmagan ikkita tushuncha – non va nom bir-biriga zidlantirilgan.

Nima uchun? degan savol tug'iladi. Yozuvchi nima uchun bu ikki tushunchani qarama-qarshi qo'yayapti? Aslida non – hayotning, tiriklikning ajralmas bo'lagi. Bir parcha non topib yeyish uchun odamzod mehnat qiladi, ter to'kadi. Ammo hayotda o'sha bir parcha nonni topaman o'z nomiga, sha'niga dog'

⁶⁰ Yo'ldoshev M. Badiiy matn va uning lingvopoetik tahlili asoslari. – Toshkent: Fan, 2006. –B. 59.

tushirsa-chi? Keyin uni tiklashning iloji bo`lmaydi. Bu misoldagi “non”ni “hayot uchun kerak bo`lgan hamma narsa, mol-dunyo” ma’nosida ham tushunish mumkin. Yana bir misol:

Nodonlar davrasida kar bo`l. Donolar davrasida soqov bo`l...

Keltirilgan bu misolda antitezaning ifoda materiali sifatida nodon-dono, kar-soqov, birliklari keltirilgan.

Bolalikda dunyo kengu kiyim tor. Keksayganda kiyim kengu dunyo tor...

Qarshilantirishni yuzaga keltirayotgan birliklar (bolalik-keksalik, keng-tor, keng dunyo-tor dunyo, tor kiyim-keng kiyim) xiazmatik konstruksiya shaklida kelib kontrastlikni yanada bo`rttirib ifodalashga xizmat qilgan. Antitezalar ko`pincha xalq og`zaki ijodi bo`lmish maqollarda ham ko`p uchraydi.

Ma’lumki, adabiyotda oksyumoron deb ataluvchi hodisada ham mantiqan biri ikkinchisini inkor etadigan, bir-biriga mazmunan zid bo`lgan ikki tushunchani ifodalovchi so`zlar o`zaro qo`shib qo`llaniladi. Ayrim adabiyotlarda bunday so`zlar “okkozional birikmalar”, “noodatiy birikmalar” yoki “g`ayriodatiy birikmalar” deb ham yuritiladi. Bunday birikmalar individualligi, yangiligi, ko`nikilmaganligi va ohorliligi bilan tasvir ifodaliligini ta’minlaydi. Bunday g`ayriodatiy birikmalar antitezaning bir ko`rinishi sifatida talqin qilinadi.

**Ritorik so`roq.** Bu ekspressiv funksiya tashuvchi sintaktik vositalardandir. Bunday so`roq gaplar badiiy matnning emotsional-ekspressivligini ta’minlovchi kuchli uslubiy vositalaridan hisoblanadi. Tasdiq va inkor mazmuniga rga bo`lgan, tinglovchidan javob talab qilmaydigan gaplar ritorik so`roq gap deyiladi. Ko`pincha ritorik so`roq gaplar tarkibida *nahotki*, *axir* so`zlari keladi. Ular nutqqa ko`tarinki ruh bag`ishlaydi. Bunda tasdiqning kuchli emotsiya bilan ta’kidlanishi uchun xizmat qiladi.

Qiziq, nima demoqchi bo`ldi? “Otinoyim mening ham onam edi, sen pastkash hamma narsani pulga chaqasanmi?” dedimi? Kim o`zi bu yigit?

Nimaga Iskandar uni tanimaydi? Umuman, o`zidan boshqa – Iskandar Vahobovichdan boshqa kimni taniydi? ⁶¹

Ritorik so`roq gaplar ifodalagan hukmga va javobga bo`lgan munosabatiga ko`ra sof so`roq gapdan farqlansa, darak va buyruq gaplardan esa yuqorida ta`kidlanganidek, emotsional-ekspressiv ma`no bo`yog`i bilan farq qiladi. Bunday gap shakllari qahramonning hayratlanishini, quvonchini, ajablanishini, shubha va gumonsirashini, g`azab va nafratini ifodalashda juda qo`l keladi. Ichki va tashqi nutqda, monologik va dialogik nutqlarda keng qo`llaniladi.

– ***Nahotki? – Marat xuddi kasbdoshlari bilan bahslashayotgandek qizishib ketdi. – Nahotki butun boshli qishloq qop-qora bo`lsa? Nahot o`sha xotinning o`z izzat-nafsini himoya qilishga urinayotganini tushunadigan bironta odam topilmasa?*** (“Uzun kechalar” 37-b.)

Ritorik so`roq gaplar nutqiy aloqa vazifasiga ko`ra darak mazmunni yoki buyruq mazmunni ifodalaydi. Ammo nutqda bunday gaplarni oddiy darak gap yoki buyruq gap holida qo`llab bo`lmaydi. Agar ritorik so`roq gap oddiy darak yoki buyruq gap tarzida qo`llansa, so`zlovchi fikridagi emotsional-ekspressivlik yuzaga chiqmaydi.

Emotsional gap. So`zlovchining o`ta xursandlik yoki o`ta xafalik holatlarini yoki qahramonning his-hayajonini, voqea-hodisaga emotsional munosabatini ifodalovchi gaplar emotsional gaplar hisoblanadi. Emotsional gaplar tarkibida maxsus ijobiy va salbiy bo`yoqdor so`zlar (chehra, o`ktam, tabassum, turq, qo`pol, tirjaymoq kabi) mavjud bo`ladi⁶². Bunday so`zlar orqali qahramon ruhiyatida kechayotgan sevinish, qo`rquv, g`azab kabi psixologik jarayonlarni hamda yozuvchining tasvir obyektiga nisbatan subyektiv munosabatini bilib olamiz. Emotsional gaplar tarkibida ijobiy va salbiy bo`yoqdor so`z va iboralar, his-tuyg`u ifodalovchi undovlar (oh, voy sho`rim, eh attang, bay-bay-bay kabi), munosabat

⁶¹ O`sha kitob 49-bet.

⁶² Yo`ldoshev M. Badiiy matn va uning lingvopoetik tahlili asoslari. – Toshkent: Fan, 2006. –B. 59.

ifodalovchi undalmalar qatnashadi. Boisi, ular nutqning yanada ta'sirchanligini va ekspressivligini oshirishga xizmat qiladi. O'tkir Hoshimov hikoyalarida ham emotsional gaplar o'z o'rniga ega bo'lib, adib hikoyalarida emotsional gaplardan foydalangan.

*Qizning allaqayeri chindan ham Natashenkaga o'xshab ketardi. Bo'y-bastimi, oppoq yuzimi... Yo'-o'q! Natasha bunaqa **qiltiriq** emas, rangi ham zahil emas, **sog'lom, o'ktam** ...*⁶³.

Bu nutqiy parchalarda emotsional-ekspressiv so'zlar orqali emotsional gap hosil qilinganida biz adibning tasvir ob'ektiga nisbatan sub'ektiv munosabatini aniqlashimiz mumkin. Shuningdek, emotsional gaplar maxsus undov so'zlar vositasida ifodalanganligini ham kuzatish mumkin.

– Bir nimani so'ramoqchimisiz? – dedi qizga tikilib. Shu ondayoq xayoliga yana o'sha fikr keldi. “**Chiroyli** qiz. Kim bilsin, aqli qanaqaykin. Ko'pincha qizlar o'zining **go'zalligini** payqasa, aqlini ishlatmay qo'yadi-ku...” (“Uzun kechalar” 32-b.)

Bu parchada **chiroyli** va **go'zal** so'zlari gapda o'ziga xos emotsionallikni hosil qilmoqda.

Umuman, O'tkir Hoshimov asarlarida emotsional gaplardan juda o'rinli foydalangan va bunday gaplar o'quvchining adibning tasvir ob'ektiga nisbatan sub'ektiv munosabatini aniqlashi uchun muhim manba sifatida xizmat qiladi.

⁶³ O'sha kitob. 102-b.

3.2 Troplarning hikoyalardagi o`ziga xos xususiyatlari.

Ekspressivlikni leksik usulda ifodalash deganda hissiy-bo`yoqdorlikning leksik birliklar yordamida ifodalanishi tushuniladi. Kishilar orasida muhim aloqa vositasi bo`lgan til nominativ, kommunikativ va ekspressiv vazifalarni bajarish qudratiga ega bo`lgan murakkab hodisadir. Tilning nominativ va ekspressiv funksiyasiga ega ekanligi, til elementlarida, ayniqsa, so`zda o`z aksini topadi.<sup>64</sup> Ma`lumki, tilning boyligini faqatgina uning leksika sohasidagi so`zlarning ko`p bo`lishi belgilamaydi. Tilning boyligini so`zlarning son jihatdan ko`pligi bilan bir qatorda ularning xilma-xil ma`nolarga egaligi, eng nozik ma`no ottenkalarini ifodalashi, sinonimik so`zlar, rang-barang stilistik xususiyatlar ham ifodalaydi (yoki belgilaydi). Ekspressiv-emotsionallikni ifodalovchi troplar, stilistik sinonimlar, ayrim uslubiy chegaralangan leksik qatlam va frazeologizmlar asosida yuzaga keltirish mumkin.

Trop qo`llash badiiy nutqda yangi mazmundagi yangi so`z birikmalarini vujudga keltiradi. Nutqni boshqacha ifodalangan yangi fikr bilan boyitadi, notiqning ma`lum hodisaga munosabatini bildirish yo baho berish uchun qulay imkon yaratadi⁶⁵.

So`z ma`nolarining turli usullar yordamida yangi ma`noga ko`chishi troplar deyiladi. So`z yoki so`z birikmalari turli usullar orqali yangi ma`noga ko`chiriladi. Shunga ko`ra troplarning xilma-xil usullari mavjud: metafora, metonimiya, sinekdoxa, epitet, allegoriya, ironiya, mubolag`a, litota kabi.

Badiiy nutqda troplarni qo`llash yangi mazmundagi so`z birikmalarini vujudga keltiradi. Ular so`zlovchining ma`lum hodisaga munosabatini ifodalash

⁶⁴ Haydarov A. Konnotativ ma`noning nutqda voqelanishi // Til tizimi va nutqiy faoliyat. Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari. – Samarqand, 2010. 98-100-betlar.

⁶⁵ Abdullayev A. O`zbek tilida ekspressivlikning ifodalanishi. - Toshkent: Fan, 1983. – B. 22.

yoki baho berish uchun imkoniyat yaratish bilan birgalikda, nutqni o'zgacha tarzda yangi fikr bilan boyitadi.

Tropning biz yuqorida sanab o'tgan usullaridan tashqari obrazlilik, emotsionallik, ekspressivlik uchun xizmat qiladigan o'xshatish-ifoda ham mavjud.

O'xshatishlar. O'xshatishda ham, tropning deyarli barcha ko'rinishlarida ham o'xshatish g'oyasi asos bo'ladi. Biroq o'xshatish bir xususiyati bilan tropdan farqlanadi: o'xshatish va troplarda ham o'xshatish g'oyasi asos bo'lsa-da, trop turlarida o'xshatish belgilari qisqa ifodalanadi, o'xshatish ifodada bu belgilar to'liq ifoda etiladi. Qolaversa, troplarda o'xshatishni ifodalovchi –day, -dek, kabi, xuddi, yanglig', go'yo, misli singari til vositalari ishtirok etmaydi.(tulki odam-metafora, tulkidek ayyor odam)

O'xshatish ifoda quyidagi to'rt elementdan iborat:

- 1) o'xshagan narsa
- 2) o'xshatilgan narsa
- 3) o'xshash sifat
- 4) o'xshashlikni ifodalovchi til vositalari

O'xshatish ifodasi matn ichida amalga oshadi. Chunki, shoir va yozuvchilarning ba'zilar bir predmet yoki voqea-hodisani biror bir predmet yoki voqea-hodisaga o'xshatsa, ikkinchi bir yozuvchi yoki shoir o'sha predmet yoki voqea-hodisani ikkinchi bir predmet yoki voqea-hodisaga o'xshatadi.

Goho sutdek oydin kechalari hovli o'rtasidagi supadami, chorpoyadami yotganingizda, birdan uyg'onib ketasiz. ("Uzun kechalar"43-b)

Manbalarda o'xshatishni hosil qiluvchi vositalar ikki guruhga ajratilgan⁶⁶: leksik vositalar hamda grammatik vositalar. Leksik vositalarga quyidagilarni kiritishimiz mumkin: kabi, singari, qadar, yang'lig', bamisoli, bamisli, misoli, misli, monand, xuddi, naq, go'yo, teng, o'xshatmoq, eslatmoq, aynan kabi.

⁶⁶ Karimov S. Badiiy uslub va tilning ifoda tasvir vositalari. – Samarqand, 1994. – B. 18.

-day, -dek, -dayin, -namo, -simon, -ona, -omuz, -cha, -larcha, -chalik, -chasiga kabi qo`shimchalar esa grammatik vositalarni tashkil etadi.

*Hotam-xasis negadir iljayadi. **Qoshiqdekkina yuzidaqi** ajinlar qat-qat bo`lib ketadi. (67-b)*

Bu hikoya bilan tanishadigan bo`lsak, hikoya qahramonining yolg`izgina o`g`li urushga ketib, qaytib kelmagani, hayotiga mazmun kiritish maqsadida “uch oyoqlisi”, ya’ni fotoapparatida yosh bolalarni rasmga tushirib yurganligi, to`plagan barcha pullariga o`g`lining bittagina rasmini turli xil ko`rinishlarda chiqarganligini guvohi bo`lishimiz mumkin. Muallif qahramonning yuzini aynan “qoshiq” qa o`xshatganligi ham shundan. Umri davomida o`g`lining hayoli bilan yashagan otaning yuziga bunday o`xshatish hikoyaning ta’sir kuchini yanada oshirgan.

*Goho **sutdek oydin** kechalari hovli o`rtasidagi supadami, chorpoyadami yotganinggizda, birdan uyg`onib ketasiz. (“Uzun kechalar”43-b)*

Bu jumlada kechaning sutdek oppoq ekanligi, oydinlikka o`xshatilgan.

Tamom bo`ptiku! **Rangi dokadek oppoq**... Soqol-mo`ylovi o`sgan... (65-b)

*– Ana siz! – dedi **bolalarcha** xushchaqchaq ohangda. Hilola **muzday** temir panjaraga kaftini bosgancha hayron bo`lib suvga qaradi. – Ana, ana, suzib yuribsiz, - dedi Marat suv yuzida qalqib turgan ingichka oyni ko`rsatib. – O`sha sizsiz-da!*

*Hilola yuragida iliq tuyg`ular uyg`onib, Maratga mehr bilan qarab qoldi. Endi u boyagidek o`ychan, vazmin emas, **go`dakdek** sodda bo`lib qolgan edi. (“Uzun kechalar”36-b)*

O`tkir Hoshimovning hikoyalarida o`xshatish ifodalar o`xshab, xuddi, naq, qatori kabi leksik vositalar va -dek, -day, -chalik, -cha kabi grammatik vositalar orqali hosil qilingan.

Umumiy xulosalar

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, o'zbek adiblari, milliy adabiyotimiz namoyondalari haqida gapirganda, tabiiyki, xalqimiz ma'naviyatining, milliy tafakkurimizning ajralmas qismi bo'lgan, kerak bo'lsa, uning o'zagini tashkil etadigan ona tilimizni, boy tarix va qadimiy an'analarga ega adabiyotimizni asrab-avaylab, rivojlantirib kelayotgan zahmatkash insonlar, ularning og'ir va mas'uliyatli mehnati barchamizning ko'z oldimizdan o'tadi. Shu o'rinda muhtaram prezidentimizning "Adabiyotga e'tibor – ma'naviyatga, kelajakka e'tibor" nomli nutqlarida so'zlagan bir fikrlari yodga tushadi: Biz shoir deganda, avvalo Alisher Navoiydek benazir zotlarni, yozuvchi deganda, Abdulla Qodiriy, Oybek singari o'z xalqi uchun nafaqat noyob iste'dodi, ayni paytda butun hayotini bag'ishlagan buyuk va mo'tabar insonlarni tasavvur etamiz", deb aytgan gaplarida ulkan ma'no bor.

Darhaqiqat, o'zbek xalqining eng sevimli adibi O'tkir Hoshimov ham el ardoqlagan, o'zbek xalqining chin ma'nodagi eng sevimli farzandi, adibi edi. U ham o'z hayotini, butun borlig'ini, quvonch-u shodligini, dard-u hasratini adabiyotga bag'ishlagan yozuvchilardan edi. Uning asarlari kirib bormagan, yoxud oynai jahon orqali eshitmagan, ko'rmagan insonning o'zi bo'lmasa kerak. Chunki uning asarlarining tili shunchalik sodda, xalqona ruhda, o'zbekning oddiygina hayotidan olinganki, ana shu jihatlari barcha kitobxonni o'ziga rom etib olgan edi. Uning barcha asarlari, hikoyalari, qissalari xalqning eng sevimli asarlariga aylanib ulgurgan. O'tkir Hoshimov asarlarining til xususiyatlarini o'rganish esa, juda erta endi qo'lga qalam olgan paytlaridayoq boshlangan. Biz ham mana shunday xayrli ishlarning davomi sifatida adibning faqatgina hikoyalarini tahlilga tortdik va ularning lingvistik, poetik xususiyatlarini tahlil qildik. Hikoyalarni tahlil qilish jarayonida yozuvchi tilining naqadar betakrorligini, tilning har qanday vositalaridan mahorat bilan foydalanganini, har bir qahramon xarakterini, tilini ko'rsatib berishda bir-birini takrorlamagan holda o'ziga xos individuallik bilan yondashilganini ko'rib o'tdik.

Yozuvchi O'tkir Hoshimov hikoyalarida emotsional-ekspressivlik yuqori bo'lib, bu holat adib asarlarining o'quvchi uchun qiziqarli, jonli tarzda namoyon

bo'lishini ta'minlashga xizmat qilgan. Yozuvchining ijod mahsuli bo'lgan hikoyalarida til birliklaridan o'rinli foydalanganligini ko'rish mumkin. Ekspressivlikni hosil qilishda boshqa til birliklari singari nutq tovushlarining ham o'z o'rnini bo'lib, ular vositasida bir qancha ma'nolar ifodalash mumkin ekanligini ko'rsatib bera olgan.

O'tkir Hoshimov ijodida ham so'z qo'llanishining o'ziga xos fonetik jihatlari bo'lib, tasvir mazmuni va jarayoniga xos bunday xususiyatlar yozuvchi ijodidagi individuallikni ta'minlashga xizmat qilgan.

O'tkir Hoshimov hikoyalarida fonetik usul bilan ekspressivlikni hosil qilish yuqori bo'lib, yozuvchi quyidagi usullardan ko'proq foydalangan:

- 1) unlini kuchli talaffuz qilish (dinamik urg'u)
- 2) unlini cho'zish (kvantitativ urg'u)
- 3) undoshni qavatlash (geminatsiya) orqali ma'no kuchaytirish.

Yozuvchi hikoyalarida unlining cho'zilishi g'azablanish, achinish, yalinish, ishonchsizlik, ko'tarinkilik, iztirob, iltijo kabi konnotativ ma'nolarni ifodalab kelgan bo'lsa, undoshlar bilan bog'liq holatlarda hayratlanish, qo'rquv, g'azablanish kabi ma'nolar ifodalangan. O'tkir Hoshimov hikoyalarida ko'p bo'g'inli so'zlardagi unlining cho'zilishi bilan bog'liq holatlarda ko'proq keyingi bo'g'indagi unlining cho'zilishi uchun xarakterlidir. So'zlarni buzib talaffuz qilish natijasida o'sha so'zlayotgan hikoya qahramonining xarakteri to'laligicha kitobxonga tushunarli bo'lishiga xizmat qilgan.

Ma'lum so'zlarda urg'uning o'rnini ko'chirish uchun ikki undoshning yonma-yon (qator undosh hosil qilishi) bo'lishi talab etiladi. O'tkir Hoshimovning badiiy matn yaratishidagi mahoratida morfologik vositalardan ham ustalik bilan foydalangan va ularni o'z o'rnida o'rinli qo'llab, har bir so'z turkumining o'ziga xosligini namoyon eta olgan.

Adib hikoyalarida sub'ektiv baho shakllari ijobiy munosabat ifodalash bilan birga salbiy munosabat o'ttenkasini ifodalashga ham xizmat qilgan. Yozuvchi badiiy matn yaratishda sintaktik usulning ritorik so'roq, gap bo'laklari inversiyasi, gaplarni takrorlab qo'llash usullaridan unumli foydalangan. Ritorik so'roq

gaplarda xuddi darak gaplardagi kabi voqea-hodisalar haqidagi tasdiq yoki inkor tarzida hukm ifodalanadi. Ritorik so'roq gap xuddi darak gap kabi axborot tashish vazifasini bajarsa-da, ritorik so'roq gaplarda emotsional-ekspressivlik xususiyati yuqoriroq bo'ladi. Gap bo'laklarining inversiyaga uchrashi ham ekspressivlikni kuchaytiradi va adib asarlarida inversiya hodisasidan ustalik bilan foydalanib, nutqning ta'sirchanligini oshirishga erishgan. Matnda takroriy gaplarning qo'llash gap tarkibidagi ba'zi bo'lak va u orqali ifodalangan mazmunni alohida ajratib, ma'nosini bo'rttirib ko'rsatish, shu bilan birga o'quvchi e'tiboriga havola qilinayotgan axborotga diqqatni kuchaytirib tortish kabi uslubiy vazifalarni ham bajaradi.

Hikoyalarning leksik-semantik xususiyatlari tahlilga tortilganda, ularda qo'llanilgan sinonim so'zlarning, antonim so'zlarning o'ziga xos jihatlari yoritilib berildi. Ayniqsa maqollarning antonimlik munosabatiga kirishishi ayrim hikoyalarning yumoristik jihatdan kuchli bo'lishiga olib kelgan.

Hikoyalarda barqaror birikmalarning ifodalanishi ham hikoyalarni yanada mazmun jihatidan boyishiga, hikoyalar tilining yanada xalqchil bo'lishiga erishilgan. Ibora va maqollarning ham hikoyalardagi o'ziga xos xususiyatlari ochib berilishiga harakat qilingan.

Sintaktik shakllar va troplarning hikoyalardagi ishtiroki ularning badiiy jihatdan qimmatini oshirishga xizmat qilgan. Badiiy matnni lingvopoetik tahlilga tortganda, ko'chimlar deb ataladigan tasviriy vositalarning deyarli barchasining asosida o'xshatish, chog'ishtirishdan iborat mantiqiy tushunchalar yotganligiga yana bir bor amin bo'ldik.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Karimov I. A. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. Toshkent, 2011. 70 bet.
2. Karimov I. A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. Toshkent, “Ma'naviyat”, 2008. 173 bet

3. Karimov I. A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. Toshkent, "O'zbekiston" 1997. 326 bet.
4. Abdullayev A. O'zbek tilida ekspressivlikning ifodalanishi. - Toshkent: Fan, 1983. – 88 b.
5. Alponova Sh. Inson ruhiyatini aks ettirishda fonetik vositalarning o'rni // O'zbek tili va adabiyoti, 2009. № 4, 79-82 betlar.
6. Baydadayeva G. Okkazonal antonimlarni vujudga keltiruvchi obyektiv va subyektiv omillar// O'ETA, 2010-y, 2-son, 92-b.
7. Iskandarova Sh. Leksik-semantik sistema talqinlari // o'zbek tili va adabiyoti, 2009. 2-son, 49-bet.
8. Haydarov A. Konnotativ ma'noning nutqda voqelanishi // Til tizimi va nutqiy faoliyat. Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari. – Samarqand, 2010. 98-100-betlar.
9. Haydarov A. Badiiy tasvirning fonostilistik vositalari: filol. fanlari nomzodi diss... avtoref. – Toshkent, 2008. –22 b.
10. Hojiyev A. O'zbek tili sinonimlarining izohli lug'ati. Toshkent, "O'qituvchi", 1974-yil, 307 bet.
11. Jamolxonov H. Hozirgi o'zbek adabiy tili. –Toshkent, "Talqin", 2005. 271 bet.
12. Jamoliddinova D. Parantez birliklarning ekspressiv sintaksisdagi o'rni // Til tizimi va nutqiy faoliyat. Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari. – Samarqand, 2010. 98-100-betlar.
13. Jumanazarova G. "Aql" uzvli iboralar. O'zbek tili va adabiyoti, 2012. 2-son 93-b.
14. Karimov S. Badiiy uslub va tilning ifoda tasvir vositalari. Samarqand, 1994. 57-b.
15. Ne'matov H., Rasulov R. O'zbek tili sistem leksikologiyasi asoslari. Toshkent, "O'qituvchi", 1995 yil. – 128.b.

16. Qilichev E. Intonatsiya haqida mulohazalar // O'zbek tili va adabiyoti. 2001 yil, 1-son. – 63-65-b.
17. Qilichev E. O'zbek tilining amaliy stilistikasi. – Toshkent: O'qituvchi, 1992. – 160 b.
18. Rahmatullayev Sh. O'zbek tilining frazeologik lug'ati. Toshkent. 1991-yil, 4-b.
19. Rahmatullayev Sh. Hozirgi adabiy o'zbek tili. –Toshkent: Universitet, 2006. 464bet.
20. Rahmatullayev Sh. O'zbek tilining frazeologik lug'ati.
21. Rahmonov G'. Sinonimlar qatorida graduonimiyaning qo'llanishi // O'zbek tili va adabiyoti, 2012-yil, 3-son, 71-72-b.
22. Rixsiyeva G. Lingvopoetik tadqiq asoslari bo'yicha mulohazalar // O'zbek tili va adabiyoti. 2003 yil, 2-son. –84- 86 betlar.
23. Saidxonov M. Badiiy matn kommunikativ vosita sifatida // O'zbek tili va adabiyoti, 2009. № 5, - 77-80-betlar.
24. Sayfullayeva R., Mengliyev B., Boqiyeva G., Qurbonova M., Yunusova Z., Abuzalova M. Hozirgi o'zbek adabiy tili. –Toshkent, “Fan va texnologiya”, 2009. 415 b.
25. Tursunov U., Muxtorov J., Rahmatullayev Sh. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Toshkent: O'zbekiston, 1992. - 400 b.
26. Umarqulov B. Poetik nutq leksikasi. Toshkent, “Fan” 1990-y.
27. O'rinboyev B., Qo'ng'urov R., Lapasov J. Badiiy tekstning lingvistik tahlili.-T., 1990. – B. 34.
28. O'rinboyev B., O'rinboyeva D. Tilshunoslik nazariyasi. Samarqand. 2010-yil.
29. O'zbek tili leksikologiyasi. Toshkent, “Fan” 1981, 313 bet.
30. Xudoyqulova Sh. E.Vohidov she'riyatida dialektizmlar. // O'zbek tilshunosligining dolzarb masalalari. Ilmiy maqolalar to'plami. -№2. -T.:TDPU, 2008. -B.98-99.

31. Yaxshiyeva G. O'zbek tilida fonografik uslubiy vositalar. filol. fanlari nomzodi diss... avtoref. – Toshkent. 1996. “Fan” 20-22-b.
32. Yo'ldoshev M. Badiiy matn va uning lingvopoetik tahlili asoslari. Toshkent, “Fan” 2007, 123 bet
33. Shoabdurahmonov Sh., Asqarova M., Hojiyev A., Rasulov I., Doniyorov X. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent: O'qituvchi, 1980. – B. 450.
34. Shomaqsudov A., Rasulov I., Qo'ng'urov R., Rustamov H. O'zbek tili stilistikasi. – Toshkent: O'qituvchi, 1983. – 248 b.
35. Shoabdurahmonov Sh., Asqarova M., Hojiyev A., Rasulov I., Doniyorov X. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent: O'qituvchi, 1980. – B. 450.
36. Shukurova Z. “Qissasi Rabg'uziy” da maqollar. O'zbek tili va adabiyoti. 2012-y, 2-son 97-b.
37. Mahmudov N., Xudoyberganova D. O'zbek tili o'xshatishlarining izohli lug'ati. Toshkent, “Ma'naviyat” 2013, 318 bet.
38. O'tkir Hoshimov. O'zbeklar. Toshkent, “G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi”. 2007, 255 bet.
39. O'tkir Hoshimov. Oq bulut, oppoq bulut. Toshkent, “Davr press” 2010, 223 bet.
40. O'tkir Hoshimov. Daftar hoshiyasidagi bitiklar. Toshkent, “Sharq” 2011, 335 bet.

Navoiy davlat pedagogika instituti
Magistratura bo'limi 5A 111201 –
O'zbek tili va adabiyoti ta'lim
yo'nalishi bitiruvchisi Axmedova
Maftunaning “O'tkir Hoshimov
hikoyalarining lingvopoetik
tahlili” mavzusidagi magistrlik

T A Q R I Z I

O`zbek tilining o`ziga xosligi, jilosi, serqirraligi, badiiy obrazlar yarata olish imkoniyatlarini to`laroq anglash uchun hozirgi zamon adabiyoti durdonalari tilini o`rganish davr talabidir. Mana shu jihatdan magistranti Axmedova Maftunaning “O`tkir Hoshimov hikoyalarining lingvopoetik tahlili” mavzusidagi ishi dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Badiiy asar tilini o`rganish keng qamrovli jarayon bo`lib, nafaqat adabiyotshunoslikka oid badiiy g`oya, fikr, umumiy obrazlilik, individuallik, badiiy mahorat, shuningdek, tilshunoslikka oid semiotika, konnotatsiya, pragmatika kabi tushunchalarni umumlashtiradi, kognitiv fan sohalari bilan ham bog`lanib, o`zining tahlil doirasini bilish, tushunish, idrok etish, tahlil qilish, lisoniy tafakkur, lisoniy ong, lisoniy faoliyat, lisoniy shaxsiyat kabi tushunchalar bilan ham kengaytirib boradi. Tadqiqotchining mazkur masalani magistrlik dissertatsiyasiga mavzu qilib olishi bejiz emas. O`tkir Hoshimov hikoyalarining lingvopoetik tahlili tadqiqot obyekti sifatida maxsus tahlilga tortilishi tanlangan mavzuning dolzarbligini alohida belgilaydi.

Tadqiqot jarayonida quyidagi ishlar amalga oshirilgan: Hozirgi o`zbek adabiyotiga o`z asarlari bilan salmoqli hissa qo`shgan adib O`tkir Hoshimov hikoyalarining metaforik, his-tuyg`u ifodalovchi lug`aviy birliklarni o`rganishga bag`ishlangan mazkur ish o`ziga xosligi bilan alohida ahamiyat kasb etadi. Magistrlik ishi kirish, ishning umumiy tavsifi, uch mustaqil bob, xulosa va adabiyotlar ro`yxatidan iborat.

Ishning kirish qismi an`anaviy uslubda yozilgan, unda ishga doir barcha ilmiy-nazariy ma`lumotlar berilgan.

Magistrlik ishining birinchi bobi “O`tkir Hoshimov hikoyalarining fonetik-fonografik va grammatik xususiyatlari” deb nomlangan bo`lib, unda hikoyalarda qo`llangan fonetik-fonografik hamda grammatik xususiyatlarning o`ziga xosligi

masalalari yoritilgan. Ishning ikkinchi bobi “O`tkir Hoshimov hikoyalarining leksik-semantik xususiyatlari” deb nomlangan bo`lib, hikoyalarda qo`llangan sinonim va antonim so`zlar, barqaror birikmalar, uslubiy chegaralangan so`zlarning tahliliga bag`ishlangan. Mazkur bob nazariy ma`lumotlarni o`zida jamlash bilan birga, unda magistrant O`tkir Hoshimovning so`z qo`llash mahoratini ham ochib bera olgan. Uchinchi bob “O`tkir Hoshimov hikoyalarida poetik tasviriy vositalarning qo`llanilishi” deb nomlangan bo`lib, unda sintaktik figuralarning va troplarining hikoyalardagi o`ziga xos ahamiyati yoritilgan.

Mavzuga oid dissertatsiya, avtoreferat, monografiya va ilmiy maqolalar ko`rib chiqilgan. X.Doniyorov, S.Mirzayev, Q.Samadov, I.Qo`chqortoyev, X.Abdurahmonov, N.Mahmudov, B.Umurqulov, I.Mirzayev, S.Karimov, B.Yo`ldoshev, M.Yo`ldoshev, S.Boymirzayeva va boshqalarning ishlaridan foydalanilgan.

O`quv adabiyotlari va lug`atlar bilan tanishilgan. Ishning yakunida bitiruvchi magistrant Axmedova Maftuna muayyan ilmiy xulosalarini bayon qilgan. Ishda muvaffaqiyatlar bilan birgalikda ba`zi imloviy, uslubiy xatoliklar ham uchraydi. Ammo bular bitiruv malakaviy ishining qimmatini pasaytirmaydi.

Magistratura bo`limi O`zbek tili va adabiyoti ta`lim yo`nalishi bitiruvchi magistranti Axmedova Maftunaning “O`tkir Hoshimov hikoyalarining lingvopoetik tahlili” mavzusidagi magistrlik dissertatsiyasini tugallangan magistr tadqiqoti sifatida ijobiy baholayman. O`zbek tili va adabiyoti magistri akademik darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya tadqiqotning barcha talablariga yetarli darajada amal qilingan: mavzuning dolzarbligi maqsad va vazifalari, amaliy ahamiyati belgilangan. Tegishli ilmiy va o`quv adabiyotlaridan, ilmiy maqolalardan samarali foydalanilgan, ularga munosabat bildirilgan. Tadqiqotchi olimlarning fikrlarini mushohada qilib, o`z xulosalarini chiqargan.

Men mazkur magistrlik dissertatsiyasini tugallangan tadqiqot sifatida Davlat attestatsiya komissiyasiga himoya qilish uchun tavsiya etaman.

Taqrizchi:

f.f.n. B. Zaripov

Navoiy davlat pedagogika
instituti 5A 111201 – O'zbek tili va
adabiyoti magistratura mutaxassisligi
bitiruvchisi Axmedova Maftunaning
“O'tkir Hoshimov hikoyalarining
lingvopoetik tahlili” mavzusidagi
magistrlik dissertatsiyasiga tashqi

T A Q R I Z I

Xalqimizning sevimli yozuvchisi bo'lgan O'tkir Hoshimovning boy
merosidan bahramand bo'lish yoshlarimizning dunyoqarashini shakllantirishda

muhim o`rin tutadi. Bituruvchi magistr axmedova Maftunaning taniqli yozuvchimiz O`tkir Hoshimov hikoyalarining lingvopoetik tahlilini o`rganish, uning badiiy qirralarini ochib berishga bag'ishlangan Magistrlik ishi ayni shu masalaga bag'ishlanganligi bilan ham e'tiborli.

Mazkur magistrlik ishida keltirilgan uchta mustaqil bobda bitiruvchi magistr hikoyalarda qo`llangan leksik birliklarning o`ziga xos xususiyatlariga batafsil to'xtalgan. Hikoyalarda qo`llangan fonetik-fonografik vositalar, grammatik shakllar va leksik-semantik so`z va iboralar asar matnididan olingan misollar asosida yoritilgan. Tahlillarda talabning shaxsiy munosabati, ilmiy-nazariy fikrlari to'la o'z aksini topgan.

Uchinchi bobda poetik tasviriy vositalarning uslubiy jihatlari yaxshi yoritib berilgan. Troplarning barcha turlari yoritilmagan bo`lmasa-da, ammo o`xshatishlar hikoyalar tarkibida atroflicha o`rganilgan.

Ishda erishilgan amaliy natijalardan O`tkir Hoshimovning ijodini kollej, litsey hamda oliy o`quv yurtlarida o`rganish, seminar-trening darslarida qo'shimcha manba sifatida foydalanish mumkin.

Filologiya fanlari nomzodi:

O`. Oripov.

Mundarija

Ishning umumiy tavsifi.....	2 – 8
Kirish.....	9 - 10
I Bob. O`tkir Hoshimov hikoyalarining fonetik-fonografik va gram.....	11 – 45
1.1 Segment hodisalarning stilistik xususiyatlari.....	11 – 13
Unli harflarni birdan ortiq yozish orqali.....	13 – 22
Undosh tovushlarni ikkilantirish.....	23 – 27
So`zlarni noto`g`ri talaffuz qilish.....	28 – 30
1.2 Supersegment vositalarning stilistik xususiyatlari.....	30 – 35
1.3 Hikoyalarda morfologik va sintaktik formalarning qo`llanilishi.....	35 – 45
II Bob. O`tkir Hoshimov hikoyalarining leksik-semantik xususiyatlari.....	46 – 76
2.1 O`tkir Hoshimov hikoyalarida sinonim va antonimlarning	

uslubiy xususiyatlari.....	46 – 60
Sinonimlar.....	46 – 51
Zid ma'noli so'zlar (Antonimlar).....	52 – 55
2.2 O'tkir Hoshimov hikoyalarida barqaror birikmalarning qo'llanilishi.....	56 – 60
Iboralar.....	61 – 64
Maqollar.....	65 – 69
2.3 O'tkir Hoshimov hikoyalarida chegaralangan qatlam leksikasi.....	65 – 81
Dialektizmlar.....	65 – 69
Kasb-hunarga oid terminlar.....	69 – 71
Jargotizm, Argotizm, Vulgarizm, Varvarizm.....	71 – 77
III Bob. O'tkir Hoshimov hikoyalarida poetik tasviriy vositalarning qo'll.....	77 – 83
3.1 Hikoyalarda sintaktik figuralarning qo'llanilishi.....	83 – 86
3.2 Troplarning hikoyalardagi o'ziga xos xususiyatlari.....	87 – 89
Umumiy xulosalar.....	90 – 92
Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.....	90 – 92